

G. Bozorova, Y. Shaymanova, Z. Qarshiboyeva

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

G. Bozorova, Y. Shaymanova, Z. Qarshiboyeva

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasida tahsil
olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma

Toshkent - 2023
“Fan ziyosi” nashriyoti

UO'K: 656.674.724.15
KBK: 81.2(50'zb)5

443
1380

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI. Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. Bozorova Gulruh, Shaymanova Yulduz, Qarshiboyeva Zuhra / – Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 172 bet.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston har jabhada yetuk kadrlar, malakali mutaxassislar, o'z sohasining bilimdonlari mehnati va tajribalariga tayangan holda yuksak cho'qqilarni zabt etmoqda. Salohiyatli olimlar, tadqiqodchilar, soha vakillari o'zaro muloqot jarayonida og'zaki va yozma shaklda o'zbek tilidan foydalanishadi.

ISBN: 978-9910-743-7-3-3

**SDVU Axborot-
resurs markazi**
Inv № 372 967

KIRISH

Dugungi kunda Yangi O'zbekiston har jabhada yetuk kadrlar, malakali mutaxassislar, o'z sohasining bilimdonlari mehnati va tajribalariga tayangan holda yuksak cho'qqilarni zabt etmoqda. Salohiyatli olimlar, tadqiqodchilar, soha vakillari o'zaro muloqot jarayonida og'zaki va yozma shaklda o'zbek tilidan foydalanishadi. Ushbu ehtiyojdan yuqori saviyada foydalanish va bu borada ko'zga tashlanayotgan ba'zi kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda oldini olish maqsadida davlatimizda til siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujatlarda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirishi tabiiy. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori bilan "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini ta'minlash Davlat dasturi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan yangi tahrirda tasdiqlandi. Davlat dasturiga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1996-yil 14-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" (yangi tahrirda)gi Qonunini bajarish tadbirlari to'g'risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o'quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslarini 1997-yildan e'tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat'iy qilib qo'yildi. Jumladan, konsepsiyada ustuvor vazifa sifatida belgilangan

mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik soha vakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekanligi shubhasizdir.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturiga O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani kiritilgan bo'lib, talabalarga amaliy mashg'ulot sifatida o'qitilmoqda. Mazkur fanning o'qitilish maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda ushbu uslubiy qo'llanma tayyorlandi. Qo'llanmada keltirilgan materiallar foydalanuvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, sohaviy atamalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ma'naviy va ruhiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashda yordam berishi ko'zda tutilgan.

1-MAVZU. KIRISH. O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI FANINING O'RGANISH OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Til ijtimoiy hodisa sifatida. Dunyo tillari va o'zbek tilining o'rni.
2. Umumxalq tili, milliy til, adabiy til va Davlat tili tushunchalari.
3. O'zbek tili va huquqiy-me'yoriy hujjatlar.
4. O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining o'qitilish asoslari.

Tayanch so'z va iboralar: milliy til, umumxalq tili, sheva, lahja, adabiy til, davlat tili, davlat tilini o'qitishdan maqsad, o'zbek tilining sohada qo'llanilishi, imlo qoidalari, ish yuritish, mutaxassislik terminologiyasi, hujjatlar tili, og'zaki adabiy til, yozma adabiy til, davlat tili haqidagi qonun, savodxonlik.

Til milliy identifikatsiyaning asosiy omilidir. Bu bizni ma'lum bir tarzda gapirishga, fikrlashga va hatto his qilishga majbur qiladi, bu esa ushbu tilda so'zlashuvchilar tomonidan atrofimizdagi dunyoni idrok etish va baholashning o'ziga xos xususiyatini tashkil qiladi. Til qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, so'zlovchining intellektual rivojlanishi uchun imkoniyat shunchalik katta bo'ladi, chunki lingvistik shakl va elementlarning boyligi va ko'p qirraliligi inson tafakkurining teranligini belgilaydi. Bizga esa bu chinakam bebaho ne'mat ajdodlarimizdan meros qolgan. Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rni, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas. Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar o'z o'rnini qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Tilning ijtimoiyligi jamiyatda bajaradigan vazifasi, roli va bizning qanday ehtiyojimizni bajarishi bilan belgilanadi. Jamiyat uzluksiz harakatda, rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgani kabi, uning tili tinimsiz harakatda, o'zgarishda, rivojlanishdadir.

Ilm-fan, san'at va madaniyat, ma'naviyat hamda ma'rifat haqida gap ketganda dunyo ma'rifatparvarlik maktabining taraqqiyotida tilning,

ya'ni milliy tilning o'rni va roli alohida o'rin tutishini ta'kidlash zarur. Chunki har qanday ixtiro yoki kashfiyot til bois ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib yashab kelmoqda. Shu bois har bir til o'z egasi uchun nihoyatda qadrlil va aziz hisoblanadi.

Til kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv qurolidir. Shunga ko'ra u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til vositasida fikrlaymiz va boshqalarga fikrimizni uzatamiz. Tilni xalq yaratadi va unga sayqal beradi.

O'zbekiston – ko'p millatli davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O'zbekiston aholisining 80 foizdan ortig'ini o'zbeklar tashkil etib, ularning umumiy aholi sonidagi ulushi muntazam oshib bormoqda.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tili bo'lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi. O'zbek umumxalq tili uch lahjadan tashki topgan. Umumxalq tili milliy til ham deyiladi. Adabiy til esa umumxalq tilining olim va adiblar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, hamma uchun umumiy bo'lgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli.

Davlat muassasasi, matbuot, radio, televideniye va ta'lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida bo'lmaydi. Adabiy tili bo'lishi uchun umumxalq tili a) yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi; b) qonun-qoidasi aniqlangan bo'lishi; c) mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo'lishi lozim. Dunyodagi ko'pgina tilning hozir ham adabiy shakli yo'q. Adabiy tilning og'zaki va yozma ko'rinishi mavjud. Og'zaki shakl so'z, tovush, gap, ohang, pauza (to'xtam) bilan, yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgisi bilan ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli o'z me'yoriga ega. Uning og'zaki shakli kishi uchun bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasi. Chunki yozuvda qog'oz, ruchka, yorug'lik bo'lishi kerak. Og'zaki muloqotda bu shart emas. Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat'iy me'yorni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun

adabiy til xalq shevasidan uzilmagan. Milliy til uchun sheva boyishning ichki manbasi hisoblanadi. Boshqa tildan soʻz olib rivojlanish tashqi manbadir.

Tillar taraqqiyotidagi oʻzgarishlar turli yoʻnalishda boʻlib har xil natijalarga olib keladi. Baʼzan shunday ham boʻladiki, tildagi qandaydir kichik oʻzgarishlar kuchayib, ularda soʻzlashuvchilarning muloqotida quyinchiliklarni keltirib chiqaradi va baʼzan bir tilning ikki variantida soʻzlashuvchilar bir-birlarini tushunmay qolishlari mumkin. Tilning taraqqiyotidagi bunday jarayon farqlanish deb ataladi. Buning aksi boʻlgan jarayon, yaʼni bir tilning ikki varianti oʻrtasidagi farqlanish yoʻqolishi natijasida ularning qoʻshilib ketishi integratsiya deb ataladi. Bu ikki jarayon tillarning rivojlanish davrida turlicha kechadi. Qadim zamonlarda til qabila bilan bogʻliq boʻlgan. Qabilalarning boʻlinib ketishi natijasida tillar ham boʻlinib ketgan va farqlangan. Biroq bu farqlanish jarayoni tez kechmagan. Tillarning oʻxshashligi esa oʻtmishda koʻchmanchilik bilan hayot kechirgan xalqlarning tillarida koʻproq roʻy bergan. Odatda qishloq xoʻjaligi, togʻda va oʻrmonda hayot kechirish tillarning farqlanishini tezlatuvchi shartlardan hisoblanadi. Masalan, Afrika qitʼasidagi Kamerun mamlakatida 180 dan ortiq til bor. Tojikistonning Pomir togʻlaridagi aholining bir necha tillarda soʻzlashuvi, hatto ular yashayotgan joy 5-6 km. uzoqlikda boʻlsa ham turli bir-biriga oʻxshamagan tillarda soʻzlashuvi qiziqdir. Bir tilning ikki tilga ajralish jarayonida aval bu tilning sheva va lahjalarga boʻlinib ketishi roʻy beradi. Kelgusida bu shevalar alohida til boʻlib qolishlari mumkin.

Faqat muayyan hududga xos til shakli **sheva**, bir-biriga yaqin boʻlgan sheva yigʻindisi **lahja** deb yuritiladi. Oʻzbek umumxalq tili tarkibida uchta lahja bor: qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh); qipchoq lahjasi (janubiy-gʻarbiy guruh); oʻgʻiz lahjasi (shimoliy-gʻarbiy guruh).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

- 1) umumturkiy soʻzlar
- 2) oʻzbekcha soʻzlar
- 3) tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar
- 4) arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar
- 5) rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar

O'zbek tili tarixining asosiy taraqqiyot bosqichlari

№	Asrlar	Davrning nomlanishi	Manbalarda tilning turlicha nomlanishi	Asosiy adiblari va yozma yodgorliklari
1	X-XIV	O'zbek tilining ilk taraqqiyot davri	Turkiy, eski turkiy til, turkiy xoqoniy, sharqiy turkiy, chig'atoy tili	Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Bolosog'unii, Ahmad Yuynakiy, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Durbek, Qutb Xorazmiy asarlari
2	XIV-XIX	O'zbek tilining takomillashish davri	Eski o'zbek tili, turkiy til, chig'atoy tili, O'rta Osiyo turkchasi, Navoiy turkchasi, sharqiy turkcha	Xorazmiy "Muhabbatnoma"si (1353-y.)dan boshlab Niyoz Muhammad (Komil) Xorazmiygacha (XIX asr ikkinchi yarmi)
3	XIX-XX	Milliy adabiy tilning shakllana boshlashi	Yangi o'zbek tili, turkiy til, sort tili	Muqimiy, Furqat asarlaridan boshlab o'zbek jadid adabiyoti ilk namunalari gacha
4	XX-XXI	O'zbek milliy adabiy tili	Hozirgi o'zbek tili	Hozirgi o'zbek tili

Davlat tili – siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek, ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.

Davlat tili mustaqil davlatning muhim belgisidir. Til davlat himoyasiga muhtoj bo'lganda, undan foydalanishni barqarorlashtirishga

ehtiyoj sezilgandagina, uning rivoji uchun shart-sharoit lozim deb topilgandagina unga qonun yo'li bilan davlat tili maqomi beriladi. Tilga davlat tili nufuzining berilishi esa mustaqil davlatning suveren huquqi hisoblanadi.

O'zbek tili mavqeyini mustahkamlash borasida mamlakatimizda qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

1989-yil 21-oktabrda istiqlol sari tashlangan dadil qadam sifatida O'zbekiston Respublikasining 30 moddadan iborat **“Davlat tili haqida”**gi tarixiy qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda mustaqil davlat deb e'lon qilinishi qaddimizni bukib kelgan barcha tahqir va tazyiqlardan ozod etdi. “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun – 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilindi va har yili boshqa bayramlar qatori yuqori ko'tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda.

Mazkur tarixiy qonun qabul qilingan paytda O'zbekiston Respublikasi haali sobiq sho'rolar davlati tarkibida bo'lib, birgina qonun qabul qilish bilan o'zbek tilining mamlakat ichida va undan tashqaridagi obro'-e'tibori, xalqaro mavqeyini tezda tiklash qiyin edi. Shuningdek, mazkur qonunda o'zbek tili bilan bir qatorda rus tiliga ham millatlararo muomala tili sifatida bir talay imtiyozlar ham berilgan ediki, bu hol ham o'zbek tilining davlat tili sifatida keng miqyosda qo'llanishiga biroz bo'lsa-da, soya tashlar edi. Shuning uchun ham istiqlolga erishilgach, qonun qayta ishlanib, davr talabidan ortda qolayotgan moddalar yangilari bilan almashtirildi, mustaqil davlat hayotiga mos keluvchi yangi tahrirda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilindi. Avvalgi qonun 30 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdan so'ng u 24 moddaga keltirildi. Qonunning 1-moddasidayoq “O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir” deyilgan. Mazkur moddaning o'ziyoq respublikamizda ish yuritish – hujjatlar bilan bog'liq barcha ishlarning davlat tilida olib borilishi lozimligini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori bilan “Davlat tili haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini ta'minlash Davlat dasturi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan yangi tahrirda tasdiqlandi. Davlat dasturiga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1996-yil 14-noyabrda O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” (yangi tahrirda)gi Qonunini bajarish tadbirlari to'g'risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o'quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun “Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik” kurslarini 1997-yildan e'tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat'iy qilib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi **“O'zbek tilining**

davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi „Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me‘yoriy hujjatlarda “o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash” asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o‘qituvchilarning mas‘uliyatini oshirishi tabiiy. Jumladan, konsepsiyada ustuvor vazifa sifatida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik sohavakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekanligi shubhasizdir.

Hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalari o‘quv dasturiga **“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”** fani kiritilgan bo‘lib, talabalarga amaliy mashg‘ulot sifatida o‘qitilmoqda. Mazkur fanning **maqsadi**:

- talabalarning o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish;
- tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish;
- ularning og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish;
- o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta‘minlashga erishish.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining **vazifalari**:

- ✓ nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- ✓ og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;

✓ ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish;

✓ sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to'ldirish va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

– og'zaki va yozma nutqni egallashlari uchun adabiy til va uning me'yorlariga amal qilish fanning asosini tashkil etishi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

– o'zbek tilining so'z boyligi imkoniyatlaridan keng foydalangan holda gaplarni to'g'ri tuzishi, uslubiy qo'llanishlarni bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda o'zbek tilining grammatik qoidalari me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalay olishi;

– o'zbek xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda erkin muloqotga kirisha olishi;

– davlat tilida yetarli darajada yozma savodxonlikka ega bo'lishi, o'zbek tilida rasmiy ish yurita olish malakasiga ega bo'lishi kerak.



Mavzuga oid savollar

1. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni haqida ma'lumot bering.

2. O'zbek tili o'zining taraqqiyot bosqichlari davomida qanday nomlar bilan atalgan?

3. O'zbek adabiy tiliga qaysi tillardan so'zlar o'zlashgan?

4. O'zbek tilining qadimiy yozma yodgorliklarini sanab bering.

5. Til va nutq hodisasini farqlab bering.

6. Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini izohlab bering.

7. O'zbek tilining nufuzini oshirish, tilimizning sofligini ta'minlash maqsadida yurtimizda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing. Matn asosida quyida berilgan jadval asosida ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

Globalashuv va tillar taraqqiyoti



Har xil asoslardagi hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6 912 ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi (2 269 tasi) Osiyo va 30,3 foizi (2 092 tasi) Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.

Til – moddiy, ma’naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi. YUNESKO hisob-kitobiga ko‘ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o‘zining oxirgi sohibidan ajralishi mumkin. Ba’zi farazlarga ko‘ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o‘lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o‘layotganligi esa dahshatli hodisa! YUNESKOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko‘ra, o‘lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘zbekistondagi Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro – Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo‘lilari (paryo) tili. Qolgan tillarning 2 tasi Qozog‘iston va Qirg‘izistonda (dungan tili, oyrot tili), 1 tasi Turkmanistonda (truxman tili), 9 tasi Tojikistonda (voxon tili, ishqomish tili, sanglich tili, roshorv tili, shug‘on tili, bartang tili, rushon tili, yazg‘ulob tili, yag‘nob tili).

Globalashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikatsiyalari sohasida, Internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq.

Qaysi til Internet tili emas ekan, bu tillarning ro‘parasida o‘lim xavfi turaveradi. Internet tili haqida so‘z ketar ekan, o‘zbek tili Internet tili emasmi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Chunki o‘zbek tilida Internet sahifalarida ma’lumotlar berilmoqda, yozishmalar amalga oshirilmoqda, tilimizda ish olib boradigan sayt va portallar, ijtimoiy tarmoqlar kundan

kunga ko'payib borayotir. Zohiran tilimiz Internet va axborot-kommunikatsiya sohalarida cheklanmagan darajada qo'llanayotgandek, tilimiz esa Internet tiliga aylangandek. Aslida ham shundaymi?

Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter tilshunosligida «kompyuterning tilni tanishi» degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni «tanir» ekan, tilning kompyuter tili, Internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi.

Kompyuter tilni «tanishi» uchun u bu tilni «bilishi» zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, tahrirlashi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning muayyan til asosida ish ko'rishi, tilning sun'iy intellektning to'la ma'nodagi muloqot vositasiga aylanishi uning tilni «bilishi» va «tanishi» asosida sodir bo'ladi. Xullas, XX asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalari sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanib qoldi. Tilning Internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik tilshunoslik, uning davomi bo'lgan kompyuter tilshunosligining shakllanganligi va rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni modellash tirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellash tirish yotadi. Matematik modellash tirish natijalari sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq. Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvlariga, ko'p sonli so'zlashuvchilariga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot-kommunikatsiya, Internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

№	Ma'lumotlar	To'g'ri	Noto'g'ri
1	2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 7000 dan ortiq tilni qamrab oladi.		
2	2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati qayd qilgan tillarning eng ko'p ulushi Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.		

3	Mavjud tillardan 95% til o'lik tilga aylangan.		
4	Buxoro – Samarqand yahudiylari tili o'lim yoqasida turgan tillardan biri hisoblanadi.		
5	Internet tili bo'lmagan tillar o'lim yoqasidagi tillar hisoblanadi.		
6	Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi Internet tizimida qo'llanish darajasiga bog'liq emas.		

2-topshiriq. Quyida berilgan she'rni o'qing. Ushbu she'riy asarda keltirilgan “Parovozni hansiratgan bug'doylarim, Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim”, “Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta, Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto”, “Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar, Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim” kabi misralarni izohlang.

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
 She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.
 Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
 Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim,
 Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,
 Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
 Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.


Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
 O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
 Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
 Topganimiz handalakdek tilim-tilim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
 Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto,
 Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
 Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she‘rlar,
 Bu dunyoda tili yo‘qda dil yo‘q derlar,
 Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
 Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
 Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
 Qodiriylar, Cho‘lponlar-u, Abdullolar,
 Sening qaytgan kuning men tug‘ilgan yilim,
 Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.
 (Muhammad Yusuf)

3-topshiriq. Ushbu infografika bilan tanishib chiqing. O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (2021-yilning yanvar – sentyabr oylari bo‘yicha) haqida ilmiy matn tayyorlang.



4-topshiriq. Quyida berilgan til haqidagi maqollarda tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping va ushbu maqollarning ma‘nosini sharhlang.

1. Tilga e‘tibor — e‘tibor.

2. Achchiq til — zahri ilon,
Chuchuk tilga —
3. Til yaxshisi bor etar,
Til yomoni
4. Aytar soʻzni ayt,
..... soʻzdan qayt.
5. Suydirgan ham til,
..... ham til.
6. Bugʻdoy noning boʻlmasin,
Bugʻdoy boʻlsin.
7. Achchiq savol berib,
..... javob kutma.
8. Til — tarozisi.
9. Tilingda boʻlsa boling,
Kulib turar
10. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,
..... bilan pichoq qinidan chiqar.
11. Yaxshi soʻz qand yedirar,
Yomon soʻz yedirar.
12. Oʻzi sovuqning — sovuq.
13. Yaxshi soʻz kuldinar,
Yomon soʻz
14. Oʻziga boqma, boq.
15. Shirin-shirin soʻzlasang,
Ilon inidan chiqar.
Achchiq-achchiq soʻzlasang,
..... dinidan chiqar.

5-topshiriq. Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunini oʻrganib chiqing hamda Respublika hududida yashovchi boshqa millat va elatlarning oʻz ona tilini qoʻllash bilan bogʻliq moddalarini aniqlang va sharhlab bering.

2-modda.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning oʻz ona tilini qoʻllashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda.

O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi...

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda.

O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

6-modda.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi...

8-modda.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.


9-modda.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritilishi hisob-kitob statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi,



ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda.

Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Iqtisodiy nizolar taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda.

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni notarius yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda — boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda.

Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimai takrorlanishi mumkin.

14-modda.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda.

Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda.

Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda.

Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra — boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda.

Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

20-modda.

Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda.

Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yoriqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda.

Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda.

O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

2-MAVZU. TIL VA YOZUV MASALALARI.

Reja:

1. Yozuv haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zbek yozuvlari tarixidan.
3. Harf va alifbo.
4. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
5. Grafika. Orfografika.

Tayanch so'z va iboralar: yozuv, yozuv turlari, talaffuz va imlo, og'zaki nutq, piktografik yozuv, logografik yozuv, harf-tovush yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi.

Yozuvning paydo bo'lishi til qadar uzoq tarixga ega emas. Hozir bizga ma'lum bo'lgan tillarning yozuv tarixi o'n-o'n besh ming yildan oshmaydi. Ba'zi tillarda hozirgacha yozuv yo'q. Masalan, Amerika qit'asidagi ayrim mahalliy aholi. Yozuv ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi. Boshlang'ich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo'lgan. Predmetlar simbolikasi shunday vazifani bajargan. Mas., qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simboli bo'lgan. Slovyan qabilalarida ilgari va hozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do'stlik va hurmat belgisidir. Yozuv jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta rol o'ynaydi. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi – dunyoning turli nuqtasida paydo bo'lgan yirik siyosiy, ilmiy, texnikaviy va adabiy voqealar barcha xalqlarning mulkiga aylandi. Agar yozuv bo'lmaganida, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi. Xullas, harf yozuvi asosida paydo bo'lgan ilmiy simbolika tafakkur taraqqiyotini tezlashtirishda, fikrlash, o'ylash va isbotlashning yanada yuqori darajaga ko'tarilishida muhim rol o'ynadi.

Yozuv ijtimoiy talab asosida jamiyatning muayyan taraqqiyot davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. U tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy yutuqlardan biri va tilning ifodasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqador. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomon mavjud. Yozuv ko'p holda tilning o'rmini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyat yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto avlodlar

bilan ham aloqa bog‘lash imkoniyati mavjud. Biroq yozuvning tilga nisbatan o‘ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to‘liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun‘iy aksi. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasiga zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangan. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko‘rilganda vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositasiz, ya‘ni yozuv asbobisiz amalga oshmaydi. To‘rtinchidan, yozuv savodi yo‘q kishi uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo‘lmagan taqdirda (masalan, qorong‘ida) ahamiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a‘zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o‘z shaklini keskin o‘zgartirmagan holda o‘sib, mukammallashib boradi. Yozuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o‘zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli shakli sifatida o‘z tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarish yoki jamiyatning talabiga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o‘zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko‘p jihatdan tilga yaqin bo‘lib, ba‘zi holda uning o‘rnini bosa olsa ham, lekin funksiyasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo‘la olmaydi.

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko‘tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi bilan bog‘liq. Demak, yozuv jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotidan biri bo‘lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta roli va o‘ziga xos ahamiyati bor. Agar yozuv bo‘lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari yetib kelmagan bo‘lar edi. Homer, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Nizomiy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Pushkin kabi buyuk siymolarning ajoyib fikrlaridan bahramand bo‘la olmas edik. Jamiyatda kitob, gazeta, jurnal va umuman matbuotning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajaga ko‘tarila borayotgan hozirgi paytda yozuvning, yozma nutqning roli ham o‘sib, ta‘sir doirasi kengayib bormoqda.

Yozuv o‘zining taraqqiyotida turli bosqichni bosib o‘tgan. Dastlab buyumlardan mnemonika yoki “eslatuvchi” vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo‘ldagi birinchi qadam bo‘ldi. Ammo bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Masalan, arqon, chilvir, ip, kanoplarni xilma-xil rangga bo‘yash, ularga turli tugunchalar qilish bilan ayrim voqeani, fikr-istaklarni o‘zlaridan uzoqda turuvchilarga nutqsiz etkazganlar. Biror narsani eslab qolish odati

2-MAVZU. TIL VA YOZUV MASALALARI.

Reja:

1. Yozuv haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zbek yozuvlari tarixidan.
3. Harf va alifbo.
4. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
5. Grafika. Orfografika.

Tayanch so'z va iboralar: yozuv, yozuv turlari, talaffuz va imlo, og'zaki nutq, piktografik yozuv, logografik yozuv, harf-tovush yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi.

Yozuvning paydo bo'lishi til qadar uzoq tarixga ega emas. Hozir bizga ma'lum bo'lgan tillarning yozuv tarixi o'n-o'n besh ming yildan oshmaydi. Ba'zi tillarda hozirgacha yozuv yo'q. Masalan, Amerika qit'asidagi ayrim mahalliy aholi. Yozuv ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi. Boshlang'ich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo'lgan. Predmetlar simbolikasi shunday vazifani bajargan. Mas., qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simboli bo'lgan. Slovyan qabilalarida ilgari va hozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do'stlik va hurmat belgisidir. Yozuv jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta rol o'ynaydi. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi – dunyoning turli nuqtasida paydo bo'lgan yirik siyosiy, ilmiy, texnikaviy va adabiy voqealar barcha xalqlarning mulkiga aylandi. Agar yozuv bo'lmaganida, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi. Xullas, harf yozuvi asosida paydo bo'lgan ilmiy simbolika tafakkur taraqqiyotini tezlashtirishda, fikrlash, o'ylash va isbotlashning yanada yuqori darajaga ko'tarilishida muhim rol o'ynadi.

Yozuv ijtimoiy talab asosida jamiyatning muayyan taraqqiyot davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. U tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy yutuqlardan biri va tilning ifodasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqador. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomon mavjud. Yozuv ko'p holda tilning o'rnini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyat yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto avlodlar

bilan ham aloqa bog'lash imkoniyati mavjud. Biroq yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to'liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksi. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasiga zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangan. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko'rilganda vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositasiz, ya'ni yozuv asbobisiz amalga oshmaydi. To'rtinchidan, yozuv savodi yo'q kishi uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda (masalan, qorong'ida) ahamiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z shaklini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. Yozuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli shakli sifatida o'z tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarish yoki jamiyatning talabiga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi holda uning o'rnini bosa olsa ham, lekin funksiyasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo'la olmaydi.

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, yozuv jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotidan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta roli va o'ziga xos ahamiyati bor. Agar yozuv bo'lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari yetib kelmagan bo'lar edi. Homer, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Nizomiy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Pushkin kabi buyuk siymolarning ajoyib fikrlaridan bahramand bo'la olmas edik. Jamiyatda kitob, gazeta, jurnal va umuman matbuotning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajaga ko'tarila borayotgan hozirgi paytda yozuvning, yozma nutqning roli ham o'sib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda.

Yozuv o'zining taraqqiyotida turli bosqichni bosib o'tgan. Dastlab buyumlardan mnemonika yoki "eslatuvchi" vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Ammo bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Masalan, arqon, chilvir, ip, kanoplarni xilma-xil rangga bo'yash, ularga turli tugunchalar qilish bilan ayrim voqeani, fikr-istaklarni o'zlaridan uzoqda turuvchilarga nutqsiz etkazganlar. Biror narsani eslab qolish odati

shundan qolgan. So'ngra buyumlarga aniq ma'no berila boshlagan. Buyumga ma'no birkirib qo'yishning bu usuli "buyumli yozuv" deb atalgan. O'tmishda, hozirgi zamon yozuvlari bo'lmagan davrlarda, odamlar ba'zi hodisalar va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini yoki zamonda (vaqtda) abadiylashtirish maqsadlarini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv **piktografik yozuv** deb nom olgan. Turli voqea, narsa-predmetlarning rasmlarini chizib, o'zlarining fikr va istaklarini bildirishgan. Ana shunday turli narsa-predmet va voqealarni bildiradigan rasmlar piktografik (pictus – chizilgan, grafo – yozaman) yozuv deb ataladi. Piktografik yozuvda har bir rasm bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, besh qayiq, baliqchi qush, otliq kishi, toshbaqa, quyosh rasmi berilgan. Uning mazmuni quyidagicha: Qabila boshlig'i otda yo'l boshlamoqda. Qayiqda 50 kishi va qabila boshlig'ining Baliqchi ismli safdoshi bor. Ko'lda uch kun suzib, quruqlikka chiqqanlar. Piktografik yozuv asta-sekin takomillashib, ideografik (idea – tushuncha, grafo – yozaman) yozuv paydo bo'ldi. Uni **logografik** (logos – so'z) yozuv deb ham yuritadilar. Bunda tildagi har bir so'z o'z simvoliga ega bo'ladi. Masalan, qadimgi arablar "yuz ming" sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Logografik yozuvning bir ko'rinishi mixxatdir. Bu yozuv qadimgi Mesopotamiyada qo'llanilgan. Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma so'zning ma'nosini izohlaydi. Demak, logogramma bevosita predmet shakli bo'lmay, u so'z ma'nosini aks ettiruvchi shartli belgidir. Logografik (so'z yozaman) yozuvning biroz mukammallashgan formasi iyeroglifik yozuvdir (muqaddas yozuv). Bu yozuv qadimgi Arabistonga, hozirgi Xitoyga xosdir. Xitoy tilining to'liq lug'atlarida qirq mingga yaqin iyerogliflar qayd qilingan. Hozirgi zamon matnlarida esa 2-5 ming atrofida ierogliflar qo'llanadi. Xitoy yozuvi dunyodagi noyob yozuvlardan biri bo'lib, hozirgi zamon kishisi foydalanadigan yozuvlar orasida eng qadimiysidir (miloddan avvalgi XII asr). Qadimgi Misr iyerogliflariga va Shumer mixxatiga tengdosh bo'lgan bu yozuv o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega bo'lganligi uchun ham shu paytga qadar saqlanib kelmoqda. Har bir iyeroglif alohida bir so'zni bildiradi. So'zlar qanday ohangda talaffuz etilishiga qarab, mutlaqo boshqa-boshqa ma'noni bildiradi. So'zlar past, balandlashib boruvchi, baland ohangga qarab uch xil ma'noni ifodalaydi. Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish va qulaylashtirish kerak edi. Uning soddalashtirish jarayoni bir necha yo'llar bilan amalga osha boshladi:

– yangi tushunchalarni mavjud logogrammalar yoki ierogliflar kombinatsiyasi orqali ifodalash. Masalan, xitoy yozuvida: ko‘z yoshi tushunchasi – ko‘z va suv ramzi ifodasi. Unumsiz rivojlandi;

– logogrammалarni o‘zak sifatida qoldirib, grammatik ma’nolar uchun yangi logogrammalar o‘ylab topish;


– fonografik yozuvga o‘tish.

Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va progressiv usuli fonografik yozuvga o‘tish bo‘ldi. **Fonografik yozuv.** Ayrim yozuvlar, masalan, piktogramma, sillabogramma (bo‘g‘in yozuv) va ideogrammalar (shartli belgi, simvol) evolyutsiyasi natijasida harflar paydo bo‘ldi yozuv taraqqiyotida harf-yozuv davri boshlandi. Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to‘rt dan uch qismi mana shu yozuvdan foydalanadi. Lotin yozuvi asosidagi yozuvdan jahon aholisining 30%, slaviyan-krillitsa yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

Yozuvning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saralash zaruriyati bilan bevosita bog‘liq.

Inson nutqi ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: og‘zaki va yozma. Yozma nutq og‘zaki nutqni maxsus belgilar tizimi yordamida ifodalash demakdir. **Og‘zaki nutqda tovushlardan, yozma nutqda esa harflardan foydalanamiz.** Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirda dunyoda 220 ga yaqin yozuv turi bor deb taxmin qilinadi.

O‘zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon, karoshta, sug‘d, xorazm, qo‘shan, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg‘ur, arab yozuvi kabi bir qancha yozuvdan foydalangan. O‘rxun-runik yozuvini boshqa turkiy xalqlar bilan birgalikda ijod qilgan



Piktografik yozuv



O'rxun-Enasoy yodgorliklari

Grafika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "yozmoq" degan ma'noni bildiradi. Unda ma'lum bir tildagi harflar tizimi o'rganiladi. Harf – tovushning yozuvdagi belgisi. Harflarning qat'iy tartibda joylashtirilgan yig'indisi esa alfavit yoki **alifbo** deyiladi.

Har bir tildagi harflar o'z alifbo tartibiga ega bo'ladi. Alifbo so'zi ham dastlabki ikki harf nomidan olingan. Alifbo harflarni xotirada yaxshi saqlash, kutubxonalarda kitoblar katalogini tuzish, lug'at va ro'yxatlar tuzish uchun qo'l keladi.

Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'tmishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. **Avesto, o'rxun-enasoy, sug'd, xorazm, uyg'ur, arab** yozuvlari shular jumlasidandir. Bu yozuvlarda xalqimizning tarixi, urf-odatlar, madaniyati va san'atiga aloqador bo'lgan qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

1930-yildan to 1940-yilga qadar xalqimiz **lotin** yozuvidan foydalandi. 1940-yilning may oyidan boshlab esa rus grafikasi(kirillitsa)ga asoslangan o'zbek yozuvi amalda tatbiq etildi.

Mustaqillik barcha sohalarda bo'lgani singari yozuv borasida ham milliy davlatchilik siyosatini yurgizish imkoniyatlarini yaratdi. 1993-yilning 2-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30% dan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1995-yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonuni e'lon qilindi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 29 harf bo'lib, shulardan 6 tasi unli harf, qolgan 23 tasi undosh harf va bitta (‘) belgisidan iborat. Bu belgi, asosan, arab tilidan kirib kelgan so'zlarda ko'p uchraydi (ma'rifat, ma'naviyat, ma'no kabilar). Undosh harflardan 3 tasi *harfiy birikma* hisoblanadi: **sh, ch, ng**. 2 tasida *tepa belgisi* mavjud: **o', g'**.

1	2	3	4	5	6	7	8
Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii
9	10	11	12	13	14	15	16
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr
17	18	19	20	21	22	23	24
Ss	Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	Jj
25	26	27	28	29	Tutuq belgisi		
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	(‘)		



Mavzuga oid savollar

1. Dunyoda ilk yozuv turlarining paydo bo'lishi haqida ma'lumot bering
2. Yozuv qachon va qanday ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan?
3. Yozuv bosqichlarini sanab bering.
4. O'zbek xalqi qadimdan qanday yozuvlardan foydalanib kelgan?
5. Hozirda dunyo miqyosida qo'llanayotgan yozuvlar haqida nimalarni bilasiz?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan fikrni FSMU texnologiyasi asosida izohlang.

FSMU texnologiyasi

F - Fikringizni bayon eting

S - Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating

M - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring

U - Fikringizni umumlashtiring

Yozuvning kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta roli va o'ziga xos ahamiyati bor.

F	
S	
M	
U	

2-topshiriq. "T" jadval asosida yozuvning afzallik va kamchiliklarini sanab bering.

YOZUV	
AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
Yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan bir-birlari bilan aloqa bog'lash imkoniyati mavjud	Yozuv savodi yo'q kishi uchun o'z ahamiyatini yo'qotadi

3-topshiriq. Berilgan izohlardan bilim, ko'nikma, malaka, tafakkur, izlanish, mas'uliyat, insho so'zlarining ma'nosini aniqlab, daftaringizga ko'chiring: 1) borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalariga oid nazariy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuyi; 2) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish; 3) biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba;

4) o'ylash, fikr yuritish; 5) kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan ko'nikmadan balandroq mahorat; 6) yangilik topish, yaratish harakatida bo'lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat; 7) biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik.

4-topshiriq. Quyida keltirilgan sohaga oid matnni o'qing. Matnda yo'l qo'yilgan imloviy xatolarni toping.

Insoniyat tarixining asosida, uning intilishlari va kurashlari zamirida odamlarni harakatga keltiruvchi bir narsa borki, uni biz extiyojlar deb ataymiz. Ana shu extiyojlar ayrim shaxslarni ham, butun oilalaru xonadonlarni, korxonalaru firmalarni va hatto, mamlakatlar hukumatlarini ham harakatga keltiradi. Tabiyatan turli-tuman bo'lgan mazkur extiyojlarni qondirish uchun bo'lgan hatti-xarakatlar va kurashlar muayyan xo'jalik faoliyati tusini oladi. Insoniyat extiyojlari, bir tomondan, turli-tuman (moddiy va ma'naviy) bo'lsa, ikkinchi tomondan, doyim o'sib boradi. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi va muhum tomoni shundaki, extiyojlarni qondirish imkoniyatlari hamma vaqt ham cheklangan bo'ladi. Demak, insoniyat cheklangan imkoniyatlar doyrasida o'z extiyojlarini to'laroq qondirish muammosiga doyim duch keladi. Muammoning qay darajada hal qilinishi ko'p jihatdan mazkur mamlakatdagi iqtisodiy tizim va munosabatlarga bog'liq. Chunki har qanday jamiyatda odamlarning xo'jalik faoliyati muayyan iqtisodiy tizim sharoitida kichadi. Iste'molchi sifatida bu extiyojlarni to'laroq qondirishga qaratilgan intilishlar, albatta, imkoniyatlar cheklangan sharoitda sodir bo'ladi. Bunday sharoitda, birinchi navbatda, nimani sotib olish keragu, nimani keyingi navbatda xarid qilish maqsadga muvofiq yoki vaqtincha bo'sh shaxsiy jamg'armani bank dipozitiga qo'ygan ma'qulmi yoki aksiya sotib olganmi — bu ishlarni oqilona hal qilish uchun har bir kishi iqtisodiy jihatdan savodxon bo'lishi kerak (**Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. – T.: 2005).**

5-topshiriq. Quyida berilgan sohaga oid terminlarning yozilishiga e'tibor qarating. Terminlarni "Tushunchalar tahlili" metodi yordamida izohlang.

N₂	Tushuncha	Izohi
1	<i>Aprobatsiya qilish</i>	O'simliklarning genetik (nav) jihatidan qanchalik toza ekanligini, kasalliklarga, zararkunadalarga chidamliligi va ekishga mo'ljalangan urug'likning umumiy holatini aniqlash maqsadida, dalada o'tkaziladigan tadqiqot
2	<i>Dominantlik</i>	
3	<i>Duragay</i>	
4	<i>Tizma</i>	
5	<i>Mutagenез</i>	
6	<i>Seleksiya</i>	
7	<i>Superelita</i>	
8	<i>Sitologiya</i>	
9	<i>Ekotip</i>	
10	<i>Elita</i>	

3-MAVZU. O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI

Reja:

1. Harflar imlosi.
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi.
3. Qo‘shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko‘chirish qoidalar.

Tayanch so‘z va iboralar: imlo qoidalar, harflar imlosi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalar.

Orfografiya so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib (“orfo” - to‘g‘ri, “grapho” - yozmoq), imlo qoidalar, ya‘ni to‘g‘ri yozish qoidalar majmuidir.

So‘z o‘zak-negizi va qo‘shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoida yig‘indisi orfografiya deyiladi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo‘lib, orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog‘liq. Rivojlangan, o‘z yozuviga ega bo‘lgan adabiy tilda so‘zni bir xilda – yagona tarzda yozishni yo‘lga qo‘yish uchun imlo to‘g‘risida qonuni qabul qilinadi.

O‘zbek tilining yangi imlo qoidalar 1995-yil 24-avgustda esa “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalar” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-son qarori bilan qabul qilingan. U 82 paragrafdan iborat. Quyida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining imlo qoidalar bilan tanishib chiqamiz:

1. Harflar imlosi:
 - a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
 - b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37-bandlar).
3. Qo‘shib yozish (38-50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57-65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar).
7. Ko‘chirish qoidalar (75-82-bandlar).

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. *Aa* harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda *a* aytiladi va yoziladi.

2. *Oo* harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. *Ii* harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida *o'* unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida *i* aytiladi va yoziladi.

4. *Uu* harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchug, usul, yulduz; maskura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovug* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida *o* unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi *v* undoshidan keyin *u* aytiladi va yoziladi.

5. *O'o'* harfi *o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator *o'rta-keng* unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. *Ee* harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator *o'rta-keng* unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) *ia: material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) *io: biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) *ai: mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) *oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) *ea: teatr, okean, laureat* kabi;

2) *ae, oe* unlilar soʻz ichida kelganda ikkinchi unli *y* aytilsa ham, asliga muvofiq *e* yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. **Bb** harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida *p* aytilsa ham, *b* yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda *baʼzan v* aytilsa ham, *b* yoziladi.

9. **Pp** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. **Vv** harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi oʻzlashma soʻzlarda *v baʼzan f* aytilsa ham, *v* yoziladi.

11. **Ff** harfi:

1) *fan, feʼl, futbol, flzika; asphalt, juft; insof, isrof* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi soʻzlarda *f tovushi baʼzan p* aytilsa ham, asliga muvofiq *f* yoziladi.

12. **Mm** harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. **Dd** harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr* kabi soʻzlarda *t* aytilsa ham, *d* yoziladi.

14. **Tt** harfi *tong, tun; butun, oʻtin, oʻt* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Zz** harfi:

1) *zar, zamon; toza, oʻzbek; yoz, gʻoz* kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin *s* aytilsa ham, *z* yoziladi.

16. **Ss** harfi *sog', somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Shsh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S va **h** harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (‘) belgisi qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

18. **Jj** harfi:

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, proyektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Chch** harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqlik; kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **Rr** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **LI** harfi *lola, loyiq, laʼl; iloj, mahal* kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **Nn** harfi:

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda *n* tovushi baʼzan *m* aytilsa ham, *n* yoziladi.

23. **Gg** harfi *gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg* kabi soʻzlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **Kk** harfi *koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Yy** harfi *yoʻl, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ngng** harflar birikmasi *yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Qq** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **Gʻgʻ** harfi *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **Xx** harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **Hh** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht* kabi so'zlarda *d, t* tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar = metallar, kilogramm+mi = kilogrammi* kabi.

32. ' — *tutuq belgisi:*

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, *tutuq belgisi* qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

Asos va qo'shimchalar imlosi

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) *a* unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda *a* unlisi *o* aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz; so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq; o'na – o'ynoqi, sayra – sayroqi* kabi;

2) *i* unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli *u* aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq* kabi. Lekin *i* unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli *i* aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri – og'riq, qavi – qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: *ol – oluv, yoz – yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida *u* unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz – uzuq, yut – yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi soʻzlarning uchinchi boʻgʻinida *i* aytiladi va shunday yoziladi.

34. *k, q* undoshi bilan tugagan koʻp boʻgʻinli soʻzlarga, shuningdek, *bek, yoʻq* kabi ayrim bir boʻgʻinli soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda *k* undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *gʻ* undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, yurak – yuragim, kubok – kubogi, bek – begi; tayoq – tayogʻi, qoʻshiq – qoʻshigʻi, yaxshiroq – yaxshirogʻi, yoʻq – yoʻgʻi* kabi. Lekin koʻp boʻgʻinli oʻzlashma soʻzlarga, bir boʻgʻinli koʻpchilik soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda *k, q* tovushi aslida aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan soʻzning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *oʻrin, qorin, burun, oʻgʻil, boʻyin, koʻngil* kabi baʼzi soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda, *qayir, ayir* kabi feʼllarga nisbat shaklini yasovchi *-il* qoʻshimchasi qoʻshilganda, *ikki, olti, yetti* soʻzlariga *-ov, -ala* qoʻshimchalari qoʻshilganda ikkinchi boʻgʻindagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *oʻrin – oʻrnim, qorin – qorni, burun – burning, oʻgʻil – oʻgʻling, koʻngil – koʻngli, yarim – yarmi; qayir – qayril, ulugʻ – ulgʻay, sariq – sargʻay, ikki – ikkov, ikki – ikkala, yetti – yettov* kabi;

2) *u, bu, shu, oʻsha* olmoshlariga *-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha* qoʻshimchalari qoʻshilganda *n* tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, oʻshancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi: *buningiz, oʻshanisi* kabi;

3) *o, o, u, e* unlilari bilan tugaydigan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi:

a) koʻpchilik soʻzlarga egalik qoʻshimchalari *-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si* (yoki *-lari*) shaklida tovush ortirmay qoʻshiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obroʻ, mavqe, mavzu, avzo* soʻzlariga I, II shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda bir *y* tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obroyim, obroʻying; obroʻyimiz, obroʻyingiz* kabi; III shaxs egalik qoʻshimchasi *parvo, avzo, obroʻ, mavqe* soʻzlariga *-yi* shaklida, *xudo, mavzu* soʻzlariga esa *-si* shaklida qoʻshiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi *y* undoshi bilan tugagan soʻzga ham III shaxsda *-si* qoʻshiladi: *dohiysi* kabi);

4) *men, sen* olmoshlariga *-ni, -ning, -niki* qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi *n* tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) *-bon, -boz* qo'shimchalari ba'zan *-von, -voz* aytilsa ham, hamma vaqt *-bon, -boz* yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi.

Lekin *-vachcha* qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi *-di* qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan *t* aytilsa ham, hamma vaqt *d* yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi *-illa* (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida *v* yoki *u* tovushi bo'lganda *-ulla* aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi *-dir* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha *-tir* aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga*, chegara bildiruvchi *-gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi *-gach, -guncha, -gani, -gudek*, sifatdosh shaklini yasovchi *-gan*, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi *-gin*, shuningdek, *-gina* qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) *k* undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi *k* aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkani, kichikkina* kabi;

b) *q* undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi *q* aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, uchchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi *k* yoki *q* aytilishidan qat'i nazar, g yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

Qo'shib yozish

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak* (pir-pir+ak), *hayhayla* (hay-hay+la), *gijgijla* (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU*, *ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK* (*O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi*) kabi. '

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, uffff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordikeldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, dukduk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimchali yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq* kabi;

2) juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo'lasan, uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro', darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, og'lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina,

-qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *kelibiq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, *-nchi* qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7-sinf, 5-, „A“ sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 20-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi* kabi. Lekin *bilan* ko'makchisining *-la* shakli, *uchun* ko'makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. *Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha* so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi:

Shuningdek, *qay* so'zi *yoq, yer* so'zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar airatib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga *i* shaklida, unli bilan tigagan soʻzlarga *yi* shaklida qoʻshiladi: *dardi bedavo*, *nuqtayi nazar*, *tarjimai hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan soʻzlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan soʻzlar qoʻshib yoziladi: *gulbeor* (*guli beor*), *dardisar* kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi:

Dilbar, *Oʻrinova Muhabbat Majidovna*, *Azamat Shuhrat oʻgʻli*, *Hamza Hakimzoda*, *Muhammadsharif Soʻfizoda*, *Mannon Otaboy*, *Navoiy*, *Furqat*; *Yelpigʻ ichxon*, *Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon*, *Yangiyoʻl* (shaharlar), *Naymancha*, *Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor*, *Chigʻatoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov), *Qoratogʻ*, *Pomir* (togʻlar), *Oqtepa*, *Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon*, *Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya*, *Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz*, *Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar*, *Qavs*, *Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer*, *quyosh*, *oy* turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida*, *Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va sanʼat asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qoʻyilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *“Tong”* (mehmonxona), *“Saodat”* (firma), *“Navroʻz”* (xayriya jamgʻarmasi), *“Jamalak”* (matbaa birlashmasi), *“Gʻuncha”* (bogʻcha), *“Botanika”* (sanatoriy), *“Paxtakor”* (stadion), *“Qutlugʻ qon”* (roman), *“Dilorom”* (opera), *“Tanovar”* (kuy), *“Ozodlik”* (haykal), *“Jasorat”* (yodgorlik), *“Sino”* (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni*, *Xotira kuni*, *Ramazon hayiti*, *Navroʻz bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Oʻzbekiston Respublikasi*, *Rossiya Federatsiyasi*, *Misr Arab*

Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.*

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.*

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh "harf bilan boshlanadi: "*O'zbekiston Qahramoni*" (unvon), "*Oltin Yulduz*" (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "*Sog'lom avlod uchun*" (orden), "*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi*" (faxriy unvon), "*Matbaa a'lochisi*" (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.* (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: "*Bu men*", — *qo'rqibgina javob berdi ko'laga* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziqli qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

— *mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kiritish-kirmasligini;*

— *ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) rus tilidan kirgan so'zlar („O'zbek tili" darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (Amerika Qo'shma Shtatlari), *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *AES* (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Ko'chirish qoidolari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy, e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa, matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

1) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiqchi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5-, 4- sinf, V "F" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "*Navro'z – 92*" (festival), "*O'qituvchi – 91*" (ko'rik-tanlov), "*Andijon – 9*", "*Termiz – 16*" (g'o'za navlari), "*Boing – 767*" (samolyot), "*Foton – 774*" (televizor) kabi.

82. *A.J.Jabborov, A.D.Abdvaluiev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, *v.b.* (va boshqalar), *sh.k.* (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

? Mavzuga oid savollar

1. Orfografiya nimani o'rganadi?
2. Imlo qoidalariga deganda nimani tushunasiz?
3. Lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi uchun imlo qoidalariga qachon qabul qilingan?
4. Lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi imlo qoidalariga necha bob va bo'limdan iborat?
5. Kirill va lotin yozuvlari imlosidagi asosiy farqlarni sanay olasizmi?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan mavzular asosida imlo qoidalariga rioya qilgan holda sohaga oid matn tuzing.



Iqtisodiy o'sish



Bozor iqtisodiyoti



Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi



Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi



Subtropik o'simliklar

Urug'li mevalar

2-topshiriq. Sohaga oid matnni o'qing. Bosh harflar imlosi, chiziqcha bilan yozish imlosiga e'tibor qarating. Matnda yo'l qo'yilgan imloviy xatolarni aniqlang.

Jahon dehqonchiligida bug'doy ekini yetakchi rolni o'ynab, ekiladigan maydoni va donining yalpi, xosili bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. U asosan non, konditer yoki makaron maxsulotlari tayyorlash uchun un ishlab chiqarish maqsadida ekiladi. Bundan tashqari, bug'doy donidan turli yormalar tayyorlanadi. Mahsus yaratilgan navlari yemish tayyorlashga xizmat qiladi. Bug'doyning kepagi, poxoli, somoni, to'poni yuqori oziqaviy ahamiyatga ega. Uning kepagi hamma qishloq xo'jalik hayvonlari uchun yuqori konsentratlangan yem, kepagidan omixta yem tayyorlashda ham foydalaniladi. Undagi xazm bo'ladigan oqsil miqdori arpa doniga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Oziq ovqat mahsuloti sifatida bug'doy unidan turli navdagi nonlar: shirin kulchalar, biskvitlar, kekslar, piroglar, vafllilar, muzqaymoqlar uchun stakanchalar, makaronlar, bolalar uchun parhez taom tayyorlashda ishlatiladigan yormalar, yarim fabrikatlar va boshqa maxsulotlar tayyorlanadi. Murtagi, kepagi ko'kartirilgan donlardan shifobaxsh mahsulotlar sifatida foydalaniladi. Bug'doy yer yuzida eng qadimiy ekin. Iroq, Misr, Xitoy, shimoliy Mesopatamiya qadimdan bug'doy ekilgan mintaqalarga kiradi. Markaziy osiyoda bug'doy eramizdan oldin VII-minginchi yillardan boshlab yetishtirila boshlangan. amudaryoning quyi qismi, Farg'ona va Xisor vodiylari, Qashqadaryo, Surxondaryo hamda Vaxsh havzalarining unumdor yerlarida eramizdan oldin II minginchi yillarida murakkab irrigatsiya kanallari tizimlariga ega yuksak rivojlangan sug'oriladigan dehqonchilik mavjud bo'lgan va bug'doy yetishtirilgan. Markaziy osiyo hududida o'tkazilgan arxeologik qazishlar mintaqada pakana bo'yli

bug'doy, yumshoq bug'doy, qattiq bug'doy turlari yetishtirilganligini ko'rsatadi. Markaziy osiyo dunyodagi bug'doylarning gen markazlaridan biri hisoblanadi. Bug'doy donini yetishtirish va maydoni bo'yicha Rossiya jahonda boshqa mamlakatlar qatorida yetakchi o'rinni egallaydi. Yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga AQSH, Kanada, Argentina, Avstraliya ham kiradi. Ko'p miqdorda bug'doy doni Meksika, Braziliya, XXR, Hindiston, Yevropa mamlakatlaridan Fransiyada ishlab chiqiladi.

3-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni qo'shib yozish, ajratib yozish hamda chiziqcha bilan yozish qoidalari asosida mos ustunlarga joylashtirib chiqing.

Ko'z//oyinak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so'z, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, g'ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, ko'chama//ko'cha, Olti//ariq, Qum//qo'rg'on, Sot//voldi, kino//yulduz, uy//uyiga, radio//markaz, tele//tanlov, qirq//bo'g'im, qashqar//gul, chala//savod, xush//bichim, hay//hayla, ish//yoqmas, omma//bop, qop//qora, millatlar//aro, tez//oqar, havo//rang, ayta//oladi, qayta//qurish, chanqov//bosdi, umum//davlat, odam//sifat, Tyan//Shan, Chil//ustun, to'g'ridan//to'g'ri.

Qo'shib yozish

Ajratib yozish

Chiziqcha bilan yozish

4-topshiriq. Qishloq xo'jaligi, tur, mutatsiya, xalq xo'jaligi, oziq-ovqat, minerallashuv, suv, yorug'lik, issiqlik, ozuqa, havo, namlik, achitqi bakteriyalari, mikroorganizmlar, vitaminlar, hosildorlik, unumdor, biologik jarayonlar kabi so'z va so'z birlikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Gapda qo'shma so'zlardan foydalaning.

5-topshiriq. Quyidagi juft soʻzlarning tushirib qoldirilgan qismini topib koʻchiring.

Savdo-....., oldi-....., hisob-....., kuch-....., koʻcha-....., aql-....., egri-....., yaxshi-....., toʻy-....., doʻst-....., baxt-....., oʻy-....., katta-....., baland-....., asta-....., urf-....., fahm-....., or-....., kecha-....., osh-....., narx-....., qarz-....., qavm-....., sharm-....., xesh-....., chol-....., sovgʻa-....., soya-....., noz-....., dala-....., ahd-....., xulq-....., orzu-....., aka-....., issiq-....., kecha-....., el-... , ota-....., rang-....., kirim-....., bank-.....

4-MAVZU. SO‘Z VA UNING MA‘NOLARI.

Reja:

1. So‘z va leksema.
2. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar.
3. So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari.
4. So‘zlarda hissiy-ta‘siriy munosabat ifodasi.

Tayanch so‘z va iboralar: leksika, leksikologiya, leksema, bir ma‘noli, ko‘p ma‘noli, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, uslubiy bo‘yoq, hissiy-ta‘siriy munosabat

Har qanday tilni o‘rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma‘lum bir tildagi ana shunday so‘zlar yig‘indisi shu tilning lug‘at tarkibini tashkil qiladi.

So‘z va uning ma‘nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga leksikologiya (ba‘zan leksika) deyiladi. Bunda so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning kengayishi, torayishi, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari, ularning hududiy va ijtimoiy qatlamlari, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi kabi masalalar tekshiriladi. Leksikologiyaning, o‘z navbatida, semasiologiya, leksikografiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya, onomastika kabi bo‘limlari mavjuddir.

Semasiologiya til belgilarining ma‘no xususiyatlarini o‘rganadi. So‘zning belgi sifatidagi ikki jihatidan biri-ifodalanuvchi qismi ma‘nodir.

Leksikografiyada lug‘atlarning tuzilishi tamoyillari, ularning turlari, lug‘at maqolalari o‘rganiladi.

Etimologiyada so‘zlarning kelib chiqishi, qaysi tildan o‘zlashganligi va ularning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq jihatlar tekshiriladi.

Frazeologiyada so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi, frazeologik turg‘un birikmalar va ularning turlari o‘rganiladi.

Onomasiologiyada narsa va predmetlarga, hodisalarga nom berish jarayoni tekshiriladi, onomastikada esa atoqli otlar o‘rganilib, ular ikkiga bo‘linadi: antroponimika (odamlarning ismlari ilmiy jihatdan o‘rganiladigan soha), toponimika va etnonimika (joylarning va urug‘larning, millatlarning nomlarini o‘rganuvchi soha).

Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi.

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa leksema va grammatik qo'shimchalarga bo'linadi. **Tilning lug'aviy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

Tilimiz nihoyatda boy va rang-barang. Bir tushunchani turfa so'zlar vositasida ifodalash bilan birga, o'zingizning turli xil munosabatingizni ham ifodalashingiz mumkin. Masalan: *jilmaymoq, miyig'ida kulmoq, kulmoq, tabassum qilmoq, xaxolamoq, qah-qah otmoq, tirjaymoq, ishshaymoq* kabi o'ndan ortiq so'zlar orqali kulish holatini ifodalaysiz va shu bilan birga kulayotgan shaxsga o'zingizning ijobiy yoki salbiy bahongizni berasiz.

So'zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma'nosi sanaladi. Faqat mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga **ko'p ma'noli so'zlar** yoki **polisemiya** deyiladi.

Polisemiya yunoncha *poli* – **ko'p**, *semia* – **ma'no** so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* – **bir**, *semia* – **ma'no**)ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri **o'z ma'no**, qolganlari esa **ko'chma ma'no** bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh otmoq, bag'ri tosh, toshingni ter* kabi birliklar tarkibida qo'llangan *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida qat'ii foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari. Soʻzlarning nutq jarayoniga bogʻliq boʻlmagan atash maʼnosi **oʻz maʼno** (bosh maʼno, asl maʼno, tub maʼno, denotativ maʼno, toʻgʻri maʼno) sanaladi.

Soʻzning nutqda boshqa soʻzlarga bogʻlanib hosil qiladigan yondosh maʼnosi **koʻchma maʼno** hisoblanadi. Soʻzning koʻchma maʼnosi nutqda boshqa soʻzlar vositasida anglashiladi.



Oʻz va koʻchma maʼno birikib koʻp maʼnoli soʻzni hosil qiladi!

Soʻz maʼnosining koʻchirilishi metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik hodisalari doirasida sodir boʻladi.

Metaforada maʼnoning koʻchirilishi ikki predmet oʻrtasidagi tashqi belgilarning oʻxshashligiga asoslanadi: *samolyotning dumi, ariqning labi, togʻning etagi, tandirning ogʻzi*.

Metonimiya hodisasi ikki predmetning yoki tushunchaning doimiy ravishda yonma-yon qoʻllanishiga asoslanadi. Bunda bir predmetning maʼnosi ikkinchisiga toʻliq koʻchadi va ularning birini aytsak, ikkinchisini tushunamiz: *samovarga chiqdim, Navoiyni oʻqidim, bir tovoq yedim*.

Sinekdoxa hodisasi butun va qism tushunchalari oʻrtasidagi munosabatga asoslanadi. Bunda butun orqali qismning va qism orqali butunning maʼnosini tushunish mumkin: *bash qoʻl barobar emas, ular tirnoqqa zor, xoʻjalikda tuyoqlar soni oshmoqda*.

Vazifadoshlik hodisasida maʼnoning koʻchishi predmetlar bajarayotgan vazifaga asoslanadi. Masalan, *nayza* va *oʻq* soʻzlari oʻrtasida shakliy oʻxshashlik yoʻq. Biroq, shunday boʻlsa-da, ularning vazifalari bir xil.

Soʻzlarda hissiy-taʼsiriy munosabat ifodasi. Soʻzlovchining turli hissiy-taʼsiriy munosabatlarini ifodalash xususiyatlariga koʻra soʻzlar ikki turga ajratiladi. Bular **betaraf soʻzlar** va **boʻyoqdor soʻzlardir**.

Muayyan tushunchani ifodalab, soʻzlovchining turli munosabatini bildiruvchi, qoʻshimcha maʼno jilosi boʻlmagan soʻzlar hissiy-taʼsiriy jihatdan **betaraf soʻzlar** hisoblanadi. Masalan: *yil, kun, joy, qoʻshiq, yashil, tuman, barcha, kelmoq, yurmoq* kabi.

Leksik maʼno bilan birga, maʼnosi anglashilayotgan narsa, belgi yoki harakat-holatga soʻzlovchining turlicha munosabatlarini ham ifodalovchi soʻzlar **hissiy-taʼsiriy jihatdan boʻyoqdor soʻzlar** sanaladi. Masalan: *chehra, jamol, bashar, tabassum, noshud, naynov, bashara, doʻmboq, xomxayol, gazanda, koʻrkam* kabi.

Boʻyoqdor soʻzlar hurmat, erkalash, xushmuomalalik, koʻtarinki ruhiyat kabi qoʻshimcha maʼnolarni ifodalasa, **ijobiy boʻyoqdor soʻz** sanaladi: *ukajon, kenjatoy, dilbar, dono, fusunkor, orombaxsh, jilmaymoq* kabi.

Hissiy-taʼsiriy munosabat nafratlanish, mensimaslik, kinoya, qargʻash, hurmatsizlik maʼnolariga ega boʻlgan *surbet, baloxoʻr, nonkoʻr, ahmoq, imonsiz, mijgʻov, tirjaymoq* kabi soʻzlar orqali ifodalansa, bunday soʻzlar **salbiy boʻyoqdor soʻzlar** sanaladi.

? Mavzuga oid savollar

1. Leksika soʻzi qanday maʼnolarda ishlatiladi?
2. Sozning atash maʼnosi deganda nimani tushunasiz?
3. Bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik atamalariga izoh bering.
4. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi deganda nimani tushunasiz?
5. Soʻzlardagi hissiy-taʼsiriy munosabat haqida gapiring.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni ikki ustunga boʻlib koʻchiring.

Bir maʼnoli (monosemantik)	Koʻp maʼnoli (polisemantik)

Kompyuter, xurmo, xunuk, parcha, xoreografiya, patir, pasta, patnis, gʻildirak, gʻisht, gʻoz, gʻuncha, gazeta, grammatika, urgʻu, dunyo, tilxat, paxta, soya, shaxs, olmosh, doya, qoshiq, qoya, xat, quy, davlat,

qo'shni, marketing, maqol, uy, tom, kirish so'z, undalma, yuvg'ich, dars, haykal, topishmoq, aruz, til.

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni avval o'z ma'nosida, keyin ko'chma ma'noda qo'llab gaplar tuzing.

Tulki, kumush, temir, oltin, bosh, tish, dum, quloq, tirnoq, daftar, kitob, tumshuq, qorin, qora, sovuq, sayoz, achchiq.

3-topshiriq. Berilgan so'zlarni hissiy-ta'siriy jihatdan guruhlarga ajratib, jadval kataklariga yozib chiqing.

Betaraf so'zlar	Bo'yoqdor so'zlar

Maroqli, tabiat, jamiyat, gullamoq, to'nini teskari kiymoq, mingta, harakat, harakatchan, orzu-havasli, ehtirom, ta'sir, to'satdan, ta'zit, ko'rsatmoq, tonna, yaratmoq, yuqori navli, jilmaydi, sersavlat, hashamatli, molekula, elektron, xullas, tajriba-sinov, haqiqat, oddiy, eruvchanlik, mahmadona, ko'rsatilgan muddatda, foyda-zarar, kirim-chiqim, mushtariy, qo'llab-quvvatlamok, man qilinadi, so'raladi, matonatli, jamol, latif, bildirgi, naynov.

4-topshiriq. Quyida berilgan gaplardagi ma'no ko'chishi turini aniqlang.

1. Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan. 2. Uning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Bir boshga bir o'lim. 4. Adl qulog'i-la eshit holimni. 5. Eshitgan quloq nima deydi? 6. Zal kulib yubordi. 7. Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman. 8. Navbatim so'mka ko'targan "jinsidan" keyin. 9. Bitta shu tuyoq bilan besh bolani qanday boqaman. 10. G'ildirakni yurgizib ko'cha bo'yi signal chalib ketdi. 11. Cho'loqqa achinish bilan qaradi.

5-topshiriq. Berilgan matnlardan bo'yoqdor so'zlarni toping hamda ularni ijobiy bo'yoqdor va salbiy bo'yoqdor so'zlarga ajratib ko'chiring.

1. Darvoqe, Tamara xolaning nafaqat "o'z" kalamushlari, balki keyinchalik bostirib kelgan bezbet daydilar to'dasi ham chindan qiynalib

qolishgandi. 2. Irkit daydilar orasida qora kalamush va uning omon qolgan bolalari ham bor edi. 3. U faqat tanasining hali hayot asari butkul tark etmagan o‘rinlariga vahshiy jonivorlarning o‘tkir tishlari botgandagina jon achchig‘ida ingrab yuborar, qichqirishga esa madori yetmasdi... 4. Ammo o‘g‘ri ketish oldidan bir ish qildi. Urchib ketgan kalamushlar karovatsiz qolgan murdani xomtalash qilayotganlarini ko‘rib, xonaga margimush tashlab ketdi. (Yolg‘izlik qurboni. Zulfiya Qurolboy qizi// “Yoshlik”, 2010-yil 9-son) 5. Baxtli odam xudbin bo‘ladi: baxtsizlarga achinmaydi. Baxtsiz odam ham xudbin bo‘ladi: baxtlilarga g‘ayirliqi keladi. 6. Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o‘lchash – dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. 7. Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o‘lchash – dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisidan emaklab tushish zahmati bilan teng. 8. Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko‘p da‘vo qilsa, shuncha nodon bo‘ladi! (Daftar hoshiyasidagi bitiklar. O‘tkir Hoshimov)

5-MAVZU. SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI.

Reja:

1. Shakldosh so‘zlar haqida ma’lumot.
2. Talaffuzdosh so‘zlar haqida ma’lumot.
3. Ma’nodosh so‘zlar haqida ma’lumot.
4. Zid ma’noli so‘zlar haqida ma’lumot.
5. Uyadosh so‘zlar haqida ma’lumot.
6. Variantdosh so‘zlar haqida ma’lumot.

Tayanch so‘z va atamalar: nutq, so‘z, ta’sirchanligi, munosabat, leksik ma’no, tildagi so‘z, talaffuz, shakldosh, ma’nodosh, ko‘p ma’noli, omonim, sinonimik qator, antonim, so‘z o‘yinlari, so‘z san’ati, ma’no qirralari.

So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra omonim, sinonim, antonim, paronim, uyadosh va variantdosh so‘zlarga bo‘linadi. Bu birliklardan sinonim, antonim va uyadosh so‘zlar ma’no xususiyatiga ko‘ra, omonim, paronim va variantdosh so‘zlar esa shakliy xususiyatiga ko‘ra birlashadi.

Omonimlar (shakldosh so‘zlar) – bir xil shaklga ega bo‘lgan, ammo har xil ma’nolarni anglatuvchi so‘zlardir. Masalan, kul-tabassum qil, kul-o‘choqning kuli. Demak, omonimlar shaklan teng kelgan, boshqa-boshqa so‘zlardir. Ular anglatgan ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Omonimlar va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlay olish kerak. Omonimlar har xil ma’noni anglatuvchi so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar esa bir so‘zning turli ma’nolaridir. Bir so‘zning matnda har xil ma’nolarni anglatishi ko‘p ma’nolilik, bir xil shakldagi bir necha so‘zning har xil ma’noni anglatishi esa omonimlikdir. Omonimlar qanday birliklar orasida bo‘lishiga ko‘ra 3 xil: lug‘aviy omonimlar, grammatik omonimlar, frazeologik omonimlar. **1. Lug‘aviy omonimlar** – so‘zlar orasidagi omonimlikdir. Shakli bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan omonimlar lug‘aviy omonimlar deyiladi. Masalan, soch – odamning sochi, soch-ish-harakat. **2. Grammatik omonimlar** – qo‘shimchalar orasidagi omonimlikdir. Bir xil shaklga ega bo‘lgan qo‘shimchalar grammatik omonimlar hisoblanadi. Ularda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- **So‘z yasovchi qo‘shimchalar shakldoshligi:** quvonch(ot)-tinch(sifat).
- **So‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar shakldoshligi:** ruscha(sifat yasovchi)-qizcha(kichraytirish-erkalash).

• **Lug'aviy shakl yasovchilar o'rtasidagi shakldoshlik:** U tarandi(o'zlik nisbat shakli)-nutq so'zlandi(majhul nisbat shakli)

• **So'z yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi:** Siz kimsiz? (sintaktik shakl yasovchi) – suvsiz hayot yo'q(sifat yasovchi).

3. Frazеologik omonimlar – iboralar o'rtasidagi omonimlikdir. So'zning shakli bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan iboralar omonim iboralar deyiladi: Masalan: boshga ko'tarmoq-hurmat qilmoq, boshga ko'tarmoq-janjal qilmoq.

Paronimlar – talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlik ko'pincha orfoepiya me'yorlariga rioya qilmaslik natijasida vujudga keladi. Masalan, ganch (ohak) – ganj (boylik), quyilmoq (Sirdaryo Orol dengiziga quyiladi) – quyulmoq (tuman tobora quyuqlashdi). Paronimlarga misollar: shox-shoh, afzal-abzal, bo'shliq-bo'shlik, ahl-ahil, yondosh-yondash, otalik-otaliq. Paronimlarni so'z variantlaridan farqlash lozim. Bir so'z ikki xil shaklda yoziladi va bu imloviy xato hisoblanmaydi. Ular o'zaro sinonim yoki paronim emas, bir so'zning variantlari sanaladi. Masalan, kaptar-kabutar, obro'-obro'y. Paronimlarni noto'g'ri qo'llash natijasida gapda uslubiy jihatdan xatoliklar vujudga kelishi mumkin. Masalan, quyosh hamal burchiga o'tdi.

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – shaklan har xil bolsa-da, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardir. Bunda so'zlar har xil ma'noni anglatishiga ko'ra guruhlanadi. Sinonimlar faqat bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi: katta, ulug', ulkan, buyuk. Sinonimlar til boyligi bo'lib, shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi va gapdagi takrorlarga yo'l qo'ymaydi. Sinonimlar adabiy tilni boyitish manbalari bo'lib, o'z imkoniyatlarimizdan tashqari, boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish orqali ham sinonimik qatori kengayib boradi: shamol, yel, nasim kabi. Sinonimik qatorda bitta so'z dominanta bo'lib, barcha uslublarda qo'llanila oladi: odat, rasm, urf. Demak, uslubiy betaraf yoki dominanta so'z barcha uslublarda qo'llanila oladi. Badiiy uslubda ma'lum bir fikrning, tushunchaning mazmunini kuchaytirish va ta'kidlash uchun sinonimlar katta ahamiyatga egadir.

Sinonimlar bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi barcha so'z turkumlarida sinonimlik mavjud. Sinonimik qatordagi asosiy so'z dominanta deyiladi. U uslubiy betaraf bo'ladi: masalan: yuz, chehra, jamol, bashara, turq.

Yuz	–	dominanta,	asosiy	so‘z,	u	uslubiy	betaraf.
Chehra,		jamol	–	ijobiy		bo‘yoqdor	so‘zlar.
Bashara,		turq	–	salbiy		bo‘yoqdor	so‘zlar.

Leksik (lug‘aviy) sinonimlar – so‘zlar sinonimligi. Lug‘aviy sinonimlar o‘z ichiga ikkiga bo‘linadi: 1) to‘liq sinonimlar – o‘zlashgan so‘zlar sinonimligi: tilshunoslik – lingvistika, doston – poema, amr – farmon – buyruq, bahor – ko‘klam, kosmos–fazo. 2) ma‘naviy sinonimlar – so‘zlar bir - biridan nozik ma‘nosi bilan farq qiladi: nam-ho‘l-shalabbo, taqillatdi-dukillatdi-gursillatdi.

Frazeologik sinonimlar – iboralar sinonimligi: qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urish-hafsalasi pir bo‘lish; kayfi uchib ketdi-yuragi yorila yozdi, og‘zi qulog‘ida-boshi osmonda-xursand...

Grammatik sinonimlar – grammatik vositalar sinonimligi: kelgani (-ga, -dan, uchun) xursand; yangiliklar (-ni, -dan, haqida) gapiring; mehmonlar (-ning, -dan) ulug‘i; kel (-yapti, -ayotir, -moqda)...

Sinonim so‘zlar agar ko‘p ma‘noli bo‘lsa bir necha sinonimik qatorda ishtirok etishi mumkin: o‘rin - joy, o‘rin - mansab; bitirdi - tugatdi, bitirdi – yo‘q qild. Bir o‘zakdan yasalgan so‘zlar ham o‘zaro sinonim bo‘lishi mumkin: chopqir – chopag‘on, baodob – odobli. Tub so‘z yasama so‘z bilan sinonim bo‘la oladi: his - sezgi; savol – so‘roq.

Antonimlar – ma‘nolari o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlardir. Antonim munosabatdagi so‘zlar antonimik juftlik deyiladi. Antonimlar ham faqat bir so‘z turkumi doirasida bo‘ladi:

- **sifatlarda:** katta-kichik, yaxshi-yomon, uzun-qisqa.
- **otlarda:** yoz-qish, g‘arb-sharq, tong-shom, boylik-kambag‘allik.
- **fe‘llarda:** bormoq-kelmoq, uxlamoq-uyg‘onmoq, kengaymoq-toraymoq.

- **ravishlarda:** ko‘p-oz, tez-sekin, kecha-bugun, arang-bemalol.

Ba‘zan nutqda baho me‘zoni bo‘lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo‘ladi. Antonimlarning quyidagi turlari mavjud: **Leksik (lug‘aviy) antonimlar** –so‘zlarning bir-biriga zid ma‘no anglatishi asosida birlashishi ya‘ni zid ma‘noli so‘zlardir:tun-kun, bormoq-kelmoq. **Frazeologik antonimlar** – iboralar orasidagi antonimlik: oqko‘ngil-ichiqora. So‘z bilan iboralar o‘rtasida ham antonimlik uchraydi: qo‘rqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan kabilar shular jumlasidandir. Bunday antonimlar **leksik-frazeologik antonimlar** deyiladi. **Grammatik antonimlar** – qo‘shimchalar orasidagi antonimlikdir: odobli-odobsiz, bema‘ni-bama‘no. Antonimlar she‘riyatda tazod ya‘ni qarshilantirish san‘atini vujudga keltiradi.

Antonimlar asosida anglashilgan ma'no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, *oq-qora*, *issiq-sovuq* kabi belgi anglatuvchi so'zlarga nisbatan *ota-ona*, *chol-kampir* singari nom bildiruvchi so'zlarda ma'no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko'ra ularni **sof** va **yarim antonimlar** sifatida ajratish mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o'zaro zidlik kasb etuvchi o't (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi **matniy antonimlar** ham mavjud.

Uyadosh so'zlar. Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub bo'lgan so'zlar **uyadosh** so'zlar deyiladi.

Tilimizdagi barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so'zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Uyadosh so'zlarni sinonimlardan farqlash lozim, sinonimlar bir tushuncha doirasidagi so'zlar bo'lsa, uyadosh so'zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalar yig'indisidir. Masalan, o'simliklar: *gul*, *maysa*, *chirmovuq*, *buta*; uy hayvonlari: *sigir*, *qo'y*, *echki*.

Variantdosh so'zlar. Variantdosh so'zlar (leksik dublet) – bir so'zning tarixiy jarayon sababli ikki xil yozilish shakliga ega bo'lishidir. Masalan, *machit* – *masjid*, *boraver* – *bora ber*, *shabada* – *shabboda*.

? Mavzuga oid savollar

1. Omonimlar deb nimaga aytiladi va qaysi xususiyati bilan ko'p ma'noli so'zlardan o'zaro farq qiladi?
2. Paronimlar deb nimaga aytiladi?
3. Sinonimlik hodisasi qay ko'rinishlarda bo'ladi va sinonimik qator nima?
4. Antonimlar deb nimaga aytiladi va u qanday hosil qilinadi?
5. Uyadosh so'zlar qanday so'zlar va u qaysi xususiyati bilan sinonimlardan farqlanadi?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar


1-mashq. Quyida berilgan omonim so'zlarning ma'nolarini tizohlang.

Absolut, alam, asr, achchiq, baqa, bahr, bel, birlik, davlat, dunyo, yetti, yosh, integral, kadr, kengash, ko'k, modda, mushak, nota, oylik, oq, nam, savdo, soliq, so'm, tuz, tuman, tush, uloq, chang, chechak.

2-topshiriq. Berilgan soʻzlarning paronim juftlarini toping.

Abzal-
Abgor-
Ablaq-
Adl-
Sharaf -
Tarif -
Ellik -
Sogʻliq -
Tanbur -
Shitob -
Teri -
Tovlanmoq -

3-topshiriq Quyida berilgan koʻz haqidagi qiziqarli faktlar matnida keltirilgan koʻp maʼnoli va shakldosh soʻzlarni topib, maʼnolarini izohlang.



4-topshiriq. Berilgan soʻzlarning sinonimlarini topib, ular orasidan uslubiy xoslangan soʻzlarni izohlang.

❖ <u>Osmon</u>	❖ <u>Tayyor</u>
❖ <u>Buloq</u>	❖ <u>Urush</u>
❖ <u>Tugatmoq</u>	❖ <u>Xaloyiq</u>
❖ <u>Qayta</u>	❖ <u>O'jar</u>
❖ <u>Yuz</u>	❖ <u>Qasos</u>
❖ <u>Chiroyli</u>	❖ <u>Xavf</u>
❖ <u>Azob</u>	❖ <u>Maosh</u>
❖ <u>Qism</u>	❖ <u>Soya</u>
❖ <u>Afsus</u>	❖ <u>Kechirim</u>
❖ <u>Avaylamoq</u>	❖ <u>Bemor</u>
❖ <u>Guvoh</u>	❖ <u>Foyda</u>
❖ <u>So'zamol</u>	❖ <u>Bayroq</u>
❖ <u>Hassa</u>	❖ <u>Ulkan</u>
❖ <u>Husn</u>	❖ <u>Bahs</u>
❖ <u>In</u>	❖ <u>Baxt</u>
❖ <u>Ko'r</u>	❖ <u>Farosat</u>
❖ <u>Tarjimon</u>	

5-topshiriq. Berilgan maqollarni ko'chiring. Antonim so'zlarni aniqlab tagiga chizing.

1. Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog'. 2. Yaxshi o'zar, yomon to'zar. 3. Achchiq haqiqat shirin yolg'ondan yaxshiroq. 4. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasada soz so'zlar. 5. Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda. 6. Azob ko'rmay rohat yo'q. 7. Bevafo yordan vafoli it yaxshi. 8. Nodon do'stdan, dono dushman afzal. 9. Jahl-dushman, aql-do'st. 10. Uzoqdagi ovni ko'rib, yaqindagi yovni ko'rmas bo'lma. (O'zbek xalq maqollar)

6-MAVZU. TIL VA TERMINOLOGIYA.

Reja:

1. Termin va terminologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Terminlarning turlari.
3. Ilmiy terminlar oldiga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'z va iboralar: termin, terminologiya, sohaga oid terminlar, o'z va o'zlashma terminlar.

Termin (lotincha: terminus — „chegara“, „had“) — bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. So'z ko'p ma'noga, ya'ni qo'shimcha ma'nolarga ega bo'ladi, lekin termin bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so'z, ammo u odatdagi so'zlardan ma'nosining aniqligi, bir ma'noliligi bilan farqlanadi. Termin ma'lum sohada, shu soha vakillari nutqida qo'llaniladi. Masalan: infeksiya, infeksiya kasallik, mutualizm, mikroorganizm, ekzotoksin, parazit, invazion kasalliklar, gelmintoz, qo'zg'atuvchi bakteriya kabi terminlar veterinariya sohasida uchraydi.

Ilm-fan, texnikaning ma'lum bir sohasigagina tushunarli bo'lgan bir ma'noli so'z va birikmalar terminlar deyiladi.

Termin umumxalq tiliiga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o'z terminologik maydonida bir ma'nolilikka moyillik, his-tuyg'uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir. Biologiya, matematika, tilshunoslikda qo'llanadigan „funksiya“ so'zini ko'p ma'noli termin sifatida emas, balki terminologik omonimlar, sohalararo sodir bo'lib turadigan reterminologik jarayon (bir soha terminining ikkinchi soha termini sifatida qo'llanishi) hosilasi tarzida qaralmog'i lozim. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. So'z bilan terminning umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste'molda bo'lgan so'zlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, quloq, burun, tomoq — anatomiya va tibbiyot; gilam, sholcha, palos — gilamdo'zlik; kitob, ruchka, daftar — pedagogik soha terminlari bo'lish bilan birga umumxalq tilida faol qo'llanadi.

Hozirgi kunda „termin“ so'zi bilan bir qatorda „atama“, „istiloh“ so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanmoqda. Lekin ular „termin“ so'zining hozirgi ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. „Atama“ so'zi keng ma'noda

bo'lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo'llanadi. „Istiloh“ so'zini esa termin ma'nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (mas., adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bema'lol qo'llash mumkin.

Terminlar yig'indisi va shu terminlarni o'rganuvchi soha terminologiya deyiladi. Termin grekcha “terminos” so'zidan olingan bo'lib, “chek, chegara” ma'nolarini bildiradi.

Terminlarni dastlab ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Kasb-hunar terminlari.

2. Ilmiy terminlar.

Kasb-hunar atamalari uzoq davrlardan beri xalqimiz tomonidan kasb-hunar sifatida rivojlantirilib kelinayotgan chorvachilik, dehqonchilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik, gilamchilik, kashtachilik, oshpazlik, qandolatpazlik, tabibchilik va boshqa shu kabi ko'plab kasblarga doir tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilib kelmoqda.

Ilmiy atamalar ham ko'p asrlik tarixga ega. Chunki ular qomusiy bilimlar egasi bo'lgan M.Qoshg'ariy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur va boshqa qomusiy bilimlar egasi bo'lgan bobokalonlarimizning turli fanlarga oid asarlarining yaratilishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Umuman olganda, ilmiy atamalar bugungi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa, tarix, pedagogika, psixologiya, biologiya, tibbiyot, geografiya, astronomiya, fizika, matematika, huquqshunoslik, kimyo, geologiya, minerologiya, falsafa, iqtisod kabi yuzlab zamonaviy fanlar sohasida keng qo'llanilmoqda. Oliy o'quv yurtini ma'lum mutaxassislik bo'yicha tamomlayotgan talabalarimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga hamda o'z mutaxassisliklariga doir atamalarni yaxshi o'zlashtirishlari, ular haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishlari talab etiladi.

Terminlarning umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash o'rinlidir:

1. So'zlar fan va texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasi chegaralangan ma'noda ishlatilsa, terminlarga aylanadi. Masalan, suv, tuz, kasallik, surtma, boshlang'ich davr, qo'zg'atuvchi kabi umumiste'moldagi so'zlar fan sohalarida ilmiy-rasmiy ma'nolarni ifodalab, hozirgi kunda terminlar tizimiga kirgan.

Suv so'zi umumiste'molda har xil suvlarni anglatadi: oqar suv, buloq suvi, gazli suv, mineral suv kabi. Kimyo fani termini sifatida esa suv – H_2O formulasi orqali ifodalangan va ikki vodorod hamda

kisloroddan iborat birikma tushuniladi, ana shu tarkib asosida u Mendeleyev jadvalidagi boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishadi.

2. Termin nominativ vazifani bajaradi. Terminning ma'nosi adabiy til me'yorlari doirasida tushunchaga teng bo'ladi. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli (monosemantik) bo'lgani uchun uning ma'nosi tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir: kagat, hujayra, xivchin, seleksiya, leykotsit, laboratoriya. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha tushunchani ifodalaydi. Masalan, ko'z – kishi a'zosi; uzukdagi bezak; yog'ochdagi belgi; buloqning suv chiqadigan joyi kabi tushunchalarni anglatadi.

3. Termin aniq, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli bo'ladi. So'zning ma'nosi murakkab bo'lib, unda tushuncha qo'shimcha ma'no va uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Shu bois tilda bir tushunchani anglatadigan sinonimlar turli ma'no qirralari yoki uslubiy qo'llanilishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, yuz, bet, chehra, jamol, yonoq, ruxsor, oraz, turq, aft, bashara so'zlari bir umumiy tushunchani bildirib, sinonimlar hisoblansa-da, biroq turli ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: basharang qursin deyish mumkin; chehrang qursin yoki jamoling qursin deb bo'lmaydi.

4. Bir so'z bir necha sohaning termini bo'lishi mumkin. Lekin bunday so'zlar fanning har bir sohasida alohida tushunchalarning nomi bo'lib keladi. Masalan, topshiriq termini pedagogik terminologiyada o'quvchilar yoki talabalarga beriladigan vazifa ma'nosini anglatadi, terminologiyada topshiriq termini huquq-tartibot tizimida faoliyat ko'rsatuvchi xodimga yuklatiladigan muhim vazifa ma'nolarini bildiradi. Operatsiya termini meditsinada jarrohlik bilan bog'liq tushunchani anglatadi, terminologiyada biror maqsad yoki maxsus, maxfiy topshiriq yuzasidan o'tkaziladigan tadbir nomini bildiradi. Xuddi shu ma'noda konstitutsiya, morfologiya terminlarini ham olish mumkin.

5. Terminlarning yana bir o'ziga xos belgisi shuki, terminlar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Xalqaro terminlar fikrimizga misol bo'la oladi: virus, virusologiya, molyuska, atologoanatomik, ekspertiza va h.k. Bunday terminlar yer yuzining barcha qit'alarida bir xil ma'noda qo'llaniladi.

6. Terminlar muayyan bir sohaga tegishli bo'lib, mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan so'zlardir. Shuning uchun bir tushunchani ifodalovchi terminni boshqa bir so'z bilan

almashtirib bo'lmaydi. Ya'ni bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, mikroflora, abses, efir, aeromonoz, furunkulez, patogenez kabi terminlarga muqobil variantlar izlash nojoizdir. Ba'zan boshqa terminologiya sohalarida bo'lgani kabi terminlar tizimida ham sinonimik holatlar ko'zga tashlanadi: sud – qozi, prokuror – qoralovchi, aybdor – ayblanuvchi, respublika – jumhuriyat, gumondor – gumon qilinuvchi, advokat – himoyachi kabi. Biroq bunday holat terminologiyadagi nuqson hisoblanadi, chunki terminlar bir ma'noli bo'lganligi uchun sinonim va dubletlardan xoli bo'lishi lozim. Bunday holatning asosiy sababi xalqaro terminlarga o'zbek tilidagi muqobilini tanlash asosida yuzaga keladi. Vaholanki, xalqaro terminlar dunyo miqyosida bir xil qo'llaniladi.

Termin umum iste'moldagi so'zdan quyidagi belgilarga ko'ra farqlanadi:

- 1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;
- 2) termin-konkret narsa-predmet, ashyo hamda mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;
- 3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.



Mavzuga oid savollar

1. Termin haqida ma'lumot bering.
2. Terminologiya qanday soha?
3. So'z va terminlarning farqi nimada?
4. Sohaga oid terminlarning o'ziga xosliklari haqida ma'lumot bering.
5. Terminologiyada qanday muammolar mavjud?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan sohaga oid matnni o'qing. Matn tarkibidagi sohaga oid terminlarni topib, ma'nosini izohlang.

Mashinalar boshlang'ich ekspluatatsion xossalarining o'zgarishi ish sifatini, tejamkorligini va mashinaning puxtaligini ta'minlay oladigan chegaralarda ruxsat etiladi. Mashinaning ish sifati va tejamkorligi ruxsat etilgan chegaralarda to'xtab qolmasdan ishlaydigan holati – uning me'yoriy, ya'ni tuzukligi deb ataladi. Mashina me'yoriy holatining o'zgarishi esa buzuqlik deyiladi. Mashinalar quyidagi sabablarga ko'ra buziladi:

- mashinaning ishlash jarayonida detallari eyiladi. Eyilish deganda, detallar shakli va og'irligining, shuningdek ular tayyorlangan material fizik va kimyoviy xossalarining sekin-asta o'zgarishi tushuniladi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida qator sabablarga ko'ra: plastik deformatsiyalar, molekulyar va kimyoviy o'zgarishlar oqibatida sodir bo'ladi. Har qanday zamonaviy texnika ham bunday o'zgarishlarning oldini ololmaydi, lekin mashinaga to'g'ri xizmat ko'rsatib, uning me'yoriy ishlash vaqtini cho'zish mumkin;

- mashina mexanizmlarining to'g'ri rostlanganlik holati buziladi. Rostlash deganda mashinaning me'yoriy ishlashini ta'minlaydigan texnologik tirqishlar, burchaklar, bosimlar, temperaturalarni rostlash - zarur holatga keltirish tushuniladi. Mashinalarning dastlabki rostlanishlarini o'zgarishi buzilishlarga olib keladi;

- mashinaning ish sharoiti keskin o'zgarishi natijasida o'z ishini davom ettira olmaydigan holatga tushib qoladi. Masalan, g'alla yig'ish kombaynida yanchish barabaniga somon-poxollar yoki seyalkalarda urug'larni o'tkazgichlarga tiqilib qolishi. Mashinalarning ishidagi bunday buzuqlik ochiq buzuqlik deyiladi.

Mashinalardan texnik jihatdan to'g'ri foydalanish nuqsonlarning oldini oladi va mashinalarning me'yoriy holatda bo'lishini ta'minlaydi. Buzilish mashina ish qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qolishiga olib keladi. Buzilish - bu mashinaning me'yoriy ishini tavsiflovchi asosiy parametrlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Mashina ishlay olmaydigan holatga kelganda ochiq buzilishi sodir bo'ladi, mashina ishlaydi, lekin o'zining asosiy vazifasini bajara olmaydigan holati - noaniq buzilish deyiladi.

2-topshiriq. Quyida berilgan terminlarni mos kataklarga joylashtiring.

Biologiya	Kimyo	Fizika

Biosfera, zoologiya, miksedema, kapsid, epiderma, vena, aorta, tos suyagi, oshqozon osti bezi, leshmaniya, eritma, valentlik, ishqor, nisbiy atom massasi, tuzlar, butan, katalizator, kavalent bog'lanish, zichlik, Avagadro qonuni, atom, elektron, bosim, murakkab efir, kislota, kimyoviy reaksiya, termokimyo, ishqoriy yer metallari, traxeya, tur, oziq zanjiri, biotik omillar, dissimilatsiya, shartli refleks, katta qon aylanish doirasi, biokimyoviy modda, polimer ta'sir, urug'chilik, kodominantlik, zaryad, tok kuchi, kuchlanish, amper, volt, Nyuton qonuni, molekula, anod, Arximed qonuni, dinamika, radiatsiya, barionik zaryad, zichlik.

3-topshiriq. Matnni o'qing. Tushirib qoldirilgan o'rinlarda zarur qo'shimchalarni qo'llab, gaplarni me'yoriy jihatdan to'g'ri shakllantiring.

Agronomiyaning vazifalari:

1) fermer xo'jaligida, agrosanoat komplekslarida yoki xususiy dehqon xo'jaligi bog'-chorbog'larida ekish ishlari... tashkil etilishini boshqarish, ekilgan maydonlar... ekinlar rivoj... nazorat qilish, oziqlan...ish me'yorlarini ishlab chiq...ish, sug'orish ishlarini tashkil etish, shuningdek, yig'...-ter... jarayonini boshqarish, almashlab ekish jarayonini rejalashtirish, seleksiya ishlari;

2) parnik va issiqxonalar.. poliz, limon, ko'kat, gul va boshqa mahsulotlar... ob-havo harorat... past darajasi sharoiti... yetishtirishni tashkil qilish;

3) pitomnik va urug'chilik xo'jaliklari... qishloq xo'jaligi hamda farmatsevtika o'simliklar... eng yaxshi navlari..., yuqori unumdor urug'lar... saralash, boshqoqli, meva-sabzavot, ozuqabop va boshqa o'simlik... yangi gibridd hamda sortlarini olish;

4) qishloq xo'jaligi yo'nalishi... ilmiy-tadqiqot institutlar... turli xil o'simlik... seleksiyasi va urug'chiligi, ularni etishtirish texnologiyalari..., zararkunanda va o'simliklar kasallan...iga qarshi kurashish... uslublarini ishlab chiqish.

4-topshiriq. Bir necha sohaga oid bo'lgan terminlarni toping va ularning o'z sohasi doirasidagi ma'nosini izohlang.

5-topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Kasb-hunar atamalari	Ilmiy atamalar

7-MAVZU. TERMINLARNING YASALISHI

Reja:

1. Terminlarning tuzilishga ko'ra turlari.
2. Morfologik usulda terminlar yasash.
3. Sintaktik usulda terminlar yasash.

Tayanch so'z va iboralar: termin, ilmiy termin, talablar, ichki imkoniyatlar, boyish usullari, morfologik usulda yasash, sintaktik usulda yasash, sodda termin, qo'shma termin.

Termin tushunchasi, ularning boshqa so'zlardan farqi, o'ziga xos xususiyatlari haqida oldingi mavzularda fikr yuritdik. Bugun yangi termin yasalishi, ularning tuzilish jihatdan turlari haqida to'xtalamiz.

Bizga ma'lumki, terminlar ham boshqa so'zlar kabi sodda (bir asosli) va qo'shma (ikki va undan ortiq asosli) bo'ladi.

Bir asosdan iborat bo'lgan terminlar sodda terminlar hisoblanadi.

Sodda terminlar o'z navbatida tub va yasama terminlarga bo'linadi.

Tub terminlar asosdagi lug'aviy ma'no saqlangan, yasovchi vositaga ega bo'lmagan terminlardir: hujayra, oksid, limfa, gormon, ozuqa; ruboiy, doston, roman, qissa; ega, gap, urg'u, termin, ot, sifat, son; tok, massa, jism, harakat va boshqalar.

Yasama terminlar yasovchi vosita yordamida yangi tushuncha hosil qilishdir. Yasama terminlar so'z yasovchi qo'shimchalar yoki so'zga so'zni biriktirish yo'li bilan hosil qilinadi: oksidlanish, ko'payish, tenglama, jarangli undosh, ma'nodosh so'zlar, so'z yasovchi qo'shimchalar, buyrakusti bezi, ipsimon so'rg'ich, tolador parda, qalqonsimon bez gormonlari, sezgi organi, irsiyat kabi.

Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlam so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi. O'zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo'shma terminlar asosan umumiste'moldagi tayyor qo'shma so'zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminologik tizimlarga qabul qilinishi mahsulidir. Demak, qo'shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko'ra ikki xil ko'rinishi mavjud:

1) bir tildagi qatlamga mansub so'z birliklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar: tabiiy oziqa, umumiy holsizlik, to'qimalar kesmasi, nafas olish zanjiri, yog'larning hazmlanishi

2) turli tillarga mansub soʻz birliklaridan hosil etilgan qoʻshma terminlar: vitaminsimon moddalar, biologik kod, monoaminodikarbon kislot

Ilmiy terminlar tizimining ichki imkoniyatlar hisobiga boyishi – sermahsul jarayon. Qadimgi adabiy til anʼanalari asosida rivojlanib kelayotgan oʻzbek tili real borliqdagi voqea-hodisalarni, tushunchalarni ifodalash uchun keng imkoniyatlarga ega. Xususan, keyingi yillarda paydo boʻlgan va paydo boʻlayotgan jamiki yangi tushunchalarni ifodalash borasida oʻzbek tili oʻzining rivojlangan tillardan biri ekanligini isbotlamoqda. Buni, ayniqsa, oʻzbek tili terminlari tizimlarining ichki manbalar hisobiga rivoj topishi misolida yaqqol koʻrish mumkin. Chunki oʻzbek tili terminlari tizimining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rol ni oʻynamoqda. Hayotda roʻy berayotgan ulkan oʻzgarishlar, yaʼni oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va takomili ham tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etmoqda.

Ichki imkoniyat deyilganda, asosan, morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (soʻzlarga soʻzlarni qoʻshish) usul bilan soʻz yasashi tushuniladi. Oʻzbek tili terminlari tizimining boyishida ana shu ikki usul asosiy rol oʻynaydi.

Terminlarning morfologik usul bilan yasashi. Morfologik usul bilan termin yoki soʻz yasash shunday usulki, unda oʻzak-negizga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshiladi va yangi terminlar hosil qilinadi. **Morfologik usul** bilan termin yasashda oʻzak-negizga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshiladi. Bunday termin yasash oʻzbek tilida eng mahsuldor usuldir. Terminlarni yasashda *-gich (-qich, -qich, -kich), -soz, -ma, -lik, -sh(-ish), -lash, -cha, -chi* affikslari faol ishtirok etadi: chang ajratgich; mashinasoz, asbobsoz; moslama, tirkama; temirchilik, mashinistlik; burqʻilash, payvandlash; aniqlovchi, toʻldiruvchi kabilar.

Bunday soʻz yoki termin yasash koʻpgina tillarda, jumladan, oʻzbek tilida ham eng mahsuldor usuldir. Masalan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi 60000 dan ortiq soʻzning 75-80% soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan yasalganligi fikrimizni isbotlaydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida 300 ga yaqin soʻz yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlib, ularning baʼzilari terminlarning yasashida ishtirok etadi. *-li, -lik, -gʻich, -qi, -dor, -uvchi, -chi, -simon, -chilik, -iy/-viy, -ma* kabi soʻz yasovchi qoʻshimchalar qishloq xoʻjaligi tarmoqlarida faol qoʻllaniladi. Masalan: oʻtkazuvchanlik, naslchilik, namgarchilik, ishqoriy,

kimyoviy, erituvchi, tayoqchasimon, to'qima, achitqi, kislotali, kattalik, ishqorli, kimyoviy ishlov, so'rg'ichli, yelpig'ichsimon, bijg'ituvchi, o'zgaruvchanlik, sterillash, qoramolchilik, qo'ychilik, mahsuldorlik, oziqlantirish va h.k.

Ilmiy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi. O'zbek tilning terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan birikmali, ya'ni tarkibi ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi nimada? Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi, ularda ifodalanayotgan narsaning yoki tushunchaning belgisi shundoqqina bilinib turadi, ular bilishsizlikdan bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy amaliyot ma'lumotlarini mustahkamlashda "so'zdan iborat to'siq"ni oshib o'tishga, ya'ni sintaktik birlikdan leksik birlikka o'tishga yordam beradi. Masalan, mikrobiologiya, fotodinamika, ultrabinafsha, polimer, monomer, dezoksiriboza, biopreparat kabi chetdan kirgan qo'shma so'z shaklidagi terminlar tilimizga faol o'zlashib, bir so'zga aylangan; nuklein kislota, organik asos, genetik birlashuv, geografik tarqalish, antigen tarqalish, hayvon patologiyasi, molekulyar biologiya, gen injinerligi, yuqumli bronxit kabilarni birikma shaklidagi terminlarga kiritish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sintaktik usul bilan termin yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Til taraqqiyoti jarayonida ma'lum bir so'z birikmasi yagona leksik ma'no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi. Ya'ni birikma xarakteridagi terminlar nominativ vazifani bajarib, bir yagona termin shakliga o'tadi. Bu hodisa sohaga oid tarixiy terminlarning yasalishida ham faol bo'lgan. Masalan: bo'tako'z (gul), otquloq, echkiichak, echkisoqol, eshakmiya, chumchuqtil, ho'kiztili... itburun (o'simlik), mingboshi, ellikboshi, yuzboshi, qozikalon, mirzaboshi kabi qo'shma so'zlar shu yo'l bilan yuzaga kelgandir. So'z hosil bo'lishining bu usuli leksikalizatsiya usuli deb ham yuritiladi. Birikma holdagi terminlar shu qadar ko'p va yasallish jihatdan xilma-xil ko'rinishlarga egaki, ularning tarkibi ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan: oziq-ovqat xavfsizligi, yem-xashak yetishtirish, yo'g'on ichak, garmonal o'zgarish, sun'iy detergent, o'simliklar himoyasi kabilar ikki so'zdan iborat birikmali termin hisoblansa, oshqozon osti bezi, katta qon aylanish sistemasi, chorvachilik mahsulotlarini qayta

ishlash, hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi, mo'ynali hayvonlar kasalliklari kabi bir qancha terminlar uch va undan ortiq so'zdan iborat terminlar hioblanadi. O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan **sintaktik usul** bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi. Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Terminlar tuzilish materiali, ya'ni qanday so'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo'lishi mumkin: Ot+ot tipidagi terminlar: samolyot borti, bug'mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, temir qopqoq, arava gupchagi, radioning qulog'i, samolyotning parragi kabilar. Nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: motorli qayiq, parrakli samolyot, magnitli diska, tirkama plug, halqasimon zichlagich kabilar. Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: o'ta sezgir apparat, sezgir asbob, o'zi yurar mashina, pilla tortadigan avtomat, qirquvchi asbob, yurgizuvchi aravacha kabilar. Hozirgi o'zbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib foydalaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga bo'linadi:

Demak, birikma terminlar ikki xil bo'ladi:

Yig'iq birikmalar – ikki qismli birikmalar: shilliq to'qima, orqa miya, qizil ilik, sinusoid kapillyar

Yoyiq birikmalar – bular uch va undan ortiq mustaqil leksemalardan tarkib topadi:

a) uch qismli birikmalar: qayta aminlanish jarayoni, mineral moddalar almashinuvi, biriktiruvchi yumshoq to'qimasi;

b) to'rt qismli birikmalar: tebranuvchi tukchalarga ega hujayra; tayoqchasimon o'zakli duksimon hujayra.

Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlam so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi. O'zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo'shma terminlar asosan umumiste'moldagi tayyor qo'shma so'zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminologik tizimlarga qabul qilinishi mahsulidir. Demak, qo'shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko'ra ikki xil ko'rinishi mavjud:

1) bir tildagi qatlamga mansub soʻz birliklaridan hosil etilgan qoʻshma terminlar: tabiiy oziqa, umumiy holsizlik, toʻqimalar kesmasi, nafas olish zanjiri, yogʻlarning hazmlanishi

2) turli tillarga mansub soʻz birliklaridan hosil etilgan qoʻshma terminlar: vitaminsimon moddalar, biologik kod, monoaminodikarbon kislota

Terminlar oʻz va oʻzlashma boʻladi. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan oʻtgan terminlar oʻzbek tilshunosligida soʻz maʼnosining oʻzgarishi, maʼnoning koʻchishi,

polisemantik soʻzlarning baʼzi maʼnolari orasidagi bogʻlanish uzilib, ayrimlarining

maxsuslanishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi semantik yoki leksik-semantik yoʻl bilan yasash deb yuritiladi.

Maʼlumki, tilda soʻzlarning maʼnolari har xil usullar bilan koʻchishi mumkin. Chunonchi, soʻz semantikasidagi oʻzgarish, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi semantik transformatsiya asosida roʻy beradi.

Tilshunoslarning yakdillik bilan bildirgan fikrlariga qaraganda, semantik usul bilan termin hosil qilishda asosiy rolni metafor oʻynaydi. Chunki umumadabiy yoki jonli tildagi soʻzlarning biror xususiyatini, masalan, shaklan oʻxshashligini, rang-tusidagi bir xillikni asos qilib olish yoʻli bilan yangi-yangi terminlar vujudga keladi.

? Mavzuga oid savollar

1. Terminlar tuzilishiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
2. Termin yasashning qanday yoʻllari mavjud?
3. Morfologik usulda termin yasashga izoh bering.
4. Sintaktik usulda termin yasashga izoh bering.
5. Birikmali terminlarni izohlang.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali sohaga oid sintaktik va morfologik usulda yasalgan terminlarga misollar topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

-chilik -li,
-lik, -g'ich,
-qi, -dor,
-uvchi, -chi,
- simon,
-iy/-viy,
-ma

-iy
- Ishqoriy
- Ishqoriy moddalar
-Kosmetik mahsulotlarda
ishlatiladigan ishqoriy
moddalar va umumiy
ishqoriylik darajasini
aniqlash muhim
ahamiyatga ega.

2-topshiriq. “Konseptual jadval”ni quyidagi sohaga oid matn orqali to’ldiring.

T/r	Termin	Tub	Yasama	Morfologik usul	Sintaktik usul
1	Organik kislotalar		+		+
2	Reaktiv	+			
3					
4					

Biotexnologiya jarayonlaridan mikroorganizmlar, o‘simlik va hayvon hujayralari, ulardan ajratilgan fermentlar, hujayra organellalari, ularni o‘rab turgan membranalar sof yoki immobillashgan holatda oqsil, organik kislotalar, aminokislotalar, spirtlar, dorivor moddalar, fermentlar, garmonlar va boshqa moddalar ishlab chiqarishda yoki ba’zi bir organik moddalarni (masalan, biogaz) ishlab chiqarish, sof holda metall ajratish, oqova suvlarni va qishloq xo‘jalik yoki sanoat chiqindilarini qayta ishlashda keng foydalaniladi. Fan sifatida o‘tgan asrning 60-yillaridan shakllana boshlagan biotexnologiyaning tarixiga chuqurroq nazar tashlasak mikroorganizmlar yordamida “bijg‘itish”, “achitish” jarayonlari insoniyat tomonidan qadimdan keng ishlatilib kelinayotganligini guvohi bo‘lamiz. Sutdan - qatiq, uzumdan - vino va sirka, achitqilar yordamida - non va boshqa bir qancha biotexnologik jarayonlarning qachon ixtiro


qilinganligi hozircha noma'lum. Umuman, yuqorida zikr etilgan mikroorganizmlar yordamida amalga oshiriladigan biotexnologik jarayonlar hozirgacha insoniyatning ro'zg'or yuritishda keng qo'llab kelinmoqda. Biotexnologiyaning mohiyatini tushunish uchun misollarga murojaat qilaylik. Bakteriya hujayrasi har 20-60 minutda, achitqi zamburug'lari 1,5-2,0 soatda ikkiga bo'linib ko'paysa, sut emizuvchilar hujayralarining ikkiga bo'linishi uchun 24 soat kerak bo'ladi. Bir kechakunduzda 500 kilogrammli qoramol 500 gramm oqsil moddasi to'plasa, 500 kilogramm achitqi zamburug'i 500000 kilogramm yoki undan 1000 marotaba ko'proq oqsil to'playdi. Yana bir misol: 1 kub metr oziqa muhitida achitqi zamburug'lari 24 soatda 30 kilogramm oqsil to'playdi, shuncha miqdorda oqsil to'plash uchun 18 gektar yerga no'xat ekib, uch oy parvarish qilish lozim bo'ladi. qolaversa, mikrob etishtirish na obhavoga va na faslga bog'liq. Ularni eng arzon oziqa muhitida - har xil chiqindilar, kletchatkada, metanol, metan gazi va vodorodda o'stirish mumkin. Mikroorganizmlar nafaqat oqsil, balki turli fermentlar, yog'lar, vitaminlar, polisaxaridlar va boshqa bir qator foydali maxsulotlar sintez qiladi. Bugunga kelib, zamonaviy biotexnologik usullar gen muhandisligi yordamida farmasevtika uchun interferonlar, insulin, somatotropin, gepatitga qarshi vaksina, fermentlar, klinik tadqiqotlar uchun diagnostik ashyolar (narkomaniya, gepatit va boshqa bir qator yuqumli kasalliklarni aniqlash uchun test tizimlar, biokimyoviy tekshirishlar uchun reaktivlar, egiluvchan biologik plastmassalar, antibiotiklar, bioaralashmali boshqa ko'plab mahsulotlar) ishlab chiqariladi.

Biotexnologiyaning asosiy yo'nalishlarini, shartli ravishda, quyidagicha tavsiflash mumkin:

- * oziqa mahsulotlari biotexnologiyasi;
- * qishloq xo'jaligida ishlatiladigan preparatlar biotexnologiyasi;
- * sanoat mahsulotlari biotexnologiyasi;
- * dorivor moddalar, diagnostika va reaktivlar biotexnologiyasi;
- * biogidrometallurgiyada ishlatiladigan biotexnologiya;
- * tabiatni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan biotexnologiyalar.

3-topshiriq. Rasmlar yordamida berilgan matnlar tarkibida tushirib qoldirilgan terminlarni topib qo'ying.

Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi



1. Bir qator olimlarning fikriga ko'ra, jismoniy salomatlik 50% odamning hayot tarziga bog'liq bo'lib, u ovqatlanish tartibini ham o'z ichiga oladi. Irsiyat va atrof-muhit holati hissasiga 20%, tibbiy ta'minot darajasi hissasiga esa atigi 10% to'g'ri keladi

..... – organizm hujayralari va to'qimasining eng asosini tashkil qiladi.
..... tuxum, sut va sut mahsulotlari, go'sht va baliq, shuningdek, o'simlik mahsulotlari – loviya, bug'doyning undirilgan doni, dengiz o'tlari, oq loviya, non, xamirli makaron mahsulotlari, jigarrang guruch,

yong'oqda mavjud bo'ladi. Organizmdayetishmasligi insonni og'ir kasalliklarga olib keladi.

2. – organizmni kuch-quvvat bilan ta'minlovchi manba hisoblanadi va mushaklarimizning ishlashiga yordam beradi. Ular meva va rezavorlarda, sabzavotlar hamda asal, yorma un mahsulotlari, kartoshka, makaronlarda mavjud. Ayniqsa, xom sabzavotlardagi taomning yaxshi hazm bo'lishiga ko'mak beradi.

3. – uglevodlar singari quvvatning manbayi sanaladi. hayvonlar (mol, qo'y, to'ng'iz, parrandalar va hokozo) va o'simliklar (kungaboqar, zaytun, makkajo'xori, paxta, yong'oq kabilar)dan olinadi. taom ta'mini yaxshilaydi va insonni to'q saqlaydi.ni ortiqcha iste'mol qilish semirishga olib keladi. Ular organizmdan tez chiqib ketmaydi, unda to'planadi.

4. – bizning yashashimiz uchun zarur vositalar sanaladi. Ular organizmning turli kasalliklarga qarshilik ko'rsatishini kuchaytiradi va uning immunitetini ko'taradi. inson organizmiga hayvonlar va o'simliklardan olingan oziq-ovqatlar orqali o'tadi.

5. – oziq-ovqatlarning barcha turlariga oz bo'lsa-da kiradi. Hammasi bo'lib 30 dan ortiq va mikroelementlar mavjud, ularsiz organizmning to'laqonli faoliyati bo'lishi mumkin emas.

4-topshiriq. Quyida berilgan ta'riflar qaysi terminlarning izohi ekanligini toping.

1.O'xshash xromasomalar to'plamining karrali ortishi.

2. Har xil tur yoki turkumlarga mansub bo'lgan o'simliklarni chatishtirish natijasida (duragayda) hosil bo'lgan genomning karrali ortishi.

3. Ikki tur yoki turkumlar xromasomalari yig'indisining ikki hissa ortishi natijasida hosil bo'ladigan allopoliploid organizmlar.

4. Alveograf asbobi yordamida alveogramma chizib, kleykovinaning elastikligini aniqlash.

5. Tanlash uchun tabiiy populyatsiyalardan dastlabki ashyo sifatida foydalanib, ularni tizmalarga ajratib o'rganishga asoslangan seleksiya.

6. Bir yoki bir nechta gomologik xromasomalari kamaygan yoki ko'paygan organizmlar.

7. Bir-biriga irsiy jihatdan yaqin (qarindosh) bo'lmagan organizmlarni chatishtirish.

8. O'simliklarning genetik (nav) jihatidan qanchalik toza ekanligini, kasalliklarga, zararkunadalariga chidamliligi va ekishga mo'ljallangan urug'likning umumiy holatini aniqlash maqsadida, dalada o'tkaziladigan tadqiqot.

9. Tirik hujayralarda kechadigan jarayonlardan va shu hujayraning genetik tarkibidan foydalanishga asoslangan mahsulot yetishtirish usullarining yig'indisi.

10. O'simlik turining tashqi ko'rinishi bilan farqlanmaydigan, lekin biologik va fiziologik xususiyatlari boshqacha va o'zgarmas bo'lgan guruhi.

5-topshiriq. Matnni o'qing, tahlil qiling va terminlarni aniqlab tuzilishiga ko'ra turlarga ajrating.

Yalpiz

Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli (mentol) o'simlik.

Barglari va poyasidan olingan yalpiz moyi parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda, bahorda yangi chiqqan barglari oshko'k sifatida ishlatiladi. Vegetativ (bahorda ildizini bo'lib ekish) yo'li bilan ko'paytiriladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida nam yerlarda, ariq va daryo bo'yilarida o'sadi.

Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan ko'ngil ayniganda hamda o't haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Yalpiz dorivor o'simliklari oshqozon, yo'tal yoki burun oqishi va bosh og'rig'iga qarshi choy va moy sifatida ishlatiladi. Yalpiz choyi oshqozon-ichak traktining buzilishlariga qarshi kurashda samarali vositadir. Yalpiz uzoq vaqtdan beri ishtahani oshirish va organizm tomonidan ozuqa moddalarining assimilyatsiyasini yaxshilash qobiliyati uchun ishlatilgan, bu esa ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilaydi. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi, og'riqni yengillashtiradi va tanadan ortiqcha suvni olib tashlaydi. Yalpiz juda xushbo'y o'simlikdir, agar uning barglarini damlab asal bilan ichilsa, anginada yaxshi yordam beradi.

8-MAVZU. ADABIY NUTQ USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.
2. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.
3. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari.
4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.
5. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublar, adabiy so'zlashuv, badiiy so'zlashuv.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. O'zbek tilining nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga esa o'zbek tili uslubiyati (stilistika) deyiladi.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud

So'zlashuv

Rasmiy-idoraviy

Publitsistik

Badiiy

Ilmiy

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlar sanaladi.

Nutq uslublaridan so'zlashuv uslubi og'zaki nutqqa, qolganlari, asosan, yozma nutqqa xosdir, ba'zan og'zaki shaklda ham yuzaga chiqadi.

So‘zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo‘llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki turga: adabiy so‘zlashuv uslubi va oddiy so‘zlashuv uslubiga ajratiladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo‘lib, u adabiy me‘yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o‘qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta’riflanadi. Bu uslubda so‘z tartibi qoidaga nomuvofiq bo‘lishi (Kecha konsert bo‘ldi klubda); ko‘chma, obrazli emotsional vositalar ko‘proq (g‘ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og‘zi qulog‘ida kabi) qo‘llanishi, gaplar dialogik shaklda bo‘lib, to‘liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko‘p ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha kabi), takrorlar (Kelib–kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (na’lat (la’nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namo–yon bo‘ladi. Oddiy so‘zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo‘llanadi.

Oilada, ko‘cha-ko‘yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi sanaladi. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi. So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi. Bu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati erkinligidir. Kundalik hayotda uyda, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so‘zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi. Oddiy so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so‘zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to‘ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so‘raysiz:

— Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o‘tirmaysiz).

So‘zlashuv uslubining o‘zi ikki turga bo‘linadi:

1) adabiy so‘zlashuv uslubi; 2) oddiy so‘zlashuv uslubi.

Oddiy so‘zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo‘lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo‘l qo‘yiladi.

Oddiy soʻzlashuv uslubida gap boʻlaklarining tartibi ham ancha erkin boʻladi. Baʼzan shevaga xos soʻzlar, qoʻpol, dagʻal soʻzlar ham kuzatiladi, lekin ularni qoʻllash soʻzlovchining madaniy nutq sohibi emasligini koʻrsatadi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qoʻllaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga koʻra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, eʼlonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid soʻzlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qoʻllanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini taʼminlaydi. Tayyor nutq formulalari (shu asosida, shunga koʻra, maʼlum qilamizki, ... ni eʼtiborga olib, ...ga koʻra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofig), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi), hujjat matnining darak-axborot xarakterida boʻlishini, soʻzlarning bir maʼnoda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning boʻlmasligini, feʼlning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qoʻshma gap turlarining keng qoʻllanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma).

3. Diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda roʻyobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli boʻladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va daʼvat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, maʼlumotnomada axborot berilsa, buyruqda daʼvat etish, axborot oʻz aksini topgan boʻladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning oʻziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning oʻziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs

majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'yunadi. Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'.Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi...». Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliqlar ko'proq uchraydi: 1) Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz), bildiraman(miz), eslataman(miz); 2) ...ga rozilik bildiradi, kafolat beradi, qarshi emas yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari tayinlansin, topshirilsin kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, tele-videniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistika (lot. publika – xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl, 2) og'zaki shakl. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, xatlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio

va televideniya da chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiq larning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Shunga ko'ra, publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoq-dor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda, muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziq tirish usuli o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalik, tushunarlilik, ta'sirchilik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Ilmiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini ko'rsatish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha madaniy an'analar va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llaniladi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish

muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.

Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi (sof ilmiy uslub) yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan (ilmiy-ommabop uslub) bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir. Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi. Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.



? Mavzuga oid savollar

1. Uslub deganda nimani tushundingiz? Hozirgi o'zbek adabiy tilida qanday uslublar farqlanadi?
2. Publitsistik uslubning asosiy vazifasi nima?
3. So'zlashuv uslubi qanday turlarga bo'linadi?
4. Atamalar qaysi uslubda keng qo'llanadi?
5. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan matnlarning qaysi uslubga xoslanganini aniqlang.

1. Tush ko'rsam, onam chiroq ko'tarib yurganmish. Yuzini aniq ko'rmasmishmanu, ammo qo'lidagi chiroq xira nur sochib turganmish. "Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor", dermish nuqul. Qarasam, chuqur yo'q. Uyg'onsam, onam ham yo'q...

Ba'zan ish bilan, ba'zan majlislar bilan, gohida ulfatchilik bilan uyga kech qaytardim. Bir kuni Namangandan mehmonlar kelib qolishdi.

Uyga borishga ko'nmay, o'zimni restoranga sudrashdi. Yarim kechagacha qolib ketdim. Uyga qaytganimda kayfim bor edi. Darvozani onam ochdi. Sovuqda mushtdekkina bo'lib dildirab turibdi.

— Shu vaqtgacha uxlamadingizmi! — dedim zarda qilib. — Eshik ochishga sizdan boshqa odam yo'qmi?

Onam ma'yus jilmaydi:

— Uyqu qatta, bolam? O'-o'tiribman.

Ertasiga redaksiyada navbatchilik cho'zilib ketdi. Qarasam, yana onamning chirog'i yoniq.

— Nega uxlamadingiz?

Onam yana ma'yus jilmaydi:

— Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo'lib qolganman.

Men nodon, onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechagacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lipillab turishiga xo'p ko'nikkan ekanman.

Qaysi kuni ishdan keyin moskvalik mehmonlarni aeroportga kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Samolyot kechikib uchdi. Yarim kechada uyga qaytsam... hammayoq jimjit. Hamma o'z oromi bilan...

Tushimda onam chiroq ko'tarib yurganmish.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalari va "Bilimlar bellashuvi"ning hududiy bosqichlari bo'lib o'tdi. Jumladan, Nukus shahar bosqichida hududdagi 47 umumiy o'rta va ixtisoslashtirilgan maktab lardan 383 nafar o'quvchi 19 fan bo'yicha o'z bilimini sinovdan o'tkazdi. Eng yuqori ball to'plagan bilimdon o'quvchilar keyingi bosqichda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

3. Arpa muhim oziq-ovqat, yem-hashak va texnikaviy ekin. Uning donidan arpa yormasi, perlovka, un tayyorlanadi. Arpa uni bug'doy yoki javdar uniga qo'shilib non yopishda ishlatiladi. Arpa solodidan ajratib olingan ekstrakt moddalari meditsina, konditerlik, to'qimachilik va teri pishirish sanoatida foydalaniladi. Ekin maydoni jihatidan arpa jahonda to'rtinchi o'rinni egallaydi (bug'doy, sholi, makkajoxo'ridan keyin). Arpa qishloq xo'jalik ekinlari ichida juda baland tog'da joylashgan mintaqalarda eqilish imkoniyati bor yagona o'simlik. Bu ekin dengiz sathidan Alp tog'larida - 1900m, Kavkazortida - 2700m, Pomir va Tibetda - 4700m gacha bo'lgan yerlarda o'sadi. Arpaning morfologik belgilari gul tuzilishi bilan boshoqli don ekinlariga xosdir. Odatda o'simlik bo'yi bug'doydan past, ammo poyasining qattiqligi kamroq bo'lganligi sababli,

yotib qolishga moyil, bu esa, arpaning kamchiliklaridan biri bo'lib hisoblanadi.

4. Meni Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "O'zbek, rus tillari va adabiyoti" kafedrasiga 0.5 (yarim) shtat birligida kabinet mudiri lavozimiga ishga qabul qilishingizni so'rayman.

2-topshiriq. Quyida berilgan matndan ilmiy uslubga xos so'zlarni toping va ularni izohlang.

Ekinlarni dalalar va yillar bo'yicha ilmiy asosda navbatlab ekishga almashlab ekish deyiladi. Bunday navbatlab ekish tuproqdagi organik modda miqdorini boshqarishga, begona o'tlar, o'simlik kasalliklari va zararkunandalariga qarshi samarali kurashga sharoit yaratadi, tuproqning donador strukturasini ta'minlab, oziq va suv-havo rejimini yaxshilaydi, qo'llanilayotgan o'g'itlar samarasini oshirib, tuproqlar nurashining oldini oladi. Turli o'simliklar tuproqda har xil miqdorlarda organik qoldiq to'playdi. Ko'p yillik o'tlar va kuzgi don ekinlari ko'p miqdorda, bahorgi don ekinlari kamroq, qator oralari chopiq qilinadigan ekinlar esa juda kam organik qoldiq hosil qiladi. Masalan, 3 yillik beda gektariga 10-11 tildiz qoldig'i va 300-500 kg biologik azot to'playdi. Ekin bir dalaga 3 yildan ortiq ekilmasa, u qayta ekilayotgan ekin, agar rotatsiya davri davomida yoki undan ortiq ekilsa surunkasiga ekilayotgan ekin va bir xil ekinning uzoq muddat davomida bir dalaga surunkasiga ekilishi esa monokultura deyiladi.

3-topshiriq. Quyidagi she'rni o'qing. Sher matnidgi badiiy uslubga xos leksik birliklarni izohlang.

O'ZBEK O'G'LI

Ikki daryo o'rtasi keng dasturxon,
Tuz totgansan, tuzlig'ingni unutmam.
Dasturxonni belbog' qilib o'stirgan
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutmam!

Sadarayhon bukilgani – so'lgani,
Er yigitning egilgani – o'lgani.

Yo'l bermagil dushmanlarga kulgani,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

O'zbek desam jaranglagan tor kelur,
Undan oldin nomus ila or kelur.
Burgut kelur, lochin kelur, sor kelur,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Unutmagil nasabingni, zotingni,
Umid bilan otang qo'ygan otingni.
Asra erta kuningni – zuryodingni,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!


Bo'shamasin zinhor yog'och beshiging,
Qulf ko'rmasin darvozayu eshiging.
Yig'ilmasin supadagi to'shaging,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Ko'pga kelgan kulfatlarga chap berma,
Mahmadona maynalarga gap berma.
Ko'ngil obod bo'lsin, sirtga zeb berma,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Nochor qolsang nokas qo'lini tutma,
Arslonsan-ku tulki yo'lini tutma.
O'zingdan o'zgadan marhamat kutma,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!


(Iqbol Mirzo)

4-topshiriq. Quyida berilgan matnning qismlarini tartiblang va bu matn qaysi uslubga xosligini aniqlang.



5-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ekologik muammolar



Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan -texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri,

ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi:

1. Umumbashariy (global).
2. Mintaqaviy (regional).
3. Mahalliy (lokal).

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday umumbashariy muammolarga ba'zi bir misolar keltirish mumkin:

Ozon qatlamining siyraklanishi. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib olib, yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlarning ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir etadi. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida nurlanish odamlarda terining kuyishiga olib keladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chiqayotganligi aniqlangan.

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo'lib, u 2,8 % ni tashkil etadi. Chuchuk suv zahirasi asosan qutblardagi muzliklardir. Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3 – 3,5 km³ suv sarflanmoqda. XXI asrga borib ushbu ko'rsatkich 1,5 – 2 marta ortish imkoniga ega. Daryolarning umumiy yillik oqimi yer yuzi bo'yicha 50 ming km³. Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv yetishmasligi aniq. Qurg'oqchil mintaqalarda daryolardan to'liq foydalanilganda ularning suvi yetmay qolmoqda. 1980 yillarda bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika davlatlari, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan ifloslanishi o'sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat oqova suvlarini daryolarga

tashlaydi. Bu ko'rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10 % ni, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda 30 % ni tashkil etadi. Daryo toza suvlarida yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda.

Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd. m³ hajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortishi mumkin. Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln. gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atiga yiliga 11 mln. gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi «Qizil kitob» yaratilishiga sabab bo'ldi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq. Matnni ma'no jihatidan qismlarga ajrating va reja tuzing.

2-topshiriq. O'zbekiston hududida qanday ekologik muammolar kuzatiladi va bu muammolarni bartaraf etish yo'llarini **“Qanday”** sxemasi orqali izohlang.

Muammo	Bartaraf etish yo'llari

3-topshiriq. Tabiat haqida xalq maqollaridan namunalar yozing.
Namuna: Toza havo – dardga davo.

9-MAVZU. ADABIY NUTQ ME'YORLARI.

Reja:

1. Me'yor tushunchasi.
2. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari.
3. Nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: me'yor, me'yoriy ko'rinishlar, imlo, urg'u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so'z turkumlarida me'yor, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, so'z tartibi, nutqiy kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktatsion me'yorlar buzilishi.

Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til me'yorlarini egallash, ulardan unumli va o'rinli foydalanishdir. Hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutq aniq, to'g'ri va ta'sirchan holda tinglovchiga yetib boradi.

Me'yor – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir. Adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi. Me'yorning ikki xil turi mavjud:

- 1) umumiy me'yor; 2) xususiy me'yor.

Umumiy me'yor – ma'lum tilning, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanilayotgan me'yorlar yig'indisidan iborat. Umumiy me'yorni belgilash uchun qardosh tillarga qiyoslash zarurati paydo bo'lgan. Xususiy me'yor – umumiy me'yorning nutq tiplari shakllaridagi, tilning shakllaridagi konkret ko'rinishlaridir. Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz. Umumiy norma tushunchasi o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi.

“O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida bu kabi keng iste’moldagi so‘zlarning barcha so‘z turkumlarida uchrashi qayd qilib o‘tilgan. Masalan otlarda – daryo, suv, osmon, yer, tosh, tog‘, bog‘, daraxt, uy, devor, ko‘cha, vodiy, sahro, qum kabi; sifatlarda – oq, qizil, sariq, qora, katta, kichik, keng, tor, uzun, qisqa, chiroyli, aqlli, dono, barno kabi; sonlarda – bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson, yuz, ming, million kabi; olmoshlarda – u, bu, shu, ana, mana, siz, biz kabi; fe’llarda – bor, kel, ket, yur, tur, o‘tir, uxla, yot, ayt, qo‘y, o‘t kabi; ravishlarda – tez, sekin, oz, kam, ko‘p kabi; bog‘lovchilarda – va, ham, ammo, lekin, biroq, goh, yoki, yoki kabi; yuklamalarda – -u, -ku, -da, -yu kabi; undovlarda – oh, voh, voy, dod, uh, ura kabi. Keltirilgan so‘zlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lahja va so‘zlashuv nutqida ham qo‘llanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiy me‘yorlari qurshovida qarashga asos bo‘ladi.

Xususiyl me‘yor ma‘lum til umumiy me‘yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o‘tilgan o‘zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me‘yori xususiyl me‘yor sanaladi. Xususiyl me‘yorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo‘lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me‘yorini ham, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan beshta – rasmiyl, ilmiyl, ommabop, badiiyl, so‘zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me‘yorlarni ham xususiyl me‘yorlar deb tushunishimizga to‘g‘ri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo‘lib, uning boshqa ko‘rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga mo‘ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaatiga va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o‘ziga xos xususiylati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati ko‘p bo‘lib, ular orasida me‘yoriylilik markaziy o‘rinda turadi. O‘zbek adabiy tilining o‘zbek xalqi uchun umummajburiyligi, ko‘pvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiylatlarning birontasi me‘yoriyliksiz amalga oshmaydi. Adabiy tilning me‘yoriyligi umumxalq tilining boshqa xususiyl me‘yorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kodifikasiyalanganlik – ongli aralashuv yo‘li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o‘zlashganlik va anglanganlik,

egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar. Adabiy til me'yorlarining quyidagi ko'rinishlari bor: fonetik me'yor, aksentologik me'yor, grafik (yozuv) me'yor, orfografik me'yor, orfoepik me'yor, leksik me'yor, so'z yasaliş me'yori, grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor, punktuatsion me'yor, uslubiy me'yor.

Til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini tanlash-adabiy til me'yori hisoblanadi.

O'zbek adabiy tilining me'yorlari:

1.Fonetik me'yorlar.

Bunda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlarning qo'llanilishi me'yor hisoblanadi.

2.Leksik-semantik me'yor (so'z qo'llash)lar.

So'z variantlaridan hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab olish hozirgi o'zbek tilining lug'aviy me'yori hisoblanadi.

Imlo, talaffuz, tarjima lug'atlarida lug'aviy me'yor o'z aksini topadi.

So'zning ma'nosini bilmay ishlatish, shevaga xos so'zlarni qo'llash, paronimlarning ma'nosini tushunmasdan ishlatish rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri kalka-tarjima qilish me'yor hisoblanmaydi.

Masalan: bo'lsa o'rinda bo'sa so'zini ishlatish, yorug' o'rinda yorug' so'zidan foydalanish. Rus tilidan tarjima qilish asosida: Bazm kechasining aybdorlari.

3.Talaffuz me'yorlari (orfoepik).

Til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi. Ruscha so'zlarni yozma shakliga taqlid qilib aytish-(Moskva to'g'ri aytilishi Maskva) so'zlarni o'zbekcha aksent bilan talaffuz etish (Angiliya) shevaga xos talaffuz (yo'l-jo'l) talaffuz me'yorlarini egallashda orfoepik lug'atlarning ahamiyati katta.

4. Aksentologik (urg'uning to'g'riligi) me'yorlar.

Bunda so'z va gaplarda urg'uni to'g'ri qo'llash me'yori tushuniladi. Urg'uni to'g'ri ishlatmaslik so'z ma'nosiga ta'sir qiladi: olma-meva, olma-buyruq fe'li.

5. Grammatik me'yor:

Turlovchi va tuslovchi shakllarning eng maqbul variantlari hozirgi tilimizda tanlab olingan va ular nutqda barqaror shaklda ishlatiladi. Ammo kelishik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash uchraydi. Ba'zan –ning o'rni –ni, –lar o'rni –la ishlatiladi. Direktorni xonasida ko'rdim. (direktorni o'z xonasida ko'rmoq). Direktorning xonasida ko'rdim. (Boshqa birovni direktor xonasida ko'rmoq).

6. So'z yasash me'yorlari:

So'z yasovchi qo'shimchalarning fonetik tuzilishi jihatidan bir qolipda ishlatilishi so'z yasash me'yori hisoblanadi. Ba'zan nuqtda sifat yasovchi –li va ot yasovchi –lik qo'shimchalari farqlanmay ishlatiladi. Paxtali chopon o'rni paxtalik chopon.

7. Imloviy me'yorlar (orfografik).

Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari 1956-yil "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" ga tayanadi. 72 paragrafdan iborat. 1995-yil yangi lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi.

Lotin alifbosiga asoslangan yozuvda ham yangi orfografik qoidalar yaratildi. Bo'g'in ko'chirish qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi. Demak, imloviy me'yor so'zlarning to'g'ri, xatosiz yozilishiga asoslanadi.

8. Grafik (yozuv) me'yorlari:

Hozirgi yozuvimiz lotin alifbosiga asoslangan bo'lib, 29 ta harf va 3 ta harf birikmasidan iborat.

9. Punktatsion me'yorlar:

Bu me'yor 10 ta tinish belgisi asosida ish yuritadi (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, undov belgisi, so'roq belgisi, ko'p nuqta, qo'shtirnoq, qavs)

10. Uslubiy me'yor:

Nutq sharoitiga qarab til birliklarining eng ma'qulini qo'llash adabiy tilning uslubiy me'yori hisoblanadi. Sinonimlardan noto'g'ri foydalanish, so'z takror ayrim eskirgan so'zlarni qo'llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi.

O'zbek tilida so'zlashuvchi kishilar va ijodkorlar uchun o'zbek adabiy tili me'yorlariga rioya qilish majburiy sanaladi.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy,

ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan. Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Imlo va talaffuz qoidalarini asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada tildan foydalanish me'yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni esa erkin, yangicha fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yar ekan, bunga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Xulosa shuki, adabiy nutq me'yorlariga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo'lib qolmoqda. Tilshunolarimiz zahmatlari tufayli o'zbek tilidagi birliklarining deyarlik barchasidagi me'yoriy ko'rinishlar ommaga turli qo'llanmalar, lug'atlar shaklida tavsiya etildi. Yangi imlo qoidalariga o'tishimiz munosabati bilan bu yumushlar davom ettirilmoqda. Nafaqat filolog olimlar, balki maorifimiz jonkuyarlari, o'z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaraydigan barcha ziyolilarimiz bu me'yorlarning buzilishiga e'tiroz, tuzatish va tavsiyalar tarzida chiqishlar qilib turishibdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, talaffuz me'yorlarini buzish, til madaniyatiga e'tiborsizlik hamon davom etmoqda. Yillar davomida majlislarni rus tilida olib borgan yoki ma'ruzalarni rus tilida eshitgan ko'pchilik kishilar o'z nutqlarida ruscha so'z va iboralarni qo'llash, ayrim holatlarda rus tili gap qurilishi tartibida o'zbekcha jumlarlar tuzish iskanjasidan chiqib keta olmayaptilar. Bu kamchiliklar hatto radio, ayniqsa, televideniye eshittirishlarida ham seziladi. Xalqimiz shevachilikdan batamom qutula olgan emas. Garchi ko'pchiligimiz adabiy til me'yori talablari asosida savodli yozsak-da, talaffuzda e'tiborsizlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik davom etmoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o'rin tutadi va ularning o'ziga xos me'yoriy xususiyatlari mavjud.

? Mavzuga oid savollar

1. Me'yor deganda nimani tushunasiz?

2. Adabiy tilde nega me'yorga zaruriyat tug'iladi?
3. Adabiy til me'yorlarini sanang.
4. Shevachilikning ijobiy va salbiy tomonlarini sanay olasizmi?
5. Me'yorning buzilishiga sabab bo'luvchi holatlar haqida fikringizni bayon qiling.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan o'zbek adabiy tili me'yorlarini izohlang.



2-topshiriq. Adabiy tilning leksik me'yori buzilgan holatlarni aniqlang.

1. – Boshliq o'zlaridami? – so'radi u shoshib (“Yoshlik”).
2. Darchaning yorug'idan tushgan nur ko'zni qamashtirar edi (“Yoshlik”).
3. Haligiday, ha men, bir og'aynimnikiga o'tib ketayotuvdim, jin chalganday bo'ldimi, yo'li qurg'urdan adashib, postavoy oldidan chiqib qolibman (K.Yashin).
4. Kelib ko'rishinglar aqalli (O.Yoqubov).
5. Ja soz-da. Sodiqvoy Akramga qarab ko'zini qisdi (O.Yoqubov).

3-topshiriq. Sohangizga oid ilmiy adabiyotlarda ko'proq qaysi me'yorlar buzilishiga yo'l qo'yilgan va bunga misollar keltiring.

4-topshiriq. Sohaga oid matnni o'qing. Matnda yo'l qo'yilgan me'yor buzilishlarini aniqlang.

Sulining doni va somoni yoki ko'k massasi chorva mollari uchun to'yimli oziqa sifatida ko'p ishlatiladi. Shuningdek donidan tolokno, galyet, yorma va kofe kabi oziq ovqat mahsulotlari ham tayyorlanadi. Bu mahsulotlar o'zining tarkibida yaxshi xazm bo'ladigan oqsil, moy, kraxmal va vitaminlarga boy bo'lib, yosh bolalarning shifobaxsh ovqati sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Sulini somoni va poxoli boshqa donli ekinlarnikiga qaraganda chorvachilikda yaxshi oziqligi bilan qimmatlidir. Sulini vika bilan aralash holda ekilganda juda ham samaralidir. Sulini turli xil muddatlarda ekib, mo'l xosil olish (ayniqsa chorvachilikda oziqa sifatida) mumkin. Bu esa O'zbekistonni sug'oriladigan yerlarida chorva mollarini to'yimli ko'k ozuqa bilan ta'minlashga imkon beradi. Suli qadimiy ekinlardan hisoblanib, yovvoyi holda qadim-qadimdan bug'doy va arpa ekinlari ichida aralashma holida uchrab kelgan. Tashqi sharoitga chidamliligi sababli madaniy xillarini aholi eka boshlagan. Yevropada suli ekinlari eramizdan 1500-1700 yillar ilgari ma'lumligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Hozirgi hamdo'stlik davlatlarida VII asrdan boshlab ekila boshlanganligi ma'lum.

5-topshiriq. Gaplarni o'qing. So'z yasalishi bilan bog'liq me'yoriy buzilishlar kuzatilgan o'rinlarni aniqlab, ularni to'g'rilang.

1. Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni o'tar. 2. Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini tatigan kishiga o'xshaydi. 3. Otin bibi qari, jiddiy, bosavlat xotin. 4. O'ymali gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqaviy eski eshikka kiramiz. 5. Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalchan, rangpar kishi. 6. Cho'ponlar sezqur itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor. 7. Do'mbirakash qadimgi qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda. 8. Yoqimtoy do'st suhbatlari olis yo'lni yaqin qiladi. 9. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohli g'am va qayg'u ostidadir. 10. Rostgo'ylik adabning ustuni, insonparvarlikning asosidir.

10-MAVZU. O'ZBEK ADABIY TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Reja:


1. Nuqta va uning qo'llanilishi.
2. Vergul va uning qo'llanilishi.
3. So'roq va uning qo'llanilishi.
4. Undov belgisi va uning qo'llanilishi.
5. Qavs va uning qo'llanilish o'rinlari.
6. Ko'p nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari.
7. Tire va uning qo'llanilish o'rinlari.
8. Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari.
9. Ikki nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari.
10. Nuqtali vergul va uning qo'llanilish o'rinlari.

Tayanch so'z va iboralar: tinish belgilari, ma'no, gap qurilishi, ohang, ishlatilish o'rni, sodda gap, qo'shma gap, uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, kiritma, undalma, izoh, qiyos, o'xshatish, zidlash.

Tinish belgilari - muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlari (ran bo'laklari)ning o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlar bilan farq qiladi. Tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim — Tinish belgilari miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi — punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) xamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilari ning asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq. Ularning aksariyati 19-asrning 2-yarmida ayrim gaz. va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan.

Punktuatsiya soʻzi “Punktum” “nuqta”, “joy” degan maʼnoni bildiradi. Tilshunoslikda esa tinish belgilarini oʻrganuvchi boʻlimdir. Tinish belgilarini oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllamaslik gapning maʼnosiga ham, gap qurilishiga ham taʼsir etadi. Oʻzbek tilida 10 ta tinish belgisi mavjud boʻlib, ularning har biri oʻz ishlatilish oʻrniga ega. Quyida har bir tinish belgisining kelib chiqish tarixi va ishlatilish oʻrni bilan tanishib chiqamiz.



1.Nuqta va uning qoʻllanilishi. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U oʻzbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta oʻzbek tilida, odatda, quyidagi oʻrinlarda ishlatiladi:

1.His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan soʻng: Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. Oʻzingga ravo koʻrmagan narsani boshqalarga ham ravo koʻrma. Farzandlarimiz doimo sogʻlom boʻlsin.

2.Atov gaplardan keyin: Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.

3.Ismi, otasining ismi (baʼzan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan soʻng: M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Choʻlpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S.Pushkin — rus poeziyasining quyoshi.

4.Nashriyot ishlarida, lugʻat va maʼlumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim soʻzlarning birinchi harfi yoki boʻgʻinidan soʻng: va

sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so‘zlashuv tilida); G‘. G‘. (G‘afur G‘ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O‘qituvchi» nashr.; 1995-y.

5.Qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog‘lanmagan qo‘shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog‘lovchilari bilan boshlanishi mumkin: Bobodehqon yerga baraka urug‘ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg‘in.

6.Ba‘zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.

7.Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin. Masalan: Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

8.Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi: $2 \cdot 2 = 4$ (ikki karra ikki to‘rt).

2.Vergul va uning qo‘llanilishi. Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi:

1.Uyushiq bo‘laklar orasida: Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim (M. Inomova).

2.Undalmalar vergul bilan ajratiladi: Uka, o‘qishning erta-kechi bo‘lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko‘raman. Salom sizga, purviqor tog‘lar!

3.Kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng: Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o‘zaro munosa-batlarda voyaga yetadi.

4.Tasdiq, ta‘kid, inkor va shu kabi ma‘nolarni bildiruvchi ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo‘yiladi: Ha, hushyor bo‘lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo‘nab ketyapmiz. Xo‘sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o‘ylab ko‘rdingizmi?

5.Ajratilgan bo‘laklar orasida: Onaga, eng ulug‘ zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O‘zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga: Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'yra.

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi: Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi: Ey, menga bir daqiqaga qarab qo'ying.

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi: «Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», — deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.

3. So'roq va uning qo'llanilishi. So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha questio — so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. So'roq gaplarning oxirida: Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo'ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo'ldim? (ohang o'zgaradi).

2. Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roq olmoshlaridan so'ng: Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi.

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga qo'yiladi. «Toping!» ma'nosida: Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. $5 \cdot 5 = ?$ (matematikada).

4. Undov belgisi va uning qo'llanilishi. Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha lo — undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng qo'yiladi: Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

— Ana tuproq, mana tuproq! — deydi. — Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (Tog'ay Murod)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi: Siz ham oyoqni ishlatiing! — deb buyurdi. Suv ostida o'p-qonlar ko'p. Tortib ketmasin! (P. Qodirov)

3. So'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng qo'yiladi: Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! (A. Fitrat)

4. Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qo'yiladi: Balli-balli! — dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. (A. Qodiriy) — Yo'q! Borolmayman, — dedi qayrilib.

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin: «Boburnoma»da tarix, etnografiya, til, adabiyot geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo'yiladi: Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.

— A-a-a!!! — dedi chinqirib. (O'. Hoshimov)

— Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.

— Xanjarimiz qonsirag'on! (A. Qodiriy)

7. His-hayajon bilan aytilgan so'roq, shuningdek, ritorik so'roq gaplar-dan so'ng: Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu! (O'. Hoshimov)

5. Qavs va uning qo'llanilish o'rinlari. Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazetisi» da 1873-yilda ishla-tilgan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda: O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokiston-dan keyin beshinchi o'rinda turadi), eksport bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

2. Remarkalarda: Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A. Fitrat)

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida: Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir. (Abdullo Avloniy) Jannat onalar oyog'i ostidadur. (Hadisidan) «Qasosli dunyo». («Avlodlar dovoni» romanidan)

4. Izoh ma'nosidagi so'z yoki so'z birikmalarida: Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha)ning birinchi kuni O'zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos — xalq, kratos — hokimiyat) ma'nosini bildiradi.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi: «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»). Shuhrat (G'ulom Aminjonovich Olimov) atoqli o'zbek yozuvchilaridan biridir.

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi: $(5 + 8) - 7 = ?$

[] ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, egalik qo'shimchasi qo'shilganda shah [a] ri, o'r [i] ni, sing [i] lisi so'zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.

6. Ko'p nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari. Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran «Turkiston viloyati-ning gazet» da muntazam qo'llangan.

Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida: To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.

— Mana shu imperiya... .

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho'lpon)

2. So'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun: Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi.

— Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, — deya yig'ladi. — Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...

3. Matn (jumla) qisqartirilsa:

— Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?

— Xo'sh, xo'sh?

— Ilkimdin kelguncha... — deb boshlanar edi.

— Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmat-laridur. (X.To'xtaboev)

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa: Muhammadyor yolg'iz:

— Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, — dedi-da, fikrg'a toldi. (A.Cho'lpon)

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa:

— Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushuningizmi?

— ...

— Tushundingizmi, deyaрман? (X.Sultonov)

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida: Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing. Xayri...x, a...loq, ...abar.

7.Tire va uning qo'llanilish o'rinlari. Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida:

— Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?

— Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo'q.

— Siz tabibmisiz o'zi?

— Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo'lmasa yo'q.

— Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? — dedi Kesakpolvon g'ijini.

— Olloh bir meniki emas, barchamizniki, — dedi chol ovozi bir parda ko'tarib. — Siz nomusulmon odamga o'xshab so'zlar ekansiz. (T.Malik)

2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida: Til — millatning qalbi. Yer — don, dehqon — xazinabon. Mehnating — boyliging.

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik — barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: «Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir», — deb yozgan edi L.N.Tolstoy.

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida:

1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:

— «Amir Temur» ordeni;

— «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa: Olamni quyosh yoritadi, insonni — ilm.

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida: O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi — «O'zbekinvest». Veksel — qimmatbaho qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: Vaqting ketdi — baxting ketdi.

9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi: Biz — yoshlar — millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida — bir paytlari bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi — katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida: Toshkent — Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.

11. Nashr, kitobot ishlarida: Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. — T.: «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1987.

Eslatma: Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23. Bugun Toshkentda – 3°C sovuq bo'ladi.

8.Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari. Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: «Apil–tapil qilingan ishning umri qisqa», — degan edi Sa'diy Sheroziy. I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishiga zeb–u ziynat, — degan edi Alisher Navoiy, — hikmat va donishdir».

2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi: Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari halihanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.

Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...»

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kir-ma-gan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi: ... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o'n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi». (T.Malik) «Xalq artisti», beliga o'q tekkanday erta-yu kech

to'rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo'lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A'zamov)

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi: «Lison ut-tayr» (Qush tili) asari haqida suhbatlashdik. «Ma'rifat» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Mening oppoq kabutarlarim» spektakli, «Sohibqiron» dramasi, «Amir Temur» portreti.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi: «Uzdunrobta» qo'shma korxonasi, «Kochxolding» konserni, «Kamolot» ijtimoiy harakati, «Istiqlol» tennis sport majmuasi, «Diyor» savdo uyi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi, «O'zbekavtotrans» Davlat aksionerlik korporatsiyasi, «O'ZDEUavto» O'zbekiston — Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodi, «Chorsu» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi: «Neksiya» rusumli yengil mashina, «Boing» samolyoti, «Otayo'l» mikroavtobusi, «Rayhon» alkogolsiz ichimligi, «Kibo» oyoq kiyimi, «Hojimatov damlamasi».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi: «El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q.G'.Abdullayev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi: 1995-yilning 6-may kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi: 11-«A» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimga «besh» baho qo'ydi.

9. Ikki nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari. Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng:

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng: Bundan so'ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:

— Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin: O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng: Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni.

Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:

I.Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.

II.Navro'z — umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin: Toshkentda «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun: Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammad-qodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi. «Andijon» va «Paxtakor» komandalari o'rtasidagi o'yin durang natija bilan tugadi — 2 : 2.

Eslatma: Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi. 100 : 2 — 50.

10.Nuqtali vergul va uning qo'llanilish o'rinlari. Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lmagan hollarda: Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan mazovor bo'lgan bir chol keladi. (A. Qahhor)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda: Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber! Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

3. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin: Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandi-dan tashqari har bir bandi oxirida:

Otabek timsoliga tavsif:

a) Otabek — o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;

b) Otabek — mard va jasur yigit;

d) Otabek — o'z ahdiga sodiq, vafoli yor.

Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatilish o'rinlari. O'zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma'nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo'llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo'llanilishidagi asosiy o'rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida so'roq va undov belgilari ketma-ket qo'yiladi:

— Axir, ablah, — derdi Yunus, — birovning uyiga oyog'ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg'atgani ibo qilmaysan?! (A.Qahhor)

2. So'roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin. Ey, purviqor tog'lar! Nega jimsizlar, nega!!! (A.Cho'lpon)

3. So'roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so'ng ikki nuqta qo'yiladi.

«Ertaga! — deya xotirjam dilidan o'tkazdi va birdan to'xtadi — xo'sh, ertaga nima bo'ladi?..» (N.Qilichev) Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:

— Topdi-mm!.. Topdi-im!.. (Sh.Bo'tayev).

4. Muallif gapi va ko'chirma gaplar o'rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin: «Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtidan farq qilmaydi», — deb yozgan edi A.Qahhor.

Tinish belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi ham mazmun, ham grammatik tomoniga ta'sir qilishi mumkin.



Mavzuga oid savollar

1. O'zbek tilida nechta tinish belgisi bor?
2. Tinish belgilari gapning qaysi jihatiga ta'sir etishi mumkin?
3. Qaysi tinish belgilari qo'shaloq tarzda ham ishlatilishi mumkin?
4. Ko'chirma gaplarda ishlatiladigan tinish belgilari haqida ma'lumot bering.
5. Nima sababdan chiziqli (defis) tinish belgisi hisoblanmaydi?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi matnlarni o'qing. Matnlarda belgilangan o'rinlarda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'ying.

1. Ibn Sino hazratlari "Tibbiy o'gitlar" kitobida faslga tarif berib, aynan bir faslni ta'kidlab shunday deganlar () "Bu davrda sog'lom kishilar kamdan-kam kasal bo'ladilar boshqa fasllardan farqi esa insonlar harakatida jo'shqinlik va shitob sezilib turadi. Bu qaysi fasl?"

2. Uchadi jim () qo'nadi jim () yotadi jim. Qachon o'lsa () keyin yig'laydi, uzun-uzun yig'laydi. Bu nima?

3. Xitoyning eng janubida Yunnan viloyati bor () Bu yerda qiziq holat kuzatiladi. 15-iyundan 15-sentyabrgacha (90 kun) dalalarda ishlar to'xtaydi, to'yu bayramlar barham topadi. Hamma o'z uyiga kirib, kitob o'qiydi. Hayot to'xtaganday bo'lib qoladi. Nima uchun ()

4. Undan hamma noliydi. Ko'payib ketsa ham bir balo, kamayib ketsa ham bir balo. Ko'pincha undan nolib-nolib () bu Xudoning marhamati ekanligi yodimizga tushadi. Unga yerning xohlagan mintaqasida duch kelamiz () Xo'sh bu nima?

5. Italiyada Yozafberg degan qishloq bor. Har yili 30-noyabrdan 2-fevralgacha qishloqda umuman quyosh chiqmaydi. Sababi nima ()

6. Biz uni ko'rib quvonamiz () eshitib zavqlanamiz, his qilganimizda rohatlanamiz. Leonardo da Vinchi bekorga uni "Hayot sharbati" deb atamagan. Bu nima?

7. Dengiz ham emas () yer ham emas () yurib ham bo‘lmaydi, suzib ham bo‘lmaydi?

8. U davlatning juda katta yuk tashishga ixtisoslashgan dengiz floti mavjud. Bu davlatning minglab () yuz minglab yuk tashish kemalari o‘z davlatiga yillab kirmay yuradi. Chunki ular dunyodagi boshqa davlatlar yuklarini tashish bilan band bo‘ladilar. “Dengiz kirakashi” deb nom olgan mazkur davlatning nomini ayting?

9. Tabiatning ishi qiziq. Har bir ko‘karib turgan o‘simlik, daraxt, albatta () suv bilan tirik. Ammo shunday bir o‘simlik borki () 40 yil quritib, yana qayta ekilib, suv quyilsa, ko‘karar ekan. Bu qaysi o‘simlik bo‘lishi mumkin?

2-topshiriq. Quyida berilgan jadval asosida tinish belgilariga mos ta’rifni toping.

Tinish belgilari	Qo‘llanish o‘rni
Nuqta	Agar alohida emotsionallikka ega bo‘lmasa, buyruq gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi
Ikki nuqta	Tarkibida emotsionallikni kuchaytiradigan qanday, qanchalik, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik kabi so‘zlar mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga qo‘yiladi
Ko‘p nuqta	Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga qo‘yiladi
Tire	Muayyan fikr-mulohaza, hukm, ilmiy ta’rif, qoida kabilami ifodalovchi gaplardan keyin ayni fikr-mulohaza, hukm, ta’rif, qoidalarning to‘g‘riligini asoslash uchun keltirilgan birdan ortiq daliliy faktlarni ta’kidlab ko‘rsatish maqsadida qo‘yiladi
Vergul	Ot kesim ot, son, olmosh, harakat nomi, taqlidiy so‘zlar yoki ular hokim bo‘lgan so‘z birikmalari bilan ifodalanib, bog‘lamasiz qo‘llanganda, ega va kesim orasiga qo‘yiladi
Nuqtali vergul	Zidlovchi teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan gaplarda mazkur bog‘lovchilardan oldin qo‘yiladi
Undov	Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga qo‘yiladi

3-topshiriq. “Men tanlagan kasb” mavzusida matn tuzing. Matnda barcha tinish belgilaridan foydalaning.

4-topshiriq. Tinish belgilari bo‘yicha egallagan bilimlaringizni “BBB” metodi asosida xulosalang.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

5-topshiriq. Berilgan matndagi tinish belgilarning qo‘llanishiga diqqat qiling. Matn mazmuni va sarlavha bir-biriga mos keladimi? Munosabatingizni bildiring.

TARIX “XATOSI”

To‘qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazimiy algebra faniga asos soldi.

O‘ninch asr. Abu Nasr Farobiy Aristotelning «Metafizika» asariga eng mukammal sharh yozib, «ikkinchi ustoz» unvonini oldi.

O‘n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy yer bilan oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino meditsina Qomusi – «Tib qonunlari»ni yaratdi.

O‘n to‘rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevrosiyaning yarmini tasarrufiga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

O‘n beshinchi asr. Ulug‘bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas «Xamsa»sini yozdi.

O‘n oltinchi asr. «Boburnoma» olamga tarqaldi.

O‘n yettinchi asr. Shoh Jahon dunyodagi yetti mo‘jizaning biri – «Toj mahal»ni bunyod etdi.

11-MAVZU. MULOQOT JARAYONI VA UNING KO'RINISHLARI

Reja:

1. Muloqot haqida tushuncha.
2. Muloqot turlari va shakllari.
3. Muloqot maqsadi va madaniyati.

Tayanch so'z va iboralar: muloqot, muloqot turlari, munosabat, pedagogik muloqot, dilkashlik, xushmuomalalilik, mulohaza, madaniyat, axloq, kasbiy muloqot, muomala.

Muloqot haqida tushuncha. Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog E.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek muhimdir.

Go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyatga, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot alinashiga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir.

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida

kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqotning tizimida o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlar ajratiladi:

Perseptiv jihat – bu muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir.

Kommunikativ jihat – bu muloqotdagi individlarning o'zaro ma'lumot almashinishidir.

Interaktiv jihat – bu individlar muloqotda nafaqat bilim va g'oyalar, balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish uchun xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar yetib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odanda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va yetkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, axloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, undan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Muloqotning konativ (xulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga yetkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berish vositalari sifatida ta'riflash mumkin.

Muloqot maqsadiga ko'ra biologik va ijtimoiy ko'rinishda bo'ladi. Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot vositasiga ko'ra bevosita va bilvosita bo'lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida ya'ni qo'li, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayirboshlasa – bu bevosita bo'ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma'lumot almashishda maxsus qurol va vositalardan foydalanilsa – bu muloqot bilvosita deyiladi.

Verbal va nonverbal muloqot. Muloqot til vositasi bilan — verbal yoki tilning ishtirokisiz — nonverbal amalga oshirilishi mumkin.

Verbal aloqa og'zaki aloqa va verbal asos haqida fikr bildirib, og'zaki dalil (asos)larni bildiradi. Verbal muloqot jarayonida so'z muhim o'rin tutadi. So'z talaffuz qilinishi, ichki nutqda takrorlanishi, yozilishi, maxsus ishoralar yordamida ifodalanishi mumkin. Muomala faqat kishilar o'rtasidagi axborot almashishdangina iborat bo'lmay, balki kishilarning his-hayajonlarini ham qamrab oladi. Muomalaning bu tomoni nonverbal kommunikatsiyani tashkil qiladi. Noverbal muloqot vositalari bo'lib imo-ishora, harakat, ohang, intonatsiya, pauza, kulgi, tabassum, ko'z qarash, ko'z yoshi va boshqalar xizmat qiladi. Noverbal muloqot vositalar verbal muloqotni to'ldiradi. Noverbal vositalar yordamida bir so'zga ko'plab ma'no berish mumkin. Tillarni o'rgatishda shu til sohibiga xos bo'lgan nonverbal vositalarni ham o'rgatish lozim. Aks holda chet tili to'la o'zlashtirilmaydi. Chunki turli tillardagi nonverbal vositalar ham so'zlar kabi bir-biridan farq qiladi. Muloqot jarayonida talabalarni yuzma-yuz o'tqazish ijobiy samara beradi. Muloqot jarayonida tilga xos bo'lgan nonverbal vositalardan to'g'ri foydalanish muloqot madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Noverbal soʻzlar muloqot kuzatish kuchi bilan yaqindan bogʻlanadi. Muloqot qabul qiluvchi soʻzlovchini koʻrish, eshitish va hattoki, his qilish pozitsiyasida boʻlishi kerak. Muloqotni qabul qiluvchi soʻzlovchining yuzi, imo-ishorasi, ohangi, kiyim-kechagi, koʻrinishini aniq koʻrishi va ovozini ham eshitadigan joyda boʻlishi kerak. Bu kuzatish orqali noverbal muloqot rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan boʻlishi mumkin. Soʻzlovchi tinglovchilarga ongli imo-ishora, gavdasini tutishi xatti-harakatlarning boshqa shakllari orqali aniq xabarni bildirmoqchi boʻlganda rejalashtirilgan boʻladi. Noverbal muloqot esa, soʻzlovchining xatti-harakatlari, gavdasini tutishi, yoki koʻrinishi qabul qiluvchi tomonidan gʻayri ixtiyoriy qilinsa ham rejalashtirilmagan hisoblanadi. Pala-partish kiyinish yoki norasmiy kiyim-bosh kiygan notiq eʼtiborli boʻlsa ham, jiddiylilik yetishmaganday izoh berilishi mumkin.

Noverbal muloqotning ahamiyati.

1. Geografiya, kartalar, diagrammalar va hokazolar bilan bogʻliq fikrlarni bidirishda, qabul qiluvchi masalani bir qarashda tushunib olishi mumkin, noverbal metodlar ixcham shaklda katta miqdordagi maʼlumotlarni taqdim eta oladi.

2. Haydovchilar yoki yoʻlovchilardan darhol javob boʻlishi shartligi sababli yoʻl harakati belgilari, signallar uchun noverbal muloqot shak-shubhasiz asosiy oʻrinni tutadi.

3. **Noverbal taʼsirning** maʼnosi “nutqsiz”dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan oʻrinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga koʻra, birinchi marta koʻrishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy boʻlishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha taʼsir qilarkan.

Muloqot turlari. Muloqot odamlarning jamiyatda oʻzaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo boʻlganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdorligi va samaradorligini taʼminlovchi muhim omil ekanligini bildiradi. Fanda muloqotning quyidagi turlari farqlab oʻrganiladi:

Moddiy muloqot deganda sub'yektning dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ayni paytda shug'ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

Kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o'rganish, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o'zaro bilim almashinuviga aytiladi.

Konditsion muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko'tarishi yoki, aksincha, ona qizining o'ksinib yig'layotgan holatiga yig'i bilan munosabat bildirishi va h.k.

Motivatsion muloqot muayyan yo'nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o'zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlar almashinuvi jarayoni bilan izohlanadi.

Faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko'nikma va malakalar ayirboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma'lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi va takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko'ra biologik va ijtimoiy ko'rinishda bo'ladi. Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot vositasiga ko'ra **bevosita** va **bilvosita** bo'lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida, ya'ni qo'li, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayirboshlasa, bu bevosita muloqot bo'ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma'lumot almashishda maxsus qurol va vositalardan foydalanilsa, bu muloqot bilvosita deyiladi.

Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Vositali muloqot muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog'liq. Bular yo tabiiy (yog'och, yerdagi izlar va h.k.) yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) jismlar.

To'g'ridan to'g'ri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan

holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot shakli (usuli)lari. Muloqot **demokratik, avtoritar, liberal** shakli (usuli)da amalga oshadi. **Demokratik** usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o‘zaro tenglik, o‘zaro hurmat ruhiga bo‘ysundirilib, ta’sir o‘tkazish sohalari yashiringan holda bo‘ladi. Shu boisdan, tasodifan voqea va hodisalarning sodir bo‘lishi turlicha baholanadi, rag‘batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta’sirida o‘g‘il-qizlarda do‘stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi norma va talablarga moslashish, o‘z faoliyati uchun javobgarlik, emotsional zo‘riqish davrida o‘z-o‘zini qo‘lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo‘ladi.

Muloqotning yana bir shakli **avtoritar** deb atalib, bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Masalan, boshliq tomonidan xodimlarning yurish-turishi, xatti-harakati ko‘pincha cheklab qo‘yiladi. Boshliq tomonidan ta’sir o‘tkazishning asosiy metodi – jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag‘batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u xodimga ma’naviy ozuqa bermaydi. Mazkur usul oilada qo‘llanilsa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg‘u uzoqlashish, “begonalashish” kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlilik, xavotirlilik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a’zolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg‘ular juda nursiz ifodalanadi. Ko‘r-ko‘rona va so‘zsiz bo‘ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta’sir qo‘rqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Muloqot shakli ichida **liberal** usuli ham ko‘zga tashlanib turadi. Bu usul muloqot jarayonida murosasoz, ko‘ngilchan bo‘lishlik, tashqi ko‘rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiiy moslikni o‘zida aks ettirgandek bo‘lib tuyuladi. Afsuski, liberallik, murasasozlik har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri –

o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, vaziyatni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng – mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi.

Muloqot madaniyati. Insonlarning surat va shakllari go'zal qilib yaratilgan. Bu hikmat ularning muomalasi ham go'zal bo'lishini taqozo qiladi. Inson surat va siyratini, ichki dunyosini chiroyli qilgani sayin komillik darajasiga yaqinlashaveradi. Shuning uchun farzandlar muomalada muloyimlik va kechirimlilikni shior qilib olishlari lozim. E'tibor qancha kuchli bo'lsa, ana shu miqdorcha ota-ona huzurida imkoniyatga ega bo'ladilar. Odatda kishi obro'-e'tiborini til orqali topadi. Dono xalqimizning bu to'g'rida "Tilga e'tibor, elga e'tibor". "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin". "Achchiq til zahari ilon, chuchuk tilga jon qurbon". "Bemorga shirin so'z kerak, aqlsizga ko'z". "Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi" kabi hikmatlari bejjiz emas. Zero, insonning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan hayot tarzini yengillashtiradigan, ish yuritishda foydaga asos bo'ladigan, sog'lik-salomatligini barqarorlashtiradigan asosiy omildir.

Tilga e'tiborli bo'lish, mulohaza va mushohada bilan fikr yuritish, boz ustiga samimiy muomalada bo'lish inson uchun faqat yaxshilik keltiradi. Farzandlarining muomala madaniyatini yaxshi bo'lishini istagan ota-onalarning o'zlari bu jihatda farzandlarga ibrat bo'lishlari kerak. Muomala oilada hayot fayzi, xonadon egalari uchun uning chirog'i kabi deyishimiz mumkin. Bunda avvalambor ota-ona bir-birlarining kamchiligi yoki noto'g'ri harakatini ko'rganda, farzandlar oldida tanqid qilib, gap bilan uyaltirmasdan, og'ir-bosiqlik bilan voqea sababini aniqlashtirish, samimiy gap-so'zlar bilan muammoni hal qilish tahsinga

sazovordir. Turmush o'rtog'ining tashqi ko'rinishi, kiyinishi, harakatlarini boshqalarga taqqoslab, salbiy jihatlarini yuziga solish, ta'na qilish mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, farzandlar oldida tanqid qilish, kamsitish yurakda ketmas dog' bo'lib qolishi mumkin. Aksincha, farzandlarining oldida turmush o'rtog'iga bolalarning mehrini keltiruvchi vaziyatga muvofiq so'zlar bilan muloqot va muomala qilish ota-onaning izzat-hurmat topishning muhim bosqichlaridandir.

Hayotda turli vaziyatlarga duch kelamiz. Ba'zi ota-onalar farzandlarini o'ksitmaslik, namunali qilish maqsadida kiyinishda, ovqatlanishda, ta'lim olish va ishlashda ular uchun barcha sharoitlarni yaratib beradilar. Farzand bu imkoniyatlarni noto'g'ri tushunib, kibrli, manmanlik kayfiyati uning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oxir oqibat to'qlikka sho'xlik qilib muomala va muloqotda qo'pol, mulohazasi sayozligi evaziga bir og'iz so'z bilan ota-onalarning dillarini og'ritadi, ranjitadi. Natijada o'rtadagi muomala madaniyati izdan chiqadi, boshqalarning undan ko'ngli qoladi. Tuzatish qiyin bo'lgan muammo va qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Farzandlar xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin o'zlariga oro bersalar-u, muomalani bilmasalar, hech qachon el hurmatiga sazovqr bo'lmaydilar.

Agar nazar soladigan bo'lsak, muomala madaniyatining go'zalligi bilan muammolar yechiladi, qalblarga yo'l topiladi, orzular ro'yobga chiqadi, ota-onani ko'nglini olishga sharoit yaratiladi. Shu o'rinda xalqimiz "Shirin so'z bilan ilon inidan chiqadi", deb bejiz aytmagan. Hatto, chiroyli muomala moddiy mablag' bilan qilingan yaxshiliklarni ham bosib o'tishi mumkin. Bu ma'noni ta'kidlab, Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg'ambarimizdan (solallohu alayhi vasallam) keltirgan hadisi sharifda: "Tabassum bilan aytilgan chiroyli so'z - sadaqadir", deyiladi. Bu bilan odamlarning o'zaro muomalasi qay darajada izzatlanishi ta'kidlanmoqda. Gohida kichkina e'tiborsizlik katta noxushliklarga sabab bo'ladi, muammo ustiga muammo tug'iladi.

Buning uchun turli insonlar bilan suhbatlashish jarayonida bir necha kichik qoidalarga amal qilsa bas:

- suhbatdoshingizga og'ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo'yadigan, gapirishni istamaydigan mavzu bo'yicha suhbatlashish mumkin emas;
- suhbatdoshingizga o'zingizga ta'rif, tasnif berishdan, o'z muammo va yutuqlaringiz haqidagi ma'lumotga e'tiborni kuchaytirishdan qoching. suhbat chog'ida o'zingizni "men"ingizni markaziy joyga qo'ymang, kamtar bo'ling;

- o'zingizni fikringizni uqtirishdan oldin uyalib qolmasligingiz uchun hamsuhbatingizni ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma'lumotga ega ekanligini bilib olgandan so'ng suhbatga kirishing;
- suhbatdoshingizni hurmat qilishga o'rganing, hatto uning fikrini siz noto'g'ri deb bilganingizda ham oxirigacha eshiting;
- boshqa insonlarni g'iybat qilishdan, ularni muammosi haqida gaplashish ham axloqsizlik sanaladi.

Hamma xursand holatda suhbatlashayotgan holatda kayfiyatni tushuruvchi qo'rqinchli voqealar, ko'ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarning kayfiyatini tushurib yuboradi. Kasal ko'rgani borganda o'lim haqida, uning kasalining tarixi, mayda-chuydalari haqida gapirish mumkin emas. Uning o'rniga yolg'on bo'lgan taqdirda ham, ko'rinishi yaxshiligi, albatta tuzalib ketishi mumkinligi borasida suhbat qurish lozim. Dasturxon atrofida ishtahani bo'g'uvchi mavzular haqida gapirilmaydi. Taomni yomonlash, kamchilik axtarish mumkin emas, balki pishirgan insonni ko'nglini ko'tarish lozim.

Tarbiyali va madaniyatli inson umumiy tanish haqida fikr bildirayotganda yolg'on ishlatmaydi, u haqida noloyiq so'zlar aytmaydi. Bir inson haqida (hatto u yomon inson bo'lganda ham) fikr bildirayotgan paytda u kirib qolsa, miyig'ida kulib, iboli qarash, piching, qochiriqlar qilish, ba'zida betga aytgan haqiqiy fikrdan ham qattiq dilga ozor beradi. Suhbatlashish chog'ida inson tinglashni ham bilmog'i darkor.

Tinglash faqat eshitib o'tirish degani emas. Yaxshi suhbatdosh o'z suhbatdoshi fikrini mantiqiy tugatgandan so'ng, o'z fikrini to'liq bayon qilib beruvchi insondir. Juda ham kerak bo'lib qolgan vaqtda kechirim so'rab, masalan, "Kechirasiz, menimcha shu fikringiz..." yoki "Fikringizni bo'lganim uchun uzr so'rayman, menimcha..." bu vaqtda gapirayotgan odam suhbatdoshiga imkon berishi lozim. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda albatta yoshlar bilan kattalar o'rtasida tushunmovchiliklar bo'ladi. Shunday paytlarda yoshlar o'zlarini fikrlarini yoqlamasdan "xo'p" deb mavzuni o'zgartirishlari kattalarning dili og'rib qolishidan saqlaydi.

Suhbatdoshingizning fikrini noto'g'ri deb bilgan taqdiringizda ham tarbiyali va kamtar inson sifatida munosabatda bo'lib "menimcha, adashdingiz", "uzr men boshqa fikrdaman", "kechirasiz, men sizning fikringizga qo'shilmayman" degan iboralar bilan murojaat qilinadi. Hech qachon "umuman noto'g'ri", "bu to'g'rida hech narsani tushunmaysiz",

“bu narsani yosh bola ham biladi” degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

? Mavzu yuzasidan savollar

1. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqot turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Insonlar bilan suhbatlashish jarayonida qanday qoidalarga amal qilish kerak
4. Muloqotchanlikni qanday tarbiyalash mumkin?
5. Muloqotning nechta funksiyasi mavjud ?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Guruhlarga bo‘linib, ota-onaga murojaat shakllarini tanlash haqida fikrlashing.

Endi ota-onani tilga olganda ishlatiladigan so‘zlarga kelsak, otaga nisbatan «boboy», onaga nisbatan «kampir» singari so‘zlarni ishlatish nutq odobidan, xususan va umuman, odobdan tashqaridir. Adabiy tilda otani «otamiz», «padarimiz», «qiblagohimiz» deb, onani «ona miz», «volidamiz», «onayizorimiz», «volidayi mehribonimiz», «oq sut bergan onamiz» kabi so‘z va iboralar bilan tilga olinadi.

Bular nutq odobiga daxldor ijobiy hodisalardan hisoblanadi. Ammo «boboy», «kampir» kabi so‘zlar bolaning beodobligidan nishonadir. Ota oila boshi bo‘lgani uchun unga ulug‘vorlik ni bildiruvchi sifatlarni, onada bolaga nisbatan mehr ortiqroq bo‘lgani va ko‘proq ma shaqqat chekkani uchun unga mehribonlik, mushfiqlik va mehnat-u mashaqqat anglatuv chi sifatlar beriladi...

Ota-onaga murojaat qilganda, «jon» qo‘shimchasini qo‘shib, «otajon» yoki «dadajon» yoxud «adajon» yo «oyijon» deb murojaat qilinsa, ota-onaga bo‘lgan ehtirom shartlaridan biri ado etilgan bo‘ladi. Ammo bu murojaat til uchida emas, astoydil bo‘lishi kerak. «Jon» so‘zi jondan chiqsa, ota-onaning joni farzand joniga baraka bag‘ishlaydi. Agar til uchidan chiqsa, ota-ona har qancha mehr-u shafqat ko‘rsatmasin, bolaning ishi yurishmaydi. (A. Rustamov)

2-topshiriq. Quyidagi metod orqali suhbatdoshingiz bilan erkin muloqot muhitini yarating.



FIKRLASHGA CHORLOVCHI USULLAR

**“Muzyorar” usuli fikrlarni
erkin bayon etishga,
samlmiy, o‘zaro iliq
munosabatlarni
yaratishga yordam
beradi.**

Kirish: Keling tanishaylik!

1. Ismi-sharifingiz?
2. Mutaxassisligingiz?
3. Hayotdagi shioringiz?
4. O‘qish faoliyatingizdagi eng katta muvaffaqiyatingiz?
5. Siz uchun eng qimmatli narsa nima?
6. Sizning eng kuchli va kuchsiz tomonlaringiz?
7. Kelajakdagi strategik rejalaringiz?



3-topshiriq. Hikoyani o‘qing. Ona va bola o‘rtasidagi muloqotga diqqat qiling. Muloqot turini belgilang va hikoyadan olgan taassurotingizni izohlang.

– Anavi nima, oyi? – dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak! – ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to‘xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi: – Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshitilardi. Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

– Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko'zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deb ohista egilib, o'g'lining yuzidan o'pdi. – Senga salom beryapti-da.

... Oradan o'ttiz besh yil o'tdi. Bola yigit bo'ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog'idan mador, ko'zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o'sha qishloqqa borib qoldilar

– Anavi nima, o'g'lim? – dedi to'xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to'rt qadam yurib yana to'xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko'rinyapti. Qiziq...

– Nima, o'g'lim? – dedi ko'zlarini pirpiratib.

O'g'il taqqa to'xtadi. G'ashi keldi. O'zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo'lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko'p. Hali shaharga qaytishi kerak...

Uning g'o'r, go'dak bolalari bor... (O'. Hoshimov)

4-topshiriq. Quyidagi muloqot madaniyatiga oid ma'lumotlarni o'qib chiqing. Bu fazilatlardan qaysilari sizning muloqotingiz jarayonida ustunlik qilishini tahlil qiling.

Quyida keltirilganlarning barchasini ingliz yuristi Metyu Heyl 1692-yildayoq o'z vorislariga yozib qoldirgan. Bu maslahatlar bugungi kungacha o'z dolzarbligini zarracha yo'qotmagan.

1.Yolg'on so'zlamang. Yolg'on — insoniyatga qarshi katta jinoyatdir. Haqiqatsiz jamiyatning xavfsizligi kafolatlanmagan. Yolg'on so'z gapiruvchiga zarar qiladi: nafaqat uyatga qoldiradi, balki kishida odat paydo qilib, hatto o'zi istagan vaqtda ham rost so'zlashga qiynala boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan so'zlovchi o'zining yolg'on gapirayotganini ham sezmay qoladi.

2. Qo'lingizdan kelmaydigan ishdan so'z ochmang. Tilingizdan tasodifan asossiz gap chiqib ketuvchi vaziyatlardan uzoq turing. Ishonchingiz komil bo'lmagan narsalarga boshqalarni ishontirishga urinmang. Yoki so'zlayotgan gaplaringiz shunchaki taxmin yoki shaxsiy fikringizligini ochiqqlang.

3. Kamgap bo'ling. Bekordan-bekorga oraga suqilmang. Ozroq gapirish evaziga o'zgalarni tinglash imkoniyatini yarating va yangi bilim, zakovat va malakaga ega bo'ling.

4. Vazmin bo'ling. Bahslar qaynagan vaqtda baqira ko'rmang, o'zingizni qo'lga oling. Raqibingizni baland ovoz bilan emas, sog'lom aql bilan jim qiling.

5. So'zlovchining gapini bo'lmang. Inson so'zlayotganda har ne bo'lsa ham uning gapini bo'lmang. Oxirigacha tinglang. Shunda siz uni yaxshiroq tushunasiz va nisbatan munosibroq javob berishingiz mumkin bo'ladi.

6. So'zlaringizni chamalab boring. Avvalo o'ylang yoki sukut saqlang. Aytmoqchi bo'lganlaringizni ma'nosiga e'tibor qaratib, iboralaringizni chamalab oling. Bemulohaza odamlar so'zlashni boshlamagunlaricha o'ylashmaydi. Yoki gapirib bo'lgandan keyin o'ylashadi.

7. Yoqimsiz kishilarning kamchiliklarini kuzating. O'ziga bino qo'ygan va surbet kishilar orasiga tushib qolsangiz, ularning kamchiliklariga e'tiboringizni qarating va ehtiyot bo'ling. Shunda suhbat davomida ham, umumiy muomalada ham ularning xatolaridan qochishning uddasidan chiqa olasiz.

8. O'zingizni maqtamang. Maqtanmang va o'z-o'zingizni baholamang. Sizni maqtovchi faqat sizning tilingiz bo'lsa, bu obro'yingiz o'ta past va tezlik bilan qulashda davom etayotganidan dalolatdir.

9. Insonlar orqasidan salbiy gaplar so'zlamang. Davrangizda kimdir yo'q bo'lsa, uning ortidan iloji boricha faqat yaxshi so'zlar aytishga harakat qiling. Salbiy mulohazalarga loyiq bo'lmagan kishilar haqida hech qachon yomon so'zlamang. Bu turdagi so'zlashuvlar insonga yaxshiroq bo'lishga yoki boshqalarni himoya qilishga xizmat qilsagina istisno bo'lishi mumkin.

10. Nuqsonlarni mazah qilmang. Insonlarning tug'ma kamchiliklari haqida hazil qilmang va bunday hazillarga qo'shilib kulmang. Bu turdagi xatti-harakat juda yomon taassurot qoldiradi.

11. Salbiy mulohazalardan ehtiyot bo'ling. Hech kimni tanqid qilmaslikka, tahdid qilmaslikka va kimningdir tomoniga qahrli so'zlar aytmaslikka harakat qiling. Kishining xatosini ko'rsatishingiz kerak bo'lsa, eshituvchi kishiga noxush bo'lmasligi uchun uni malomat va

ginasiz aytish yo'lini toping. Vaholanki bu kabi ta'nalar hech qachon foyda bermaydi, ammo dilni og'ritadi va katta ehtimol bilan insonni sizga qarshi qaraydi.

12. G'azablanmang. Agar ikkinchi shaxs qizishib ketib sizning tomoningizga nomaqbul so'zlar gapirsa, yaxshisi unga achining va jahl otiga minmang. Sukut yoki o'ta boadab javob bunga eng yaxshi reaksiyadir. Ular yo shovqin soluvchini yumshatib afsuslanishga majbur qiladi yoki unga jazoga aylanadi. Holat qanday tus olmasin, muloyimlik va xushmuomalalik o'z asablaringizni asrashga yordam beradi, shuningdek aqlli va dono inson sifatida qabul qilishlariga sabab bo'lib, obro'yingizni oshiradi.

5-topshiriq. Nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida yozma matn tuzing.

12-MAVZU. NUTQNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Nutqning to'g'riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyliigi.
4. Nutqning sofligi.
5. Nutqning boyliigi.
6. Nutqning jo'yayiligi.
7. Nutqning ifodaliligi.

Tayanch so'z va iboralar: nutqning madaniyligi, nutq odobi, kommunikativ sifatlar, to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik, _nutqiy kamchiliklar – og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar

Odob juda keng va qamrovli tushuncha bo'lib, u nutqni to'g'ri va o'rnida qo'llash odobini ham o'z ichiga oladi. Buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida «Odobning boshi tildir» degan maqol qayd qilingan. Ulug' alloma Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida «til ardami» (nutq odobi) haqida bir qancha go'zal hikmatlar mavjud bo'lib, jumladan «So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin», «Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi, Nodonning so'zi o'z boshini yeydi», «Aql ko'rki so'zdir va til ko'rki – so'z» deyiladi dostonida. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy so'zning muloqotdagi o'rnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va lo'nda gapirishni fazilat deb bilgan. Tariximizda go'zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo'lib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma'rifat darg'alari tilimiz muhofazasi, tilning sofligi va nutq odobi haqidagi jiddiy fikrlarni bayon qilganlar.

Bugungi nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon, go'zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashni nazarda tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi, o'ziga xos ko'zgusidir. Nutqiy muloqotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog'liq, chunki madaniy nutqqina chinakam ta'sir kuchiga ega bo'la oladi.

Tilshunoslikda «nutq madaniyati» termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bimalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va o'rgatish bilan shug'ullanuvchi b o'limi.

Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchi (o'quvchi)ga yetkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday ta'sir quvvatiga ega bo'lishi uchun, albatta, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlar mavjud bo'lishi kerak.

Nutqning madaniyligini ta'minlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha bo'lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik.** Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog'liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya'ni nutqda to'g'rilik sifatining mavjudligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limot ning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to'g'rilik mavjud bo'lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to'g'ri bo'lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi. Adabiy me'yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo'lib, o'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1) leksik (so'z qo'llash)

me'yorlar; 2) talaffuz me'yorlari; 3) so'z yasalishi me'yorlari; 4) morfologik me'yorlar; 5) sintaktik me'yorlar; 6) uslubiy me'yorlar.

Adabiy til me'yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib keladi. Ammo badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylilik uchun xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi grammatik me'yorlarga ko'ra, ega shaxs bo'lmasa, u ko'plik sonda bo'lsa-da, kesim ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy asarda tasvirga erka bir ohang berish maqsadi bilan mahoratli ijodkor Abdulla Qodiriy *"Bu xabarni eshituvchi – Kumushbibining qora ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar"* tarzidagi go'zal jumlani tuzadi.

Adabiy tilning yozma shaklida to'g'rilik sifatining ta'minlanishi uchun yana ikki turli me'yorga amal qilish lozim. Bu me'yorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) me'yorlari; 2) tinish belgilari (punktatsion) me'yorlari.

Imlo me'yorlari mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy an'analarga suyanganda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo'llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so'zlar, morfemalar kabi til birliklari bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o'rin tutadi. Bu belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir.

Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi so'zning tildagi ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda qo'llanishi, so'zning voqelikdagi o'zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat'iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifattir. Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so'z ma'nolarini yetarli anglash, nutq mazmuniga e'tibor bilan qarash aniq nutq tuzish malakasining shakllanishi uchun imkon beradi. So'z ma'nosi, uning nozikliklarini yaxshi o'zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo'lmaydi. Masalan, *"Avlodlar merosini o'rganamiz"* jumlasida ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun *avlod* so'zining leksik

ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. *Avlod* so'zi asli arabcha bo'lib (uning birlik shakli *valad*, ya'ni «bola» demakdir), o'zbek tilida «bir ota-bobodan tarqalgan nasl», «bir davrda tug'ilib o'sgan kishilar» kabi ma'nolarga ega. Gap meros haqida ketar ekan, *ajdod* so'zi qo'llanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha bo'lib, uning ma'nosi «ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar» demakdir. Shunga ko'ra, mazkur jumla "*Ajdodlar merosini o'rganamiz*" shaklida tuzilishi kerak edi. Ko'rinadiki, *avlod* so'zi tildagi leksik ma'nosiga muvofiq tarzda qo'llanmaganligi uchun nutqning aniqligiga putur yetgan.

Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma'nodosh, ko'p ma'noli so'zlar, paronimlar, so'zlarning uslubi bo'yog'i kabilardagi ma'no o'ziga xosliklarini yaxshi tasavvur qilmoq zarur.

Aniqlik sifati badiiy nutqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, chunki badiiy asar, ma'lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik asosiy bo'lganligi uchun so'z ma'nosidagi siljishlar, ko'chishlar ko'p kuzatiladi. So'z va u ifodalagan predmet o'rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko'pincha ochiq va to'g'ridan to'g'ri bo'lmaydi. Badiiy nutqning asosiy vazifasi estetik ta'sir etishdan iboratligi uchun so'zning turlicha qo'llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma'nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so'zlar o'z va hatto ko'chma ma'nolaridan tashqari ham o'ziga xos yangidan yangi ma'no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta'minlashi mumkin. Masalan, "*Miryoqub g'ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no'qtalab oldi*" (Cho'lpon, «Kecha va kunduz») gapidagi g'urning kaltaklanishi va kular yuzini no'qtalamoq birikmalarida kaltaklanishi va no'qtalamoq so'zlari kasb etgan ma'no nozikliklari («g'urni azobli darajada poymol qilish», «keskin va tamoman to'xtatmoq») bilan matnga ham aniqlik, ham ta'sirchanlik baxsh etgan. Oddiy nutqda *Qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo'ladi. Chunki qor – yonmaydigan narsa. Ammo "*Qalovini topsang, qor yonar*" degan maqolda, ya'ni badiiy nutqda fikr go'zal, obrazli va mubolag'ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Nutqning mantiqiyliigi. Fikr tarkibi va qurilishining to'g'ri ifodalanishi nutq mantiqiyligining asosidir. Nutqda til vositalarining mantiq va to'g'ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Ana shunga ko'ra mantiqiylik sifati nutqda so'zlar, gaplar o'rtasidagi mazmuniy va grammatik aloqalarning

fikr mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat'iy mosligi tarzida ta'riflanadi. Mantiq va grammatika har qanday nutqning tayanchi, har qanday nutq sog'lomligining zaminidir. Ulug' donishmand bobomiz Forobiy grammatika va mantiq ilmining favqulodda ahamiyati haqida quyidagilarni qayd etgan: «Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo'lgan joyda tafakkurni to'g'ri yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi. Grammatikaning tilga va til ifodalariga bo'lgan munosabati mantiq ilmining aql va aqliy tushunchalarga bo'lgan munosabati kabidir. Grammatika har doim til ifodalarida xatolar kelib chiqishi mumkin bo'lganda, tilning o'lchovi bo'lganidek mantiq ham har doim aqliy tushunchalarda xato kelib chiqishi mumkin bo'lganda, aql o'lchovidir».

Mantiqiy nutq tuzish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lishi kerak, ayni paytda til birliklarining leksik-semantik va grammatik mohiyati, ularning bog'lanish xususiyatlarini ham nazardan qochirmasligi zarur. Aytaylik, so'zlarning jumla tarkibida mantiqiy-mazmuniy ziddiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini yetarli darajada bilish lozim. Masalan, *“Traktor va mashinalar yelday uchadi”* gapini mantiqiy deb bo'lmaydi, chunki unda mantiqiy-mazmuniy ziddiyat bor. Mashina mantiqan juda tez, ya'ni yelday uchishi mumkin, ammo traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifati buzilgan.

Nutqning mantiqiyligi ifoda nuqtayi nazaridan ko'proq tilning morfologik va sintaktik sathi bilan bog'liqdir. Har qanday sintaktik birlikning nutqda o'z mantiqiy-grammatik o'rni bor. Gapda so'zlar tartibining to'g'ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg'un bo'lishi mantiqiy nutq tuzishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So'z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikkiyoqlama anglanishiga olib keladi. Masalan, *“Loqaydlik tufayli ko'rsak ham, indamaymiz”* tarzidagi jumlada so'z tartibidagi nuqson sababli fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya'ni «loqaydlik tufayli ko'rish» (bu, albatta, mantiqqa zid) va «loqaydlik tufayli indamaslik». Aslida, ifodalanmoqchi bo'lgan fikr – ularning ikkinchisi. Jumladagi so'z tartibi *“Ko'rsak ham, loqaydlik tufayli indamaymiz”* tarzida tuzilsa, mantiq to'g'ri ifodalanadi.

Nutq mantiqiyligining buzilishi matn sintaksisi sathida, ya'ni gaplarning o'zaro mazmuniy-sintaktik bog'lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma'lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri

bilan bog'langan bo'ladi, shunga ko'ra bog'li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog'lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy bog'lilik. Bunday bog'lilik abzas va mustaqil gaplarni bog'lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko'rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)ning qo'llanishi orqali namoyon bo'ladi.

2. Mantiqiy bog'lilik. Bunday bog'lilik gaplar, abzaslar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so'zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so'z va so'z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog'lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo'ladi.

3. Kompozitsion bog'lilik. Bunday bog'lilik qayd etmoq lozimki, aniqki, ta'kidlamoq joizki, yuqorida aytib o'tilgani kabi tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi.

Yaxlit matnning mantiqiylikini ta'minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to'g'ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog'liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o'z aksini topmog'i lozim. Mantig'i sog'lom matn «biri tog'dan, biri bog'dan» fikrlar «bo'tqa»sidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq kompozitsiya bo'lishi zarur. Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o'rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo'lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, «qissadan hissa» qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka qo'yiladigan talablar tamoman o'ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur mahsuli ekanligi bilan aloqadordir. Mantiqiylikning buzilishi badiiy nutqda o'ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Xilma-xil alogizmlar (mantiqsizlik), g'ayriodatiy birikmalar, jonlantirish va boshqa shu kabi qo'llanishlar ijodkorning badiiy mahorati bilan matnning zaruriy unsurlariga aylanadi. Masalan, nobadiiy nutqda "*Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar*" shaklidagi gap mantiqsiz hisoblanadi. Chunki tinglash uchun «qurol» og'iz emas, balki quloqdir. Ammo Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu

parchada bu gap betakror badiiy obraz tasviriga aylangan: *“O‘tirganlar bir seskanib oldilar.*

– Qanaqa pul, taqsir? – dedi Matxoliq amin.

Hammaning ko‘zi uning og‘ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko‘zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og‘ziga osildilar. Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar”.

Yozuvchi noxush va shum xabarni hayronlik va chorasizlik ichida og‘izlar ochilib qotgan ko‘yi eshitmoqning badiiy rasmini shu tarzda chizgan.

Nutqning sofliqi. Nutqning sofliqi nutqning adabiy til va jamiyatdagi ma’naviy-axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanadi. Kishi nutqining sofliqi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiylari quyidagilardan iborat: 1) shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz; 2) o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari (varvarizmlar); 3) dag‘al, haqorat so‘z va iboralar (vulgarizmlar); 4) «ishlamaydigan» yoki parazit so‘zlar; 5) idoraviy so‘z va iboralar (kanselyarizmlar). Nutq tuzuvchi o‘z nutqining sofliqi haqida qayg‘urar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo‘llashdan tiyilishi lozim.

Badiiy nutqda nutqning sofliqi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma’rifiy saviyasiga urg‘u berish uchun o‘zbek tiliga kirib o‘zlashmagan chet so‘z va so‘z birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini bo‘rttirib ifodalash niyatida dag‘al va haqorat so‘z-iboralar, shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, ya’ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi o‘z ma’nosidan begona qilingan, ya’ni ishlamaydigan so‘z va iboralar ishlatilishi mumkin. Ta’kidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan so‘z va iboralar rasmiy uslubdagina qo‘llanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatilishi o‘rinli bo‘lmaydi. Ammo personajning madaniy-ma’naviy saviyasini kinoyaviy ta’kidlash maqsadida, ya’ni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qo‘llanishi kuzatiladi.

Nutqning boyligi. Nutq ta'sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo'lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o'lchanadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo'lsa, notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o'rin tutadi.

Nutqning boyligini ta'minlashda bir qancha til vositalari ishtirok etadi. Ular orasida leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida o'rin tutadi. Boy, shirali nutq tuza bilishi uchun so'zlovchining, eng avvalo, so'z zaxirasi boy bo'lmog'i kerak. Atoqli so'z san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq, rus shoiri A.S.Pushkinda 21 mingdan ortiq so'z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so'z boyligiga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o'z nutqining boy va ta'sirchan bo'lishini istaydigan har bir kishi o'z lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Nutqning boyligini ta'minlashda, ayniqsa, ma'nodoshlik katta imkoniyatga ega. Ma'nodoshlik, ma'lumki, faqat so'zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik birliklar doirasida ham keng tarqalgan. Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yo'llaridan biri ayni shu ma'nodoshlik asosida bir xil birliklarni almashtirishdir. Tilimizdagi sodda va qo'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlar boy nutq tuzish uchun cheksiz

imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi tarkib nuqtayi nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumalardan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi.

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo'llanadigan takrorlardan farqlash lozim.

Ko'proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta'kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Masalan, quyidagi she'riy parchada buni ko'rish mumkin:

Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,

Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.

Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir,

Sir kabi seravjdir, Pomirday poydor. (A.Oripov)

Nutqning jo'yaliligi. Nutq tuzishdan oldin bu nutqning jo'yasini – munosib o'rnini tasavvur qilish kerak. Har qanday nutq ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mazmuni, tinglovihi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og'zaki ekanligi, nutq vaziyatiga to'la mos kelishi zarur, jo'yalilik sifati shu asosda yuzaga keladi. Til vositalarini tanlashda shu jihatlar inobatga olinishi zarur. Masalan, yaqin kishisini yo'qotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma'lum. Shunday odamdan ko'ngil so'rash, unga ta'ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda «o'lmoq» ma'nosini ifodalash uchun aynan *o'lmoq* so'zini tanlash o'rinli emas, bu so'z so'zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning jo'yaliligini ta'minlash maqsadida mazkur so'zning *vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq* kabi «yumshoqroq» muqobillari qollanadi. Kichkintoylar nutqida, masalan, “*Soglikda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!*” kabi iboralar jo'yalilik sifatidan mahrum bo'ladi, chunki ular bola nutqi uchun mutlaqo xos emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki “*Bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi*” gapida *minnatdorchilik bildirmoq* iborasi nojo'ya qo'llangan, shuning uchun bu nutqni jo'yali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda jo'yalilik sifati rag'batlantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari borligini Siz yaxshi bilasiz. Bir uslubga xoslangan soʻz, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga oʻtkazilishi nojoiz, oʻrinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning joʻyaliligi buzilishi mumkin. Bu oʻrinda aytish kerakki, joʻyalilik sifatini oʻrganishda nutqning yozma va ogʻzaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida joʻyalilik oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Maʼlumki, yozma va ogʻzaki nutqning voqe boʻlish sharoitlari bir xil emas, shunga koʻra bu ikki nutq shaklining oʻziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qolipari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning joʻyaliligiga putur yetadi. Albatta, badiiy nutqda joʻyalilik oʻziga xos namoyon boʻladi.

Nutqning ifodaliligi. Nutq tinglovchi yoki oʻquvchiga jiddiy taʼsir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni oʻziga jalb qila oladigan boʻlishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib boʻlgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga toʻla muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi. Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qogʻozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq eʼtibor qilinsa, ilmiy uslubda oʻrni bilan bir qadar bu sifat kerak boʻladi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir.

Tilda ifodalilikni taʼminlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda koʻp va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, soʻz xazinas, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor boʻlsa, nutqning ifodalilik sifatini taʼminlashga qiynalmaydi.

Tilning soʻz xazinas nutqiy ifodalilikning oʻziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lugʻat boyligidagi soʻzlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol koʻrinadi. Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, *kutmagan* soʻzi *yetti uxlab tushiga kirmagan* iborasi bilan maʼnodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan soʻzdan ancha ustun. Yana qiyoslang: *oʻtaketgan* – *uchiga chiqqan*; *beqiyos* (*juda*) – *yer bilan osmoncha*; *albatta* – *turgan gap*; *hech qachon* – *ikki dunyoda* (*ham*); *yashirin* – *yeng ichida*. **Frazeologik iboralar** oʻz maʼnodoshlari boʻlmish soʻzlarga nisbatan, birinchidan, maʼnoni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obrazlilik yorqin bir tarzda aks

etadi. Frazеologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir. So'z san'atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar. Iboralarning asosiy qo'llanish o'rni, yashash joyi, asosan, badiiy uslubdir. Ilmiy va rasmiy uslublarda esa iboralar deyarli qo'llanmaydi.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Nutq odobi

**Agarchi so'zlarsan, bilib so'zla so'z,
So'zing ko'rga ko'zdir, ko'rsin qora ko'z.**

Nutq odobi Ritorika – notiqlik san'ati bo'lib, kishidan chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyatini talab qilgan. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi III-II asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Ritorika inson muloqotining barcha axloqiy, hissiy, mantiqiy sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun ritorika nafaqat tadbirkorlik maqsadlarining shakllanishida, balki odamlarning qarashlari, fikrlari, jamoalarning va jamiyat qarashlarining qaror topishida ishtirok etadi. Odamlar bilan muomala qilish san'ati ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan odamda bunday fazilat bo'lishi va bu fazilat har qanday sharoitda namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Siz mehmonxonada, restoranda, kutubxonada yoki laboratoriyada ishlashingizdan qat'iy nazar, eng muhimi –o'z fikringizni

aniq va ravshan ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi.

Telefonda so‘zlasish odobiga rioya qilasizmi?

Siz telefon orqali kishilar bilan muomala qilish odobini bilasizmi? Agar buni yaxshi bilmasangiz, suhbatdoshingizni ranjitgan bo‘lasiz. Telefon orqali muomalani o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, quyidagilarni esda tuting:

- Gapni salom-alikdan boshlang. So‘ngra kerakli joyga tushdingizmi yoki yo‘qmi, aniqlab oling.

- Telefonda qisqa, lo‘nda gaplashishga harakat qiling.

- Suhbatdoshingizdan hol-ahvol so‘rab, maqsadga o‘ting.

- Asosiy gapingiz tugagandan so‘ng tanishingizning gapiga quloq soling, uni diqqat bilan tinglang.

- Sizni telefonda chaqirishsa, “Labbay” yoki “Eshitaman” deb javob bering.

- Telefonda so‘zlashayotganda baqirmang.

- Muloqot chog‘ida nutq odobi qoidalariga rioya qiling.

- Agar boshqa raqamga adashib tushib qolgan bo‘lsangiz, darrov uzr so‘rang.

- Sizga bexosdan adashib tushgan bo‘lib, kechirim so‘rashsa, “marhamat, hechqisi yo‘q” deb javob bering.

- Xayrlashishni unutmang. Yaxshi tilak bildirib xayrlashing.

So‘z – qurol, maqsad esa ko‘ngil, ko‘ngil o‘rtanmasa, ehtirolarga to‘lmasa, so‘zda ta’sir bo‘lmaydi. Bitta so‘z olamni vayron qiladi, bitta so‘z qo‘rqoqni polvon qiladi. (Jaloliddin Rumi) Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, huda-behuda gaplarni qoralash, keksalar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirishning yuksak ifodasini talqin etish va boshqalar haqida gap boradi. Shu o‘rinda, Kaykovusning shunday fikri bor: “Hamma qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san’atkorona o‘rganib ol, doimo gapga chechan bo‘lishga harakat qil. Nutqi shirin kishinnig mehribon kishilari ham ko‘p bo‘ladi”.

Odob ziynati

Odobni sershox daraxtga o‘xshatish mumkin. Har bir yoshning, har bir kasb-korning o‘z odobi bor. Inson bolasi go‘dakligidan boshlab otasonasi, ustozlari, atrofni o‘rab turgan barcha birodarlaridan qanday yashashni, odob-axloq qoidalarini o‘rganib boradi. Xalqimizda “Odobli

bola elga manzur”, “Inson odobi bilan go‘zal”, ‘Odobning avvali salom” kabi maqollar mavjud. Darhaqiqat, odob “Assalomu alaykum”dan boshlanadi. Hatto o‘zbek xalq ertaklarida ham yovuzlik ramzi hisoblangan ba’zi obrazlar tilida “Gar saloming bo‘lmasa, bitta yamlab yutardim” degan jummalarni uchratamiz. Bu so‘zni hamma vaqt, har qanday joyda bir xilda, to‘liq, sof talaffuzda qo‘llamoq kerak. Talaffuzning sofliqi, to‘g‘riligi, jummalarning o‘rinli tanlanishi va eng muhimi, sermazmun bo‘lishi nutqimizning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida O‘g‘li Gilonshohga aytgan pand-nasihatlarini bilan tanishaylik. “Men dunyoda nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat-ikrom ko‘rgizgaysan va insonga nomunosib ishlarni qilmagaysan, padaringga la‘nat keltirmagaysan”.

Odob – inson ziynati

Inson uchun chiroyli odob, xulq va yaxshi tarbiya oltindan, har qancha boylikdan ham qadrli, ustun va afzaldir. Chunki, boylik bilan ham topilmaydigan narsalar xushxulqlik, chiroyli muomala bilan topilishi mumkin. Boylik, asosan, insonning o‘ziga foyda bersa, chiroyli odob bilan kishi barchaga manfaat yetkazadi. Boylik bilan berkitib bo‘lmaydigan ba’zi ayb-kamchiliklar chiroyli odob, xulq-atvor bilan yopilishi mumkin. Shu jihatdan odob-axloq boylikdan bir necha marta ustun turadi. Bu haqda Alisher Navoiy “Nazmul Javohir”da shunday yozadi:

Oltin-kumush etma davlat kunidin,
Kim, tortar adab ulusni mehnat kunidin.
Gar yo‘qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.

Xalqda “Inson – shirin so‘zning gadosi” degan naql bor. Haqiqatan shirin so‘z inson qalbini yumshatadi, uni g‘azabdan muloyimlikka, qahrdan mehr sari torta boshlaydi. Shirin so‘z bilan qanchadan-qancha urishib qolganlar bir-birlarini kechiradilar. Shu birgina shirin so‘z tufayli yillab amalga oshmay yurgan ishlar bitadi. Shu birgina shirin so‘z tufayli ikki millat bir-biri bilan oshno tutiladi, dushmanlar o‘zaro og‘a-iniga aylanadilar. Demak, shirin so‘zning quvvati kuchli, shirin muomalasi bilan kishi ko‘pgina narsalarga erishar ekan.

? Mavzuga oid savollar

1. Nutq odobi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq odobi va nutq madaniyati tushunchalarini izohlang.
3. Nutqning to'g'riligi sifatini ta'minlashda nimalarni hisobga olish lozim?
4. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Nutqning sofliги nima va u qanday mezonlar bilan belgilanadi?
6. Shakldosh va ko'p ma'noli so'zlarning nutq aniqligini ta'minlashdagi o'rini izohlang.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan misollarda adabiy til me'yorlariga nomuvofiq qo'llangan, ammo badiiy vazifa bajargan birliklarni izohlang va yozing.

1. Gulsara tim qora tufisini do'qillatib xonamga kirdi. – E, qaldirg'ochmi u? Yaxshi odamlarning uyiga in qo'yadi deyishadi... Kampliment emas, Quvvatjon... Singlimmi uyida den rojdeniyada edik. Uning eri shishkalardan. Sudya. (Sh. Xolmirzayev) 2. Hademay bir-ikkita sovg'im qo'zilaydi. Og'iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin. (Sh. Xolmirzayev) 3. Akalari izidan Samarqand borsa, «Ko'nglim shuni xohladi, borib aytinglar otamga», – deb ularni qaytarib yuborgan ekan. (Erkin A'zam) 4. Yo'q, qorin janoblari to'qlar, ertalab baliq yegan edik, faqat choy bo'lsa kifoya, – dedi u kulib. (N. Aminov)

2-topshiriq. Hassos shoir Erkin Vohidovning «So'z latofati» kitobidan olingan matnni o'qing. Maqolni qo'llashda nutqning aniqligi va mantiqiyligiga yetkazilgan zarar haqida shoirning mulohazalariga munosabat bildiring.

Xalqda «Mehmon otangdan aziz», «Ustoz otangdan ulug'» degan hikmat bor. Biror aqlli zot, otadan ulug', otadan aziz inson bo'lmaydi deb aytgan, chog'i, keyingi vaqtda «Mehmon otangdek aziz», «Ustoz otangdek ulug'» de yish urf bo'ldi. Otadan ulug' va aziz kishining yo'qligi – haqiqat. Aynan shuning uchun ham bu tashbeh ishlatiladi.

Maqolni tahrir qiluvchi oshnolarga maslahatim bor: Agar «-dan» o‘rniga «-dek» qo‘shishni juda xohlasangiz, xalqning boshqa bir iborasi borki, uni shunday tahrir qilsa, savobli ish bo‘ladi. «To‘ylar qiling, qamishdan bel bog‘lab xizmat qilay», – deydilar. Aslida, qamishdan bel bog‘lash emas, qamishdek bel bog‘lab xizmat qilish to‘g‘riroq bo‘ladi.

3-topshiriq. Matnni ko‘chiring. Nutqning boyligini ta‘minlayotgan ma‘nodosh so‘z va iboralarni aniqlang.

Amir bo‘lamiz — ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi yigit. U menga juda mehribon, «bolajonim»lab boshiga ko‘taradi. Qisqasi, xudo berganini birodarlari bilan bo‘lishadigan hotamtoy, muruvvatli inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham kek-g‘arazini sezmaganman, hamisha bag‘rini ochib muomala qiladi. To‘g‘ri, andak kinoya aralash, andak piching-u istehzo bilan. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyanning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini xush ko‘rmaslik – iqi suymaslikmi yoki arzimasi bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib adovat chohida aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi xarxasha-yu janjal evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, «o‘gay» jiyan — Amirga esa odatdagi yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (*Erkin A‘zam*)

4-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Nutqiy ifodalilikni ta‘minlash maqsadida qo‘llangan birliklarni aniqlang.

Himmatni qarang!

Tarixchilarning yozishicha, «oqposhsho» Aleksandr Ikkinchi oliy hazratlari ko‘p «adolatpesha» bo‘lgan ekanlar.

Chernyayev ayni saratonda Toshkentni qariyb ikki oy suvsiz qoldirib qamal qilganini, shaharga bostirib kirgach, aholini ayovsiz qirganini eshitib, podshoyi olam qattiq ranjibdilar. Shu qadar xafa bo‘libdilar, Chernyayevni kapitanlik unvonidan mahrum qilib, general unvonini beribdilar. Bandi brilliant bilan jilolangan oltin qilich hadya qilibdilar. Bir «bechora»ni «jazolash» bo‘lsa, shunchalik bo‘ladi-da! (O‘. Hoshimov)

5-topshiriq. Berilgan gaplarni hozirgi uslubiy me'yorlarga mos ravishda qayta tuzing. Ular o'rtasidagi farqli jihatlarni ayting.

1. Sohibqiron hayratda anchagacha so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash'oridin aytsin. 2. Aytmaydur, – deyishdi chollar. – Qo'rg'onimiz atrofida yer quchib nigun bo'lgan yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh aning dilig'a hikmat kalomini solmag'ay... 3. Norasidani ko'rdingmu? – dedilar Sohibqiron bosh ko'tarmay. 4. Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehriyat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig' chirmagan dunyo ishlaridin sal chalg'itishga urunamen. 5. Dayrda ko'p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo'lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri biladur. (Asqad Muxtor)

13-MAVZU. MATN VA UNING KO'RINISHLARI.

Reja:

1. Matn haqida umumiy tushuncha.
2. Matnning hajmiga ko'ra turlari.
3. Matning uslubiy xususiyatiga ko'ra turlari.
4. Matnning maqsadiga ko'ra turlari.

Tayanch so'z va iboralar: matn, mikro va makro matn, ilmiy-ommabop matn, matn tuzilishi, matn elementlari.

O'zaro va tarkiban bog'langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og'zaki shakldagi yaxlit birlik *matn* sanaladi. Matn tuzuvchi muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish, ularni tasvirlash yoki ular haqida muhokama yuritish kabi maqsadlarni ko'zda tutishi mumkin

Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi.

Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn og'zaki yoki yozma nutqqa xos bo'lishidan qat'i nazar, ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Tavsifiy (monologik) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqeahodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos

xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi soʻzlar, atamalar, modal soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllanadi. Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlaridan keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Matn – nutqiy jaravon mahsuli boʻlgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud boʻlgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bogʻlangan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asar.

Matn hajm va mazmun belgisiga koʻra ikkiga boʻlinadi: 1.Hajm belgisiga koʻra matn tiplari. 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga koʻra matn tiplari.

Hajm belgisiga koʻra matn turlari. Matn gapdan koʻra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq koʻrinishidir. Matnni hajm belgisiga koʻra ikkiga ajratamiz: **Mikromatn** (minimal) va **makromatn** (maksimal) **matn**.

Matn – struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan maʼnolar soʻzning maʼno strukturasi bilan bogʻliq. Mazkur gap oʻzidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish toʻgʻri boʻladi.

Makromatn (maksimal) **matn** deyilganda keng koʻlamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Makomatn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga toʻgʻri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, soʻzboshi (muqaddima), soʻngsoʻz (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va gʻoyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qoʻshimcha izoh, sharh boʻlib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan boʻladi.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq koʻrishimiz mumkin:



Makromatnning eng kichik birligi abzasdir. Abzas bir mazmuniy butunlik bo‘lib, «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo‘lgan qismi» hisoblanadi. Abzas **qisqa xabar** (abzasda aytilmoqchi bo‘lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), **oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog‘lovchi vositalar** (bog‘lovchi vositalar abzasni o‘zidan oldingi abzasga bog‘laydi, shuningdek, abzas ichidagi xabar jumllarini bir-biriga bog‘laydi), **xabarning to‘ldirilishi** (dastlabki xabar to‘ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va **xulosa** (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) qismlarni o‘z ichiga oladigan butunlikdir.

Matn **uslubiy mohiyatiga ko‘ra ilmiy matn** (tezis, maqola, ma‘ruza, annotatsiya, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy va nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma‘lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsifanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Matnning **maqsadiga ko‘ra** quyidagi turlari farqlanadi: 1) hikoya matni; 2) tasviriyl matn; 3) muhokama matni.

Muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish maqsadida tuzilgan matn **hikoya matni** sanaladi. Hikoya matni ko‘proq so‘zlashuv va badiiy asarlarda qo‘llanadi.

Muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxsni tasvirlash, tavsiflash, ta‘riflash maqsadida tuzilgan matn **tasviriyl matn** sanaladi. Tasviriyl matn so‘zlashuv, badiiy asarlar va boshqa nutq shakllarida qo‘llanadi.

Muayyan voqea-hodisa yoki narsa, shaxs haqida muhokama yuritish, mulohaza bildirish maqsadida tuzilgan matn **muhokama matni** sanaladi. Muhokama matni ko‘proq ilmiy asarlarda, shuningdek, badiiy, so‘zlashuv va boshqa nutq shakllarida qo‘llanadi.

Matn tarkibidagi gaplar tuzilishiga ko'ra sodda ham, qo'shma ham bo'laverishi mumkin. Ular mazmunan va mantiqan bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Muayyan so'z va grammatik shakllar bu bog'lanishni ko'rsatib turadi.

? Mavzuga oid savollar

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
3. Nutqning yozma va og'zaki shakllari haqida ma'lumot bering.
4. Matnning maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
5. . Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot bering.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi sohaga oid matndagi ma'lumotlarni "Insert"jadvaliga joylashtiring.

No'xat doni oziq-ovqatda ishlatiladi, undan har xil milliy taomlar tayyorlanadi va hashaki navlari mollarga yem bo'ladi. No'xatdonitarkibida 19-30% oqsil, 4-7% moy, 47-60% azotsiz ekstraktiv moddalar, 2, 4-12, 8% kletchatka, 0,2- 4,0% kul va shuningdek, V vitamini, hamda madan tuzlar mavjud. Oziq-ovqatda uning oqish tusli urug'lari, mollarga esa qoramtir rangli urug'lar ishlatiladi. Mollarning yemiga no'xat doni qo'shilsa, uning hazm bo'lishi yengillashadi. Bug'doy uniga 10-12% no'xat uni qo'shilsa, undan to'yimli non yopilishi mumkin. No'xatning poya va barglarida organik kislotalar bo'lganligi tufayli chorva mollari uni yemaydi, faqat qo'ylar bundan mustasno. Ko'katini boshqa ozuqalarga qo'shib mollarga berish mumkin. No'xat qadimdan Markaziy va Kichik Osiyoning qurg'oqchil mintaqalarida ekib kelingan. Yovvoyi turlari topilmagan. Ekin maydoni bo'yicha dukkakli ekinlar orasida uchinchi o'rinni egallaydi. Ekin maydoni 10 mln. ga yaqin, shu jumladan, 8 mln. ga Hindistonda ekiladi. Mamlakatimizning lalmi yerlarida kam ekib kelingan. Hozirda suvli yerlarda yetishtirish texnologiyasi tadqiq qilinmoqda.

“Insert jadvali” usuli

✓	+	—	?

IZOH:

“✓” — men bilgan ma’lumotlarga mos;

“+” — men bilgan ma’lumotlarga zid;

“—” — men uchun yangi ma’lumot;

“?” — men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotlarni aniqlash, to’ldirish talab etiladi

2-topshiriq. Matning uslubiy mohiyatiga ko’ra turini aniqlang. Sohaga oid atamalarni ajratib yozing va izohlang.

Ikki pallali mollyuskalar

Dengiz va chuchuk suvlarda tarqalgan. Ularning boshi bo’lmaydi. Yon tomondan yassilashgan gavdasi tana va ponasimon oyoq bo’limlaridan iborat. Ulardan baqachanoq tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. **Yashash muhiti va tashqi tuzilishi.** Baqachanoq tinch oqadigan daryolar va sayoz ko’llar tubidagi loy yoki qumga tanasining yar-migacha ko’milib yashaydi. Chig’anoq’i tuxumsimon, uzunligi 10–15 sm, oldingi tomoni to’mtiq, keyingi tomoni esa suyri shaklida (32-rasm, A). Chig’anoq pallalari orqa tomondan elastik paylar yordamida tutashgan. Qorin tomonining oldingi qismida chig’anoqlar orasidagi tirqishdan muskulli ponasimon oyog’i chiqib turadi. Mol-lyuska harakat qilganda oyog’ini chig’anoqdan chiqarib, suv tubiga tiraydi va tanasini oyog’i tomonga tortib oladi. Ana shu tarzda harakatlanganda baqachanoq bir soatda atigi 20–30 sm yo’l bosadi. Baqachanoq chig’anoq’ining sirti muguz moddadan iborat, ichki yuzasi har xil rangda tovlanadigan sadaf bilan qoplangan. Chig’anoq pallalarining ichki yuzasida bir juft yopuvchi muskullar joylashgan. **Oziqlanishi.** Og’iz teshigi oyoqning asosida joylashgan. Kirish sifoni orqali mantiya bo’shlig’iga suv bilan birga organik zarralar, sodda hayvonlar va boshqa mikroskopik jonivorlar kiradi. Og’iz oldida joylashgan ikki juft paypaslagichlari oziqni tutib qoladi va hazm qilish sistemasiga yo’naltiradi. **Nafas olish**

sistemasi. Nafas olish organi – jabralar oyo g‘ining ikki yonidagi mantiya bo‘shlig‘ida joylashgan. Jabralarning sirtida va mantiya pardasida joylashgan kiċrikchalarning harakati tufayli suv mantiya bo‘shlig‘iga kiradi va jabralarni yuvib, chiqarish sifoni orqali chiqib ketadi. Suvda erigan kislorod jabralar-ga o‘tadi, jabralardan esa karbonat angidrid suvga ajralib chiqadi. Kislorod jabradan qon oqimi bilan hamma organlarga tarqaladi. **Qon aylanish, ayirish va nerv sistemalari** suv shillig‘inikiga o‘xshash. Tanasidagi uch juft nerv tugunlari nerv tolalari yordamida o‘zaro tutashgan. Maxsus sezgi organlari bo‘lmaydi

3-topshiriq. Matnni o‘qing va uni kengaytiring .

Salomlashish — qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o‘zaro insoniy muloqot — muomala-munosabatni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq o‘z urf-odatları bor. Hindlar qo‘l kaftlarini birlashtirgancha, peshonalariga tirab, afg‘onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kift urishtirib salomlashsa, inglizlar bosh kiyimini olib, yengil ta‘zim qilishadi.

Biz, o‘zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko‘rganimizda “assalomu alaykum” deya, qo‘l olishib ko‘rishamiz.

Xalqimizning o‘ziga xos tabiatini, lutfkorligini, urf-odatlarini hammamizga jonday aziz, qadrdon bo‘lib qolgan «Salom» so‘zisiz tasavvur qilolmaymiz. Odamning kimligini uning salomi belgilaydi. (M. Sattor)

4-topshiriq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga fikrga mos tarzda birikmalar qo‘shing, gap bo‘laklarini uyushiq yoki ajratilgan bo‘laklar hisobiga kengaytiring.

1. ... men «muboraknoma»ni o‘qitib ko‘rgan ekanman (S. Ahmad).
2. Onajonim, ... men ham bir kun shavqqa to‘larman (A. Oripov). 3. Bir ko‘rdim men uni — shunchalar go‘zal, Oydan-da go‘zaldir,... go‘zal! (Cho‘lpon). 4. Har birimiz o‘z maktabimiz, esladik. 5. Nahotki u erta-indin uzoq ayriliq boshlanishini, yuragi ezilmaydi. (O.) 6. Boyagi yigitning, ... qo‘li gul ekan (P. Q.). 7. Biz Toshkentdan janubga — ... tomonga qarab yura boshladik.

5-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Uning mazmuni va asosiy g‘oyasini, matnning o‘zida va sarlavhada bu g‘oyaning ifodalanishini izohlashga harakat qiling.

Iftixor

Bir gal ancha olis safarga chiqishga to'g'ri keldi. Avval Germaniyaga uchdik.Undan Amerikaga. So'ng Shveytsariyaga. Keyin AngliyagaNihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo'ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: "Assalomu alaykum xonimlar va janoblar! Sizlarni "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi nomidan muborak etamiz! Rostini aytsam, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so'zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, yuzlab xorijiy yo'lovchilar o'tirgan kemada!..Aqalli mana shu holatning o'zi uchun Istiqlolga ming bora ta'zim qilishga tayyorman! (O'.Hoshimov)

14-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.



Reja:

1. Hujjatchilik tarixi haqida.
2. Ish yuritish hujjatlariga qo'yiladigan talablar.
3. Ish yuritish hujjatlarining qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra turlari.

Tayanch so'z va iboralar: hujjat, hujjat matni, tasniflash, hujjat rekvizitlari, rasmiylik, hujjatchilik, hujjatlashtirish, zaruriy qismlari, lisoniy talablar, qoliplashgan birikmalar, aniqlik va ixchamlik.

Hujjatchilik tarixi

O'zining qadimiy va boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi, o'z ish yuritish tarixiga ega. Davlatchilikning boshlang'ich shakllarida, hali yozuv bo'lmagan paytlarda, ma'lum odat tusiga kirgan og'zaki huquqiy me'yorlar asosida ish olib borilgan. Ular yordamida davlatlararo va mamlakat ichidagi, shaxslararo va oilaviy munosabatlar, jinoyatga qarab jazo belgilash, tartib va intizom masalalari yo'lga qo'yilgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrlar mahsuli hisoblanadigan qonun, farmon va farmoyishlar hamda boshqa mazmundagi hujjatlarning amaldagi ko'rinishlari ham aynan ana shu hujjatlarning davomidir. O'zbek davlatchiligining ma'lum bir bosqichi arablar istilosi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan musulmon huquqi bilan bog'liq bo'lib, u Qur'oni Karim va hadislar shaklidagi urfodatlarni izga soluvchi hujjatlar majmuini qamrab oladi. Ular uzoq yillar davomida jamiyatni boshqarish va tartibga solishning asosiy ma'naviy-huquqiy hujjatlari bo'lib kelgan. Huquq doirasida amal qiluvchi asosiy hujjatlardan biri – yer egaligi bilan bog'liq bo'lgan vaqfnomalar sanaladi. Vasiqa ham qadimda keng tarqalgan hujjat turlaridan biri bo'lib, mulkka bo'lgan egalikni bildirib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosga qo'yuvchi hujjat sanalgan va qozilar tomonidan tasdiqlangan. Amir Temur davrida ham soliqqa oid ish yuritish ana shu ko'rsatmalarga asoslangan. O'rta asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo'ldi, davlat mahkamasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo'ldi. O'zbek tilining rasmiy-idoraviy til sifatida qo'llanishi qoraxoniylar hukmronligi davrida boshlandi. XX asrdan so'ng o'zbek xonlari va amirlari saroylarida yozilgan turli xil hujjatlar o'ziga xos mazmuni, muayyan tartibi va nutqiy qolipi bilan ajralib turdi.



Yodingizda tuting! Hujjat – (arab “guvohnoma, isbot, dalil”) axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt.

Normativ (me’yoriy) hujjat deb faoliyatning har xil turlari yoki ularning natijalariga doir qoidalar, umumiy tamoyillar va xususiyatlarni belgilab beruvchi hujjatga aytiladi.

Hujjat aylanishi– hujjatlarning muassasada ularning yaratilishi yoki qabul qilinishidan boshlab ijrosi yakunlangunga yoki jo’natilgunga qadar harakatlanishi demakdir.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va hujjatni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo’lgan axborot.

Hujjatlarni to’g’ri va bexato yozish savodxonlik va yozma nutq madaniyati ko’rsatkichidir. Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun, fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. Idoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.

Oktabr to'ntarishidan keyin sho'rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o'zining istibdod yo'rig'iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo'riq sirtmog'idan chetda qolmadi. Mohiyatan o'ta g'irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqeyi pasayib bordi. Turkiston o'lkasining 1918-yildagi Asosiy qonunida o'zbek va rus tillari davlat tili deb e'lon qilingan. Holbuki o'sha davrdagi o'lka nufusining 37 foizini o'zbeklar, 35 foizini qirg'izlar (qozoqlar bilan birga), 17 foizini tojiklar va atigi 7 foizinigina ruslar tashkil etar edi. Bu hol hisobga olinsa, davlat tilini belgilashdagi mantiqning sog'lom emasligini aniq ko'rish mumkin. Tabiiyki, rasman o'zbek va rus tillari davlat tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda idoraviy ish yuritish rus tilida olib borilavergan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi.

Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayni paytda, hujjatlar matnini tuzish boshqaruv apparati faoliyatidagi eng sermehnat va sermashaqqat jarayondir. Bu jarayonning oqilonaligi va samaradorligini oshirmasdan turib, umumiy boshqaruv madaniyatini yuksaltirib bo'lmaydi. Jamiyat hayoti barcha jabhalarining jadal rivoji esa boshqaruv madaniyatining darajasiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar har qanday zaruriy axborotni rasmiy – ish tilining tegishli shakllarida bemalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish malakalarini puxta egallagan bo'lishi zarur.

O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo'nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo'lmaydi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o'z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Mazkur xodimlar o'zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo'lmasa, ish vaqtlarining 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham ijobiy natijaga erishish qiyin.

Ish hujjatlarida har doim rasmiylik ma'nosi ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo'lgan so'zlar va qoliplashgan barqaror iboralar qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllar (qurilmalar) hujjatlar tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, *"muhokama qilindi"*, *"zimmasiga yuklansin"*, *"qaroriga muvofiq ravishda"*, *"ma'lumot uchun qabul qilinsin"*, *"ruxsat berishingizni so'rayman"*, *"ishonch bildiraman"* kabi. Bunday qoliplashgan birikmalar matnga rasmiylik belgisini kiritadi. Qoliplashgan birikmalarni o'rganish va yodda saqlash hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi.

Sirdan qaraganda, hujjat tayyorlash juda oson ko'rinadi, lekin har bir hujjatning o'ziga xos xususiyati – zaruriy qismlari, lisoniy talablari bor.

1. Hujjatlarning aksariyati A4 formatdagi qog'ozda tayyorlanadi, umumiy tarzda qabul qilingan shaklda va ma'lum tartibda tuziladi.

2. Hujjatning yaxlit va uzluksiz matni uni tusunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun matnni mazmun jihatdan abzas (xat boshi) larga bo'lish maqsadga muvofiq. 3. Ish hujjatlarida yakka shaxsga murojaat qilinganda *"Siz"* kishilik olmoshi bosh harf bilan yoziladi.

4. Sonlar ish hujjatlarida raqamlar bilan yoziladi. Pul bilan bog'liq hujjatlarda (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat) – raqamlar va qavs ichida so'zlar bilan ifodalanadi.

5. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda -nchi (-inchi) qo'shimchasi o'rnida chiziqcha qo'yiladi: 2-kurs, 3-chorak. Tartib sonni rim raqami yordamida ifodalashda chiziqcha qo'yilmaydi, biroq o'qilganda -nchi (-inchi) tarzida talaffuz qilinadi: II kurs, III chorak.

6. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanib, sanani bildirsa, imlo qoidalariga ko'ra chiziqcha qo'yiladi: 2016-yil 6-sentabr. Shuningdek, hujjatning sanasini 06.09.16. tarzida ifodalash ham mumkin.

7. Hujjatlarni imzolashda o'atilgan qoidalarga rioya qilish lozim: avval hujjatni imzolaydigan mansabdor shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, so'ngra ismi va familiyasi yoziladi hamda imzo qo'yiladi.

8. Hujjatlarda qisqartmalarni qo'llash ularning hajmi qisqarishiga va ulardagi ma'lumotlarni qabul qilishni tezlashtirishga yordam beradi.

Hujjatchilikda imlo qoidalariga alohida, tinish belgilaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Har bir hujjatning nomi matn tarkibida atoqli ot sifatida bosh harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yilmaydi. Qolgan o'rinlarda hujjat nomlari kichik harf bilan yoziladi.

Hujjat tayyorlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish talab etiladi:

1) har bir hujjatni tuzishda uning zaruriy qismlariga qat'iy rioya qilinishi lozim, ya'ni zaruriy qismlarning o'rin almashinuviga yo'l qo'yilmaydi; 2) har kim o'z bilganicha hujjat to'lg'izishiga ruxsat berilmaydi; 3) hujjatlardan ariza, tarjimai hol, tushuntirish xati, shaxsiy ishonchnoma, ba'zan hisobot, bildirishnoma, bildirgi ham hujjat to'ldiuvchining o'z dastxatida yoziladi; qolgan hujjatlar esa turli yozuv uskunolari vositasida yozilishi mumkin; 4) hujjatlar matnida tuzatish va o'chirishga yo'l qo'yilmaydi, bunday hujjatlar haqiqiyligini yo'qotadi, ya'ni qalbaki hisoblanadi. Alohida ahamiyatga ega hujjatlar to'ldirilganda hujjat to'ldiruvchining imzosi muassasa, xo'jalik yoki notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi shart.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar)

2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish)

3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar)

4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz) // bildiraman(miz) // eslataman(miz)»;

2) «...ga rozilik bildiradi», «kafolat beradi», «qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «... tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

? Mavzuga oid savollar

1. O'zbek hujjatchiligi tarixidan nimalarni bilasiz?

2. Ish hujjatlarining dastlabki namunalari qaysi davrlarga tegishli?

3. Hujjat yuritish ishlarini o'rganish nima uchun kerak?

4. Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

5. Rasmiy-idoraviy nutq uslubining o'ziga xos tomonlari nimada?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida qavsda berilgan so'zlarga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'shing. Kelishiklarning nomini ayting.

(Soli Akbarov) arizasi kafedra yig'ilishida ko'rib chiqildi . (Men) ishga qabul qilishini so'rab (fermer xo'jaligi raisi) murojaat qildim. (Men) iltimosimni inobatga olsa kerak deb o'ylayman. 1- kurs talabasi Aliyeva Kamola (talabalar uyi) joy berishini so'rab, fakultet kasaba uyushmasi (tashkiloti) murojaat qildi. Aliyeva Kamola agrotexnologiya (fakulteti) o'tkazishini so'rab, (rektor) ariza yozdi. (Ariza) tegishli hujjatlarni ilova qildi.

2-opshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, fe'llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida qo'llang.

Talaba hisoblanmoq, iqtisodchi, lavozimida ishlamoq,yashamoq, ijarada yashagan, tikuvchi, ushlanib qolmoq,taqdim etish uchun, muhandis, universitet ma'muriyatiga, asos, topshirish uchun, qabul qilinmoq, tibbiy ma'lumotnoma, dorishunos, ko'rsatish uchun, oylik maoshi, ijtimoiy ta'minot bo'limiga.

3-topshiriq. Berilgan matnlarda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni to'g'ri qo'ying va daftaringizga ko'chiring.

E'LON

2023-yil 21-oktabr kuni soat 16:00 da Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti faollar zali... O'zbek tili... davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan " Til – millatning iftixori " deb nomlangan bayram tadbiri bo'lib o'tadi. Tadbir... elimiz suygan shoirlar, san'atkorlar hamda universitet talabalari ishtirok etadilar.

Barchangiz... tadbir... taklif etamiz!

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasi

Tarjimayi hol

Men, Karimov Salim Oqilovich, 1970- yil... Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on (hozirgi Nurobod) tumaniga qarashli Ulus qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilganman. Otam – Karimov Oqil va onam – Karimova Zebo vafot etishgan. 1977-1987-yillar... Kattaqo'rg'on (keyinchalik Pastdarg'om) tumanidagi 100-o'rta maktabda o'qiganman, 1992-yilda Samarqand Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatganman. Mehnat faoliyatim ofitserlikdan boshlangan. 1992-1994-yillarda Sovet Armiyasi safida xizmatda, 1994-1995- yillarda Pastdarg'om tumanidagi №99-o'rta maktab... o'qituvchi, 1997-1999-yillarda Sovetobod (hozirgi Nurobod) tumanida ijroiya qo'mita tashkilotchi instruktori, 1999-2003-yillarda SamDU tahrir-nashriyot bo'limi... 216 muharrir, katta muharrir, bo'lim boshlig'i, 2004-2007-yillarda Samarqand viloyati qo'mitasida instruktor, lektor, sektor mudiri vazifalarida ishladim. 2007-2009- yillar... SamDU qoshida doktoranturani o'tadim. 2009- yil... hozirgacha universitet o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri va professori vazifasida ishlab kelyapman. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan 2005-yilda nomzodlik, 2010-yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan... Shu paytga qadar 10 dan ortiq monografiya, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, lug'atlar hamda 50 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarim nashr etilgan. Oilaliman, 3 nafar farzandim bor.

4-topshiriq. Quyida barqarorlashgan iboralarni ko'chirib oling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Nosozligi tufayli , joriy etilganligi munosabati bilan, yaxshi tashkil etilmaganligi sababli , zaruriyat tufayli, yo'qligi tufayli, e'tiborsizlik sababli, ob-havo noqulayligi tufayli, betobligi tufayli, kasalligim sababli, o'zgarganligi munosabati bilan.

5-topshiriq. Qavs ichidagi savollar yordamida kerakli so'z va so'z birikmalarini zarur kelishik qo'shimchalari bilan qo'llang. Gaplarni daftaringizga yozing.

1.Talabalar (qayerdan?) qaytishdi. 2.O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedراس mudiri G.Rahimov (qayerdan?) qaytdi. 3.Talabalar (qayerga?) jo'natildi. 4. Agronom (qayerga?) jo'natildi. 5.Talabalar ishlab chiqarish amaliyotini (qayerda?) o'tashdi. 6.Agrotexnologiya fakulteti talabalari (qayerda?). 7.Zooinjeneriya fakulteti binosida (nima?) o'tkazildi.

15-MAVZU. ISH YURITISH HUJJATLARI TURLARI.

Reja:

1. Ish yuritish hujjatlarining tuzilishga ko'ra turlari.
2. Hujjatlar mazmuniga ko'ra turlari.
3. Mazmun bayonining shakli jihatidan hujjat turlari.
4. Hujjatlarning tegishlilik jihatiga ko'ra turlari.
5. Hujjatlarning tayyorlanish xususiyatiga ko'ra turlari.
6. Hujjatlardagi zaruriy qismlar (rekvizitlar) va ularni rasmiylashtirish.

Tayanch so'z va iboralar: hujjat turlari, me'yoriy hujjatlar, xususiy, namunaviy va qolipli hujjatlar, ish yuritish, til, nutq uslublari, sodda va murakkab hujjatlar, hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ishonchnoma, tushuntirish xati, tilxat, tilning lug'at tarkibi, ma'lumot-axborot hujjatlari, tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, xizmat yozishmalari.

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur — bu tildir.

Hujjatlarning sof o'zbek tilidagi yagona andazalarini yaratish, ular bilan bog'liq atamalarning bir xilligiga erishish borasida ish olib borish lozim. Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi ish yuritishning asosi hisoblanadi.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashtirish mavjud bo'lmasa-da, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin.

Hujjatshunoslikdagi ana shu an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar, eng avvalo, tuzilish o'rniga ko'ra tasnif qilinadi. Bu jihatdan **ichki va tashqi hujjatlar** farqlanadi. *Ichki hujjatlar* ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa *tashqi hujjatlar* hisoblanadi.

Hujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1) **sodda hujjatlar** muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) **murakkab hujjatlar** ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan **xususiy, namunaviy va qolipli** (yoki trafaretli) hujjatlar farqlanadi.

Xususiyl hujjatlarga fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ularning asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo'ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

Namunaviyl hujjatlar sirasiga ish yuritish sohasiga oid hujjatlarning aksariyati, ya'ni har bir tashkilot va uning bo'linmalari uchun zaruriyl bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnoma, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kirad

Qolipli hujjatlar, odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya'ni *o'zgarma* (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va *o'zgaruvchi* (hujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlar; shuning uchun bu tur hujjatlarga nisbatan ko'pincha «yozmoq» emas, balki «to'ldirmoq» so'zi ishlatiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, hujjatlarning qolipli turlari doirasini kengaytirish – ish yuritishni takomillashtirishdagi maqbul yo'llardan biridir. Chunki bu tadbir hujjat matnlarini bir xil qilish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan vaqt hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlar sirasiga, masalan, ish haqi yoki joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari va boshqa ko'plab hujjatlarni kiritish mumkin.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra, xizmat yoki **rasmii hujjatlar** va **shaxsiyl hujjatlarga** ajratiladi. *Xizmat hujjatlari* tayyorlanishiga ko'ra, muassasa yoki mansabdor shaxslarga tegishli bo'lsa, *shaxsiyl hujjatlar* yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi (masalan, shaxsiyl ariza, shikoyat va h.k.).

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jihatiga ko'ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: **qoralama**; **asl nusxa**; **nusxa**; **ikkinchi nusxa (dublikat)**, **ko'chirma**. Aksar hujjatlar dastlab *qoralama* nusxada tayyorlanadi, bu hujjat muallifi, ya'ni tayyorlovchining qo'lyozma yoki kompyuterda ko'chirilgan dastlabki nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta ko'chirilishi mumkin. Aytish joizki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. *Asl nusxa* har qanday hujjatning asli, birinchi rasmii nusxasidir. Asl nusxaning aynan qayta ko'chirilgan shakli *nusxa* deb yuritiladi, odatda, o'ng tomonidagi yuqori burchagiga «Nusxa» degan belgi qo'yiladi. Hujjatchilikda, shuningdek, aynan (faksimil) va erkin nusxalar ham farqlanadi. *Aynan nusxa* asl nusxaning barcha xususiyatlarini – hujjat zaruriyl qismlarining joylashishi, mavjud shakliyl belgilar (gerb, yumaloq muhr, to'rtburchak

muhr, nishon (kabi), matndagi bosma, yozma harf shakllari va shu kabilarni aniq va to'liq aks ettiradi, masalan, fotonusxani yoki kompyuterda chiqarilgan nusxani shu tur hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Erkin nusxada esa hujjatdagi axborot to'la ifodalansa-da, bu nusxa tashqi xususiyatlari jihatidan bevosita asliga muvofiq kelmaydi, ya'ni erkin nusxada asl nusxadagi muhr o'rniga «muhr» deb, imzo o'rniga «imzo» deb, gerb o'rniga «gerb» deb yozib qo'yiladi va h.k. Ba'zan muayyan hujjatga emas, balki uning bir qismiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday hollarda hujjatdan nusxa emas, balki *ko'chirma* olinadi (masalan, bayonnomadan ko'chirma, buyruqdan ko'chirma va h.k.). Nusxa va ko'chirmalar, albatta, notarius, kadrlar bo'limi, «QR» kod, elektron raqamli imzo va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo'ladi. Asl nusxa yo'qolgan hollarda hujjatning ikkinchi nusxasi beriladi, ikkinchi nusxa asl nusxa bilan bir xil huquqiy kuchga egadir.

Rekvizit deb hujjatni rasmiylashtirishning majburiy elementiga aytiladi. Rekvizitlar hujjatda qat'iy tartibda joylashtiriladi. Bu hujjatning huquqiy kuchini ta'minlaydi. Hujjat rekvizitlarining asosiy turlari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
3. Tashkilot yoki muassasa nomi.
4. Tarkibiy tarmoqning nomi.
5. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot manzili, telefon raqami, faks raqami.
6. Elektron pochta manzili.
7. Matn sarlavhasi.
8. Sana.
9. Hujjatga beriladigan shartli raqam (indeks).
10. Kelgan hujjatning sanasi va shartli raqamiga havola.
11. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
12. Hujjat loyihasini tayyorlagan bo'linmaning shartli raqami.
13. Hujjatni oluvchi (adresat).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (rezolutsiya)
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.

19. Ilova mavjudligi haqida qayd.

20. Imzo.

21. Kelishuv ustxati.

22. Rozilik belgisi (viza).

23. Muhr.

24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.

25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.

26. Hujjatning bajarilganligi va uni uning hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.

27. Axborot ichki serverga joylashtirilganligi haqidagi qayd.

28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Keyingi yillarda hujjatlarning elektron shakldagi nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – «lex.uz»ga joylashtirish amaliyoti shakllandi. Unda O'zbekiston Respublikasi miqyosida amal qiladigan qonun, farmon, qaror, farmoyish, kodeks, nizom, yo'riqnoma, uslubiy ko'rsatma, dastur, buyruq, ro'yxat, doktrina, deklaratsiya va yana boshqa ko'plab hujjatlar elektron shaklda joylashtirilgan. Mazkur tizimning joriy qilinishi aholining huquqiy ongini o'stirish bilan birga, istalgan joyda kerakli hujjat namunalari bilan tanishish imkonini bermoqda.

Idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatning matni A4 formatdagi qog'oz varag'ining bir tomonida masshtab kichraytirilmagan holda joylashishi lozim. Qoida tariqasida, standart varaq 1,2 qator oralig'ida («множитель») yozilishi lozim; har bir bet: yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega; xatboshi besh-olti belgiga teng va bir xilda bo'lishi lozim. Matnni kompyuter vositasida bosib chiqarishda «Times New Roman» 12 o'lchamli shriftida yoki shunga o'xshash shriftni qo'llagan holda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Hujjatlarning aniq turlari (buyruq blankalari, ma'lumotnoma blankalari, dalolatnoma blankalari va b.) bir yilda 200 donadan ko'proq ishlatiladigan bo'lsa, shunday blankalar chiqarishga yo'l qo'yiladi.

Aksariyat hujjatlarni, masalan, dalolatnoma, ma'lumotnoma, ishonchnoma, shuningdek, hisobxona hujjatlarini va boshqalarni tuzish oson bo'lishi uchun ulardagi qolip so'zlar yozilib ko'paytirilgan ish qog'ozlari ham odatda blanka deyiladi. Bulardan farqlash uchun yuqoridagi rasmiy xizmat blankalari «rasmiy ish qog'ozi» deb yuritiladi.

? Mavzuga oid savollar

1. Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifalari nimalardan iborat?

2. Tashkiliy hujjatlar sirasiga kiruvchi hujjatlarni sanab o'ting.
3. Xizmat yozishmalari haqida ma'lumot bering.
4. Farmoyish hujjatlari qanday vazifani bajaradi?
5. Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi so'zlar va jumlar ishtirokida gaplar tuzing:

topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo'shatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi.

2-topshiriq. Quyidagi nutqiy qoliplar ishtirokida gaplar tuzing.

qabul qilishingizni so'rayman, ozod etishingizni so'rayman, ruxsat berishingizni so'rayman, buyruqqa asosan, betobligim tufayli

3-topshiriq. Quyidagi so'zlarni zarur grammatik shakllarga qo'yib, rasmiy uslubga xos gaplar tuzing.

eshitmoq, qaror qilmoq, ma'lumot bermoq, bo'lim boshliqlari, tavsiya qilmoq, faol ishtirok etmoq, hurmatli, guruh rahbari, tashrif buyurmoq, qonunga binoan, ilova qilmoq, nazorat qilmoq, kasaba uyushmasi, javob yozmoq, navbatchilik qismi, taklif kiritmoq, ruxsat bermoq.

4-topshiriq. Quyida berilgan ariza va tushuntirish xati namunasiga e'tibor bering, zaruriy qismlar joylashishini yodda saqlang.

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Agrotexnologiya fakulteti dekani A. Aliqulovga 2-bosqich talabasi
Sobir Mahmudovdan

ARIZA

Kasalligim tufayli qishki imtihon va sinovlarni o'z vaqtida topshira olmadim. Shu sababli imtihon va sinovlarni topshirishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizamga kasalligim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma ilova qilindi.

(sana)

(imzo)

S.Mahmudov

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti
Iqtisod fakulteti dekani
E.Berdimuratovga 2-bosqich talabasi
Asad Valiyevdan

TUSHUNTIRISH XATI

Surxondaryo viloyatida bir necha kun transport qatnovi uchun qulay ob-havo sharoiti bo'lmaganligi sababli 2023-yilning 28-29- fevral kunlariga belgilangan mashg'ulotlarga yetib kela olmadim. Fanlar bo'yicha o'tilgan mavzularni o'zlashtirib olishga va'da beraman.

(sana)

(imzo)

A. Valiyev

5-topshiriq. Bayonnomaning «Ish yuritish» kitobidan olingan tavsifi bilan tanishish, bu hujjat turiga namuna yarating.

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qat nashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqelikning o'rni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferensiyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlarida, albatta, bayonnoma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma turli organlar ning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi. Bayonnomada o'z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

**“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanidan rejalashtirilgan
talabalar mustaqil ta’limi mavzulari va bajarish shakli**

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Soat
1	Matn turlari va tarkibi	Namunalar tayyorlash	2
2	Hujjatchilik tarixi va rivojlanishi	Ma’ruza tayyorlash	2
3	Ish hujjatlari namunalarini yaratish (tushuntirish xati, kafolat xati, tilxat)	Namuna yaratish	2
4	Ish hujjatlari namunalarini yaratish (ariza, bildirgi, tarjimayi hol)	Namuna yaratish	2
5	“Yoshlar – innovatsion g‘oyalar tashabbuskori” mavzusida ko‘rgazmali material tayyorlash	Ko‘rgazmali qurol tayyorlash	2
6	Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida referat tayyorlash	Referat tayyorlash	2
7	Til va terminologiya. Mutaxassislik atamaları lug‘atini yaratish.	Atamalarni imlo qoidalariga mos yozish va izohlash	2
8	Badiiy asar mutolaasi (“Chol va dengiz“, ““Qiyomat“, “Yovvoyi yo‘rg‘a“, “Qorako‘z majnun“, “Ot kishnagan oqshom”). Asar taassurotlari asosida fikr va mulohazalarini bayon qilish.	Istalgan shaklda taqdimot tayyorlash	2
9	Sohaga oid ilmiy matn tuzish	Mustaqil ta’lim daftoriga matn namunasini yozish	2
10	A.Qahhor hikoyalari tili	Asardagi turg‘un birikma (ibora)lar qo‘llanilishiga misollar keltirish	2
11	Ixtiyoriy sohaga oid matn tanlab, uni tahlil qilish	Matn mazmunini organayzerlar orqali ifodalash	2

12	Egallayotgan sohangiz bo'yicha ilmiy maqola yozish	Maqola yozish	2
13	"Mutaxassisning odobi va nutqi" mavzusida dialogik matn yaratish	Dialog tuzish	2
14	Hozirgi o'zbek imlosi haqidagi mulohazalaringiz	Shaxsiy fikr-mulohazalarni daftarda bayon etish	2
15	O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Sohaga oid o'z va o'zlashgan so'zlar tasnifi.	Daftarga o'zlashma so'zlar izohini yozish	2

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning izohi
Adabiy til	Литературный язык	Literary language	umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum bir me'yorga solingan shakli
Atama	Термин	Term	termin, fan-texnika, kasb-hunarga oid bir ma'noli so'z
Gap	Предложение	Sentence	muomalaning eng kichik birligi, mazmun va grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugallangan fikr
Grafika	Графика	Graphics	tilshunoslikda yozuvni o'rganadigan bo'lim
Sheva	Диалект	Dialect	ma'lum bir hududdagina ishlatiladigan so'zlar
Fonetik yozuv	Фонетическое письмо	Phonetic writing	tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarning yozilishi
Nutq	Речь	Speech	fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati
Abzas	Абзац	Paragraph	xat boshi, satr boshi
Tezis	Тезис	Thesis	ilmiy asar, maqola, ma'ruza va shu shakldagi asosiy g'oyalarning qisqacha ifodasi
Termin	Термин	Term	umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lib, ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir

Terminologiya	Терминология	Terminology	muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Terminologiya – fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisidir. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar
Terminologik tizimni tartibga solish	Упорядочение системы терминологии	Regulating terminology system	terminlarni to'plash, sistemalashtirish, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish
Semantik yoki leksik-semantik yo'l bilan yasash	Словообразование семантически м, лексико-семантически м путем	Organizing by semantic or lexical-semantic ways	o'zbek tilshunosligida so'z ma'nosining o'zgarishi, ma'noning ko'chishi, polisemantik so'zlarning ba'zi ma'nolari orasidagi bog'lanish uzilib, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so'zning hosil bo'lishi
Morfologik usul	Морфологический метод	Morphologic method	leksemalar hosil qilishning keng tarqalgan yo'llaridan biri bo'lib, affikslar orqali so'z yasash
Sintaktik usul	Синтаксический метод	Syntactic method	mustaqil ma'noli ikki va undan ortiq so'zlarni bir-biri bilan grammatik jihatdan birlashtirib ifodalash usuli

Fakt	Факт	Fact	ma'lum bir haqiqatga xizmat qiluvchi manba
Maqola	Статья	Article	nutq, kichik asar. To'plam, jurnal, gazeta uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi katta bo'lmagan ilmiy yoki publitsistik asar
Tahrir	Редактирование	Edit	yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish
Sodda gap	Простое предложение	Simple sentence	bir ega-kesim birligidan iborat gap
Takroriy so'z	Повторное слово	Repeating word	bir so'zning takroridan iborat bo'lgan so'z
Tasviriy ifoda	Изобразительное выражение	Figurative phrasing	so'zni obrazli qilib aytish
Sintaktik birlik	Синтаксическое единство	Syntactic unit	so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi
Leksika	Лексика	Lexicon	tildagi barcha so'zlar yig'indisi
Maqol	Пословица	Proverb	Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda ixcham tugal ma'noga ega bo'lgan, ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora
Esse	Эссе	Essay	erkin kompozitsiyali uncha katta bo'lmagan nasriy asar bo'lib, esseda narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi
Taqriz	Рецензия	Review	adabiy tanqid janri bo'lib, arab tilida ijobiy baho degan ma'noni anglatadi va yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili hisoblanadi

Rezume	Резюме	Resume	fransuzcha soʻz boʻlib, yozilgan, aytilgan yoki oʻqilgan narsaning qisqa holatda aks ettirish, qisqacha xulosa, biror narsaning yakuniy natijasi
Annotatsiya	Аннотация	Annotation	kitob, maqola va boshqalarning mazmuni, ahamiyati haqida qisqacha maʼlumot, qisqacha taʼrif
Xususiy hujjatlar	Частные документы	Private documents	tashkilotlarda matnning oʻziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin boʻladigan hujjatlardir
Namunaviy hujjatlar	Образцовые документы	Exemplary documents	boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bogʻliq bir-biriga oʻxshash va koʻp takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni oʻz ichiga oladigan hujjatlardir
Qoliqli hujjatlar	Шаблоны документы	Model documents	odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qogʻozlariga yoziladigan hujjatlardir
Manzil	Адрес	Address	pochta joʻnatmalari (xat-xabar, buyum va pul joʻnatmalari kabilar) ustidagi yozuv boʻlib, unda joʻnatma yetib borishi zarur boʻlgan joy (qayerga), uni oluvchi shaxs yoki muassasa (kinga) nomi va joʻnatuvchi haqidagi maʼlumotlar (joʻnatuvchi adresi) koʻrsatiladi

Fakt	Факт	Fact	ma'lum bir haqiqatga xizmat qiluvchi manba
Maqola	Статья	Article	nutq, kichik asar. To'plam, jurnal, gazeta uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi katta bo'lmagan ilmiy yoki publitsistik asar
Tahrir	Редактирование	Edit	yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish
Sodda gap	Простое предложение	Simple sentence	bir ega-kesim birligidan iborat gap
Takroriy so'z	Повторное слово	Repeating word	bir so'zning takroridan iborat bo'lgan so'z
Tasviriy ifoda	Изобразительное выражение	Figurative phrasing	so'zni obrazli qilib aytish
Sintaktik birlik	Синтаксическое единство	Syntactic unit	so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi
Leksika	Лексика	Lexicon	tildagi barcha so'zlar yig'indisi
Maqol	Пословица	Proverb	Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda ixcham tugal ma'noga ega bo'lgan, ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora
Esse	Эссе	Essay	erkin kompozitsiyali uncha katta bo'lmagan nasriy asar bo'lib, esseda narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi
Taqriz	Рецензия	Review	adabiy tanqid janri bo'lib, arab tilida ijobiy baho degan ma'noni anglatadi va yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili hisoblanadi

Rezume	Резюме	Resume	fransuzcha so'z bo'lib, yozilgan, aytilgan yoki o'qilgan narsaning qisqa holatda aks ettirish, qisqacha xulosa, biror narsaning yakuniy natijasi
Annotatsiya	Аннотация	Annotation	kitob, maqola va boshqalarning mazmuni, ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot, qisqacha ta'rif
Xususiy hujjatlar	Частные документы	Private documents	tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir
Namunaviy hujjatlar	Образцовые документы	Exemplary documents	boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladigan hujjatlardir
Qolipli hujjatlar	Шаблоны документы	Model documents	odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir
Manzil	Адрес	Address	pochta jo'natmalari (xat-xabar, buyum va pul jo'natmalari kabilar) ustidagi yozuv bo'lib, unda jo'natma yetib borishi zarur bo'lgan joy (qayerga), uni oluvchi shaxs yoki muassasa (kimga) nomi va jo'natuvchi haqidagi ma'lumotlar (jo'natuvchi adresi) ko'rsatiladi

Hisobot	Отчет	Report	muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarnig bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir.
Bayonnoma	Протокол	Protocol	turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat
Tasdiq xati	Утвердительно е письмо	Confirmation letter	ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga javob tarzida yoziladigan xatlarning bir turi
Ilova xat	Письмо- приложение	Appendix letter	xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozi
Axborot xati	Информацион ное письмо	Information letter	ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbiridan xabardor qilish
Muloqot	Общение	Communication	kishilar o'rtasidagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni

Kommuni- katsiya	Коммуникация	Communication	lotincha "communicatio" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib umumiy qilmoq, bogʻlamoq). Fikr almashuv, aloqa. Haqiqatda konkret nutq sharoiti tinglovchiga soʻzlovchi aytayotgan voqea-hodisani tezroq, osonroq tushunishga yordam beradi, kommunikatsiyani tezlashtiradi
Integrallashuv funksiyasi	Функция интегралы- зации	Function of integration	biznes tashkilotlarining turli xil funksiyalari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni amalga oshirish
Ichki muloqot	Внутреннее общение	Internal communication	Insonlar tashkilot ichida bir-birlari bilan muloqot qilishlari
Tashqi muloqot	Внешнее общение	External Communication	Tashkilotdagi xodimlar tashkilotdan tashqaridagi shaxslar bilan muloqotlari
Monologik nutq	Монологическа я речь	Monologue	(yunoncha monos bir, yakka; logos soʻz, nutq) soʻzlovchini oʻz oʻziga yoki oʻzgalarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutqi
Dialogik nutq	Диалогическая речь	Dialogue	Ikki yoki bir necha kishi oʻrtasidagi ogʻzaki muloqot, suhbat
Kontekst	Контекст	Context	lotincha contextus qoʻshilish, ulanish, bogʻlanish) faqat kontekstgina har bir soʻzning konkret maʼnosiga oydinlik kiritadi

Qisqa xabarlar xizmati (SMS)	Сервис коротких сообщений (СМС)	Short message service (SMS)	mobil telefonlar orqali xabarlarni jo'natish va qabul qilish imkoniyati
Telekonferensiya	Телеконференция	Teleconference	ikki yoki undan ko'proq odamlar o'rtasida joylardagi elektron muloqot
Mimik pantomima	Мимическая пантомима	Mimic pantomime	aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki iliq tabassum
Diksiya	Дикция	diction	(lotincha dictio talaffuz qilish) - har bir bo'g'in, tovush, so'zni to'g'ri va aniq talaffuz etishning aniqlik darajasi
Ekstralingvistik omillar	Экстралингвистические факторы	Extralinguistic factors	tilga bog'liq bo'lmagan shart-sharoitlar
Fonetika	Фонетика	Phonetics	tovushlarning paydo bo'lishi va ularning akustik xususiyatini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi
Pedtexnologiya	Педтехнология	Teaching technology	(qadimgi yunon san'at, qobiliyat, so'z, ta'lim) ta'lim texnologiyasi shakllari, usullari, texnik, o'qitish usullari va ta'lim resurslarini maxsus majmui
Verbal muloqot	Вербальное общение	Verbal communication	So'zlar yordamida sodir bo'luvchi muloqot
Noverbal muloqot	Невербальное общение	Non-Verbal communication	so'zlarni ishlatmaydigan muloqot turiga taalluqli bo'ladi
Paralingvistik ta'sir	Паралингвистическое влияние	Paralinguistic influence	bu nutqning atrofida uni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar

Verbal ta'sir	Вербальное влияние	Verbal influence	bu so'z va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir
Proksemika	Проксемика	Proxemics	kishilarning muloqot davomida bir-biriga qarab, moslab ish tutishi va oraliq masofani tutishi
Takesika vositalari	Средства такесики	Takesika	silab qo'yishlar, daxldorlik, qo'l berib ko'rishishlar, urib-urib qo'yishlar
Ekstralingvistik a	Экстралингвистика	Extralinguistics	G'azab, qo'rqish ancha baland ovoz bilan, qayg'u, g'am-g'ussa, horg'inlik odatda yumshoq pasaytirilgan ovoz bilan bildiriladi
Ovoz modulyatsiyasi	Модуляция звука	Voice modulation	ovozda kuchaygan ta'sirchanlikni rivojlantirilganda, boshqalarning xatti-harakatlarini anglay olishi
Tezaurus	Тезаурус	Thesaurus	muayyan bilim sohasi tushunchalari, terminlarini to'liq tavsiflovchi lug'at yoki ma'lumotlar to'plami
Vibrofon	Вибрафон	Vibrofon	(lot. Vibrato – titramoq, tebratmoq) tovushning mexanik tebranishi va silkinishi
Korporativ kommunikatsiya	Корпоративная коммуникация	Corporate Communication	biron-bir korporatsiya, uyushmaga mansub, birlashma, jamiyatga tegishli aloqa
Lingvistika	Лингвистика	Linguistics	(frans. Linguistique – til) tilshunoslik va til bilimiga oid
Sinonim	Синоним	Synonym	ma'nodosh so'z, ikkita bir xil yoki bir-biriga yaqin tushuncha

Antonim	Антоним	Antonym	qarama-qarshi, zid ma'noli til (nutq) birliklari
Paronim	Пароним	Paronym	talaffuzi yaqin, shakli va ma'nosi har xil so'zlar
Anketa- so'rovnoma	Анкетирование	The questionnaire	(fran. Enquete- surishtirish, xabar, ma'lumot olish) tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi, so'rovnoma
Kalka	Калька	Kalka	boshqa tillarga xos bo'lgan so'zlarni o'zgarishsiz o'zlashtirish
Dialektizmla	Диалектизм	Dialecticism	tilshunoslikning xalq lahja va shevalarini o'rganuvchi sohasi, shevashunoslik
Argo	Арго	Argo	tilshunoslikning xalq lahja va shevalarini o'rganuvchi sohasi, shevashunoslik
Metafora	Метафора	Metaphor	so'z yoki iborani o'xshashlik yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatish va shunday ma'noda ishlatilgan so'z yoki ibora
Sinekdoxa	Синекдоха	Synecdoche	butun narsani uning qismining nomi bilan, va aksincha, qismni butun narsaning nomi bilan atash
Kanselyarizm	Канцеляризм	Kanselyarizms	rasmiy uslubga xos so'z va birikmalar
Tovush	Звук	Sound	talaffuz etiluvchi va eshitiluvchi mavhum birlik
Arxaizm	Архаизм	Archaism	hozirda sinonimi ishlatiladigan eskirgan so'zlar

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Ma'naviyat" NMIU, 2021 yil. – 280 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021- yil. – 52 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021-yil. – 36 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
5. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N.,
2. Egamberdiyeva N. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2020.
4. Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldoshev M., Muhamedova D. O'zbek tili praktikumi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2006.
5. Hamidova Sh., Eshniyazova M. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2022.
6. Lutfullayeva D. Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslublarining taraqqiyoti. –Toshkent, 2020.
7. Lutfullayeva D.E. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asravlodi. 2010.
8. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
9. Qarshiboyeva Z., Shaymanova Y., Bozorova G. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2023.
10. Yo'ldoshev I. J., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: O'zME, 1998.
2. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
3. Jomonov R. X mi H. Qisqacha imlo lug'ati. – Toshkent: Nishon-noshir, 2010.
4. Jumaniyozov R.. Nutqiy mahorat. – Toshkent: Adolat, 2005.
5. Jumaxo'ja N., Jomonov R.. Yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari. –Toshkent, TDYUI nashriyoti, 2003.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.
7. Mahmudov N., Saidqulov Z va b. Komillik kaliti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
8. Mahmudova S.I. So'z yasash san'ati. Oquv-uslubiy qo'llanma. O'zDSI nashri. 2004.
9. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 1998.
10. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2000.
11. Mualliflar jamoasi. Zamonaviy o'zbek tili. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME. 1-5 jildlar
13. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2015.
14. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
15. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflar Jamiyati 2004.
16. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2019.
17. Toirova G. Pragmalingvistika. O'quv lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
18. Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek tili uslubiyati. – Toshkent: Universitet, 2001.

Internet resurslar:

www.ziyonet.uz.
www.senat.gov.uz.
www.gov.uz.
www.ijod.uz.
www.lex.uz

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU. KIRISH. O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI FANINING O'RGANISH OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	5
2-MAVZU. TIL VA YOZUV MASALALARI.....	20
3-MAVZU. O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI.....	29
4-MAVZU. SO'Z VA UNING MA'NOLARI.....	46
5-MAVZU. SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI.....	52
6-MAVZU. TIL VA TERMINOLOGIYA.....	58
7-MAVZU. TERMINLARNING YASALISHI.....	65
8-MAVZU. ADABIY NUTQ USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	75
9-MAVZU. ADABIY NUTQ ME'YORLARI.....	87
10-MAVZU. O'ZBEK ADABIY TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI.....	90
11-MAVZU. MULOQOT JARAYONI VA UNING KO'RINISHLARI.....	108
12-MAVZU. NUTQNING XUSUSIYATLARI.....	122
13-MAVZU. MATN VA UNING KO'RINISHLARI.....	138
14-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	145
15-MAVZU. ISH YURITISH HUJJATLARI TURLARI.....	152

Bozorova Gulruh, Shaymanova Yulduz, Qarshiboyeva Zuhra

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

**Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasida tahsil olayotgan
talabalar uchun o'quv qo'llanma**

Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 172 bet

"Fan ziyosi" nashriyoti MCHJ

Litsenziya № 3918, 18.02.2021.

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

**Nashriyot direktori
Muharrir
Texnik muharrir**

**I.Xalilov
N.Tojiqulova
L.Fayziyev**

Bosishga ruxsat etildi 29 dekabr 2023 yil.

Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

Times New Roman garniturası.

Shartli hisob tabog'i – 10,2. Nashriyot hisob tabog'i – 11,0

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/57

ISBN: 978-9910-743-7-3-3

«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.

Samarqand sh., Tong k.,55

978-9910-743-7-3-3



9 789910 743733 >